

O'zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab ta'limi vazirining
2026-yil 17-iyuldagi
260-son buyrug'iga
ILOVA

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA
MAKTABGACHA TA'LIMNING
"ILK QADAM"
MILLIY O'QUV DASTURI

/Uchinchi nashri/

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA
MAKTABGACHA TA’LIMNING
“ILK QADAM”
MILLIY O‘QUV DASTURI

/Uchinchi nashri/

Toshkent – 2026

Ishlab chiqish bo'yicha milliy ekspertlar:

Irina Grosheva
Svetlana Pak
Dilafruz Maxmudova
Shaxnoza Nabixanova
Lola Berdiyeva
Gulbahor Parpiyeva
Sirojiddin Rahmonberdiyev
Vazira Nazarova
Muazam Ismailova

Xalqaro maslahatchilar:

Kristian Fabbi
Ulviya Mikailova

Dastur ekspertizasi bo'yicha milliy ekspertlar:

N.Sh.Abdullayeva	Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti rektori, pedagogika fanlari doktori, professor
N.N.Djamilova	Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti Maktabgacha ta'lim metodikasi kafedra professori, pedagogika fanlari doktori
X.I.Ibragimov	Qori Niyoziy nomidagi O'zbekiston milliy tarbiya pedagogikasi instituti direktori, pedagogika fanlari doktori, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi haqiqiy a'zosi, akademik
N.X.Raxmonkulova	I.A.Gersen nomidagi Rossiya davlat pedagogika universitetining Toshkent shahridagi filiali direktori o'rinbosari, pedagogika fanlari doktori, professor
F.T.Ashirova	Toshkent shahridagi 317-sonli davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti direktor o'rinbosari, oliy malaka toifali tarbiyachi-metodist
Z.Siddikova	Toshkent shahridagi 198-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi boshlang'ich sinf o'qituvchisi, oliy malaka toifali o'qituvchi

O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'limning "Ilk qadam" milliy o'quv dasturi /uchinchi nashri/ UNICEF – Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bolalar Jamg'armasi O'zbekistondagi ofisining texnik ko'magida, Islom Taraqqiyot Banki (IsDB), Arab muvofiqlashtirish guruhi (ACG) va Ta'lim sohasida Global Hamkorlik (GPE) "O'zbekiston Respublikasida ta'lim xizmatlari sifati va samaradorligini oshirish" Smart-Ed hamkorlikdagi loyihasi doirasida takomillashtirildi.

O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'limning "Ilk qadam" milliy o'quv dasturi /uchinchi nashri/ Respublika ta'lim markazi huzuridagi Maktabgacha ta'lim yo'nalishi bo'yicha Ilmiy-metodik kengashning 2026-yil 17-iyundagi 2-sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan hamda amaliyotga joriy etish va uchinchi nashri sifatida chop etishga tavsiya etilgan.

Eslatma. Ushbu milliy o'quv dasturida bayon etilgan fikr va mulohazalar faqat uning mualliflariga tegishli bo'lib, ular hech qanday tarzda Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bolalar jamg'armasi (UNICEF), u bilan hamkorlik qiluvchi tashkilotlar, uning Boshqaruv kengashi a'zolari yoki ular vakillik qilayotgan davlatlarning rasmiy pozitsiyasi yoki nuqtai nazari sifatida talqin qilinishi mumkin emas.

MUNDARIJA

KIRISH	3
I BOB. MILLIY O‘QUV DASTURI HAQIDA MA’LUMOT	5
1.1. “Ilk qadam” milliy o‘quv dasturining asosiy xususiyatlari	6
1.2. Milliy o‘quv dasturining asosiy maqsadi	6
1.3. Milliy o‘quv dasturining asosiy tamoyillari	7
II BOB. MILLIY O‘QUV DASTURINING GLOBAL VA MILLIY QADRIYATLARI.....	8
2.1. Global va milliy qadriyatlarning asosi	8
2.1.1. Umuminsoniy qadriyatlar	8
2.1.2. Milliy qadriyatlar	9
2.1.3. Shaxsiy (insoniy) qadriyatlar	9
2.1.4. Ekologik qadriyatlar	10
2.1.5. Ta’limiy qadriyatlar va hayoti davomida ta’lim olish	10
2.2. Inklyuziv ta’lim: alohida ta’lim ehtiyojlarini tan olish	11
III BOB. MILLIY O‘QUV DASTURIGA YONDASHUV	12
3.1. O‘yin orqali ta’lim berish	12
3.2. Bola shaxsiga yo‘naltirilgan ta’lim	13
3.3. Pedagogning roli: pedagog fasilitator sifatida	13
3.4. Oila va jamoatchilik bilan hamkorlik	13
3.5. Bolalar huquqlari, inklyuzivlik va tenglik	14
3.6. Tabiat va atrof-olam bilan bog‘liqlik	14
3.7. Ta’lim muhiti – “uchinchi pedagog” sifatida	14
3.8. MTT tuzilmasi va kun tartibi	15
3.9. Ta’lim-tarbiya jarayonini rejalashtirish	15
IV BOB. MILLIY O‘QUV DASTURIDAGI KOMPETENSIYALAR	17
4.1. Milliy o‘quv dasturidagi kompetensiyaviy yondashuv	17
4.2. 6-7 yoshli maktabgacha yoshdagi bolaning umumiy tayanch kompetensiyalari	17
4.3. Milliy o‘quv dasturidan kutiladigan natijalar	18
V BOB. BAHOLASH VA KUZATISH	21
5.1. Baholash	21
5.2. Kuzatish	21
5.3. Hujjatlashtirish	21
5.4. Baholash vositalari	22
VI BOB. O‘TISH DAVRLARI	24
6.1. Uy (oiladan maktabgacha ta’lim tashkilotiga o‘tish	24
6.2. Har kunlik uy (oiladan maktabgacha ta’lim tashkilotiga kelish va uyga qaytish	24
6.3. MTTda kun davomidagi o‘tishlar (turli kundalik vaziyatlar)	25
6.4. Maktabgacha ta’lim tashkilotidan boshlang‘ich ta’limga o‘tish	25
VII BOB. MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR RIVOJLANISHI VA TA’LIM OLISHIGA QO‘YILADIGAN TALABLAR	27
7.1. Kutiladigan natijalar kodlari	27
7.2. Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishi va ta’lim olishiga qo‘yiladigan talablar	29
7.2.1. Soha: Jismoniy rivojlanish va sog‘lom turmush tarzi	29
7.2.2. Soha: Ijtimoiy-hissiy rivojlanish	35
7.2.3. Soha: Nutq, muloqot, o‘qish va yozish ko‘nikmalari	40
7.2.4. Soha: Bilish jarayonlarining rivojlanishi	45
7.2.5. Soha: Ijodiy rivojlanish	52
MAVZULI LUG‘AT (Glossariy)	56
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI	59
ILOVALAR	60
1-ilova Maktabgacha ta’lim tashkiloti ishchi o‘quv dasturini yaratish bo‘yicha tavsiyalar	60
2-ilova MTT guruhlarining namunaviy kun tartibi	68

3-ilova Namunaviy o'quv reja	72
4-ilova Namunaviy yillik mavzuli reja	77
5-ilova MTTda o'tkazilishi belgilab qo'yilgan bayram tadbirlari ro'yxati	82
6-ilova Bolaning rivojlanish xaritasi	83
3-4 yoshli bolaning rivojlanish xaritasi	85
4-5 yoshli bolaning rivojlanish xaritasi	94
5-6 yoshli bolaning rivojlanish xaritasi	105
6-7 yoshli bolaning rivojlanish xaritasi	117
7-ilova 6-7 yoshli bolaning maktabga tayyorgarlik xaritasi	129
6-7 yoshli bolaning maktabga tayyorgarlik xaritasi	130
8-ilova Guruhlarda rivojlanish markazlarining taxminiy joylashuvi	133
9-ilova Guruhlardagi rivojlanish markazlari va rivojlantiruvchi muhit uchun materiallarning namunaviy ro'yxati	135

QISQARTMA SO'ZLAR RO'YXATI

Talablar – Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishi va ta'lim olishiga qo'yiladigan talablar

MT – maktabgacha ta'lim

MTT – maktabgacha ta'lim tashkiloti

BHTK – Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiya

MMTV – Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi

Milliy o'quv dasturi – O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'limning “Ilk qadam” milliy o'quv dasturi

KIRISH

Ushbu milliy o'quv dasturi O'zbekiston Respublikasining "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi Qonuniga¹ muvofiq ishlab chiqilgan O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'limning "Ilk qadam" milliy o'quv dasturining takomillashtirilgan uchinchi nashri (keyingi o'rinlarda – milliy o'quv dasturi) hisoblanadi.

Ushbu milliy o'quv dasturi maktabgacha yoshdagi bolaning har tomonlama rivojlangan shaxs sifatida shakllanishiga qaratilgan ta'lim-tarbiya jarayonining asosiy maqsadlari, vazifalari, tamoyillari, kutilayotgan natijalari, mazmuni va tashkil etish usullarini belgilaydigan namunaviy tayanch hujjat hisoblanadi.

Ushbu o'quv dasturi maktabgacha ta'limda kompleks, muqobil, qisman (parsial) va moslashtirilgan dasturlarni ishlab chiqish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Milliy o'quv dasturini yangilash zarurati:

Maktabgacha ta'lim bu jadal rivojlanayotgan, nafaqat milliy, balki xalqaro miqyosda tadqiqotchilar, pedagoglar va siyosatchilar e'tiborini jalb qilayotgan ta'lim sohasidir.

Milliy o'quv dasturi maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishi va ta'lim olishiga qo'yiladigan talablar hamda rivojlanib o'zgarib borayotgan dunyo talab va ehtiyojlari asosida takomillashtirildi.

O'zbekiston maktabgacha ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar doirasida "Ilk qadam" milliy o'quv dasturining takomillashtirilishi bir qator sabablarga ko'ra muhim ahamiyat kasb etadi:

maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishi va ta'limi sohasidagi zamonaviy pedagogik va psixologik tadqiqotlarni o'z ichiga olgan ta'lim yondashuvlarni modernizatsiya qilish;

ta'lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy texnologiyalarni integratsiya qilish orqali bolaning interfaollik va jalb qilinganlik darajasini oshirish;

tayanch ko'nikma va asosiy kompetensiyalarni mustahkamlash yo'li bilan bolalarning maktabgacha ta'lim tashkilotidan boshlang'ich ta'limga oson o'tishini ta'minlash uchun ta'lim olishning zarur asosini yaratish;

O'zbekistonning ijtimoiy va madaniy kontekstida bolalarning rivojlanishi va ta'limiga oid tushunchalarini aks ettirish;

qadriyatlar, kompetensiyalar va ta'limga e'tibor orqali bolalarda hayoti davomida ta'lim olishga ijobiy munosabatni rag'batlantirish;

maktabgacha ta'lim tashkilotlarida yuqori sifatli rivojlantiruvchi ta'limni ta'minlashda pedagoglarning rolini kuchaytirish;

rivojlanishning beshta sohasi bo'yicha rivojlantirish va ta'limga qo'yiladigan talablarni aniqlashtirish hamda maktabgacha ta'limni yakunlagan bolalarning zarur bilim va ko'nikmalarni egallashini ta'minlash;

maktabgacha yoshdagi bolalarni kelajakda dunyo fuqarosi sifatida rivojlanishiga ko'maklashish, bunda ularning buyuk ajdodlarimiz va milliy merosimizga sodiqligini saqlab qolish;

maktabgacha yoshdagi bolalarda shakllantirilishi lozim bo'lgan qadriyatlarga alohida e'tibor qaratish;

maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiy-hissiy kompetentlik darajasini oshirish;

jamiyatda madaniy xilma-xillikka hurmat bilan munosabatda bo'lish haqida ijtimoiy xabardorlik darajasini oshirish;

maktabgacha yoshdagi bolalarda ta'lim olishga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirish;

bolalarga atrof-olam barqarorligi uchun mas'uliyat hissini anglash muhimligini ta'kidlash;

¹ O'zbekiston Respublikasining "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida" Qonuni // 2019-yil 16-dekabr O'RQ-595-son // www.lex.uz

maktabgacha yoshdagi bolalarning raqamlashtirish va axborot texnologiyalaridan foydalanish savodxonligini oshirish;

maktabgacha ta'lim sohasida xalqaro tajriba va eng yaxshi amaliyotlarga bo'lgan e'tiborni kuchaytirish.

Asosiy qo'shimcha va o'zgartirishlar:

Milliy o'quv dasturining takomillashtirilgan uchinchi nashrida ta'lim-tarbiya jarayoni har bir bolaning o'ziga xos xususiyatlari va ehtiyojlariga mos holda ta'minlanishiga e'tibor qaratilib, moslashuvchanlik, muqobillik va individuallik kabi asosiy tamoyillar saqlab qoling.

Asosiy qo'shimcha va o'zgartirishlar quyidagi jihatlarida o'z aksini topgan:

maktabgacha ta'lim tashkilotida bola shaxsiga yo'naltirilgan ta'lim, uning shaxsini hurmat qilish va farovonligini ta'minlashga alohida e'tibor qaratgan holda ta'lim-tarbiya faoliyatini tashkil etish tamoyillarini takomillashtirish;

maktabgacha ta'lim sohasidagi milliy va xalqaro ilg'or tajribalarni hisobga olgan holda kompetensiyaviy yondashuvga asoslanib, belgilangan tayanch kompetensiyalarni rivojlantirish;

milliy o'zlikni hurmat qilish, global fuqarolik hissi, shaxsiy mas'uliyat, ekologik barqarorlik va hayoti davomida ta'lim olish odatini shakllantiruvchi global va milliy qadriyatlarni integratsiya qilish;

ta'lim-tarbiya jarayoni integratsiyasini kuchaytirish orqali har bir bolaning har tomonlama rivojlanishi va farovonligini qo'llab-quvvatlashni ta'minlash;

dunyodagi yetakchi maktabgacha ta'lim dasturlarining ilg'or tajribalarini hisobga olgan holda maktabgacha ta'lim sohasidagi xalqaro tendensiyalarga muvofiqlashtirish;

maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim va tarbiya berishda kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan holda yangi asosiy kompetensiya sifatida "tanqidiy fikrlash"ga alohida e'tibor qaratish;

maktabgacha ta'limning sifati uchun muhim tarkibiy qismi deb hisoblangan "o'tish davrlari" haqida alohida bobning kiritilishi;

maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishi va ta'limiga oid aniq talablarni kiritish, bunda bolalar rivojlanishining barcha sohalari bo'yicha to'rtta yosh guruhi kesimida kutilayotgan natijalarning bosqichma-bosqich rivojlanish ketma-ketligi (progressiyasi) belgilab beriladi.

Takomillashtirilgan milliy o'quv dasturi bolalarni maktab ta'limi bosqichida va butun hayoti davomida muvaffaqiyatli ta'lim olishlari uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va kompetensiyalar bilan ta'minlashga qaratilgan bo'lib, O'zbekistondagi maktabgacha ta'limning yuqori milliy va xalqaro standartlarga muvofiqligini ta'minlaydi.

I BOB. MILLIY O'QUV DASTURI HAQIDA MA'LUMOT

“Ilk qadam” milliy o'quv dasturining takomillashtirilgan uchinchi nashri O'zbekistonda maktabgacha ta'limni rivojlantirishda muhim qadam hisoblanadi.

Ushbu milliy o'quv dasturi milliy merosni va global yondashuvlarni uyg'unlashtirgan holda bolalarning barqaror, qat'iyatli, mantiqiy fikrlaydigan va kompetentli shaxs sifatida shakllanishini ta'minlaydi.

Milliy o'quv dasturi bolaning har tomonlama jismoniy, ijtimoiy-hissiy, kommunikativ (nutq, muloqot, o'qish va yozish ko'nikmalari), bilish va ijodiy (kreativ) rivojlanishini o'zaro bog'liq va integratsiyalashgan ta'lim yondashuvlari asosida qo'llab-quvvatlaydi.

Milliy o'quv dasturi maktabgacha ta'limning normativ asosi bo'lib, unda ta'lim-tarbiya jarayonining maqsadlari, vazifalari, tamoyillari, kutilayotgan natijalari, mazmuni va tashkil etilishi belgilab beriladi. Ushbu milliy o'quv dasturi maktabgacha ta'limda moslashuvchanlik va inklyuzivlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

Milliy o'quv dasturi mas'uliyatli, yuksak axloqli va faol shaxslarning rivojlanishini ta'minlaydigan qadriyatlarga asoslangan.

Ushbu qadriyatlar milliy o'zlikni anglash va o'ziga xoslikni hurmat qilishni, global fuqarolikni, shaxsiy mas'uliyatni, ekologik barqarorlikni va hayoti davomida ta'lim olishga qiziqishni shakllantiruvchi asosiy tamoyil bo'lib xizmat qiladi.

II bobda umuminsoniy, milliy, shaxsiy, ta'limiy va ekologik qadriyatlar bayon etilgan.

III bobda ta'lim-tarbiyaning integratsiyalashgan va amaliyotga yo'naltirilgan yondashuvga asoslanganligi yoritib berilgan.

Ushbu yondashuv o'yin usullari (muammolarni hal qilish va ijtimoiy o'zaro hamkorlikni rag'batlantirish), tadqiqotga asoslangan ta'lim olish, turli hodisalarni kuzatish va tahlil qilish, bolalardagi qiziquvchanlikni qo'llab-quvvatlash, shaxsiy tajribaga, amaliy faoliyatga va atrof-olam bilan bevosita o'zaro ta'sirga asoslangan empirik ta'lim olishni o'zida mujassam etgan.

Bu esa o'z o'rnida bolalarni haqiqiy hayotiy muammolarni hal etish jarayoniga jalb etib, ularning moslashuvchanlik va barqarorlik qobiliyatlarini rivojlantiradi.

Bunday yondashuv bolada jismoniy, ijtimoiy-hissiy, kommunikativ, bilish va ijodiy ko'nikmalarni rivojlantirish bilan birga, hayoti davomida ta'lim olishga bo'lgan qiziqish va muhabbat uyg'otadi.

Milliy o'quv dasturi bolalarning quyidagi sohalari bo'yicha rivojlanishini ta'minlaydi:

- 1. Jismoniy rivojlanish va sog'lom turmush tarzi;**
- 2. Ijtimoiy-hissiy rivojlanish;**
- 3. Nutq, muloqot, o'qish va yozish ko'nikmalari;**
- 4. Bilish jarayonlarining rivojlanishi;**
- 5. Ijodiy rivojlanish.**

Pedagoglar kuzatuvchi sifatida aniq va belgilangan talablardan foydalangan holda har bir bolaning rivojlanish jarayonini kuzatib borishlari hamda individual yondashuv asosida ularga ko'maklashishlari mumkin. Bu, o'z navbatida, quyidagilarni ta'minlaydi:

maktabgacha ta'lim bosqichida bola rivojlanishining barcha sohalari bo'yicha ko'nikmalarni shakllantirish;

tizimli maqsadlar orqali boshlang'ich ta'limga va hayoti davomida ta'lim olishga tayyorlash;

milliy va umuminsoniy qadriyatlarga, madaniy merosga hurmat hamda ekologik mas'uliyatni tarbiyalash.

IV bobda bolalar tayanch kompetensiyalari bayon etilgan.

Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishi va ta'lim olishiga qo'yiladigan talablar bolaning har tomonlama rivojlanishini kafolatlaydi hamda uni kelajakda muvaffaqiyatga erishish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar bilan ta'minlaydi.

V bobda kutilayotgan natijalarga erishish darajasini baholashga oid yondashuvlar bayon etilgan.

VI bobda bolalarda sifatli tajriba orttirishda o'tish davrlarining ahamiyati yoritilgan bo'lib, bu ularning barkamol rivojlanishiga xizmat qiladi hamda o'ziga ishonch va ta'limga ijobiy munosabat kabi muhim ko'nikmalarni shakllantirishga yordam beradi.

VII bobda maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishi va ta'lim olishiga qo'yiladigan talablar yangi shaklda, ya'ni 3 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan to'rtala yosh guruhidagi bolalar rivojlanishining barcha sohalari bo'yicha kutilayotgan natijalar ko'rinishida taqdim etilgan.

“Ilk qadam” milliy o'quv dasturi quyidagi ta'lim tashkilotlarida qo'llanilishi majburiy hisoblanadi:

davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida;

nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida;

maktabgacha ta'limning muqobil shakllarida;

“Mehribonlik” uylari va “Mehrli maktab” davlat ta'lim muassasalarining maktabgacha ta'lim guruhlarida;

maktabgacha va boshlang'ich ta'lim uzluksizligini ta'minlash va monitoring qilish uchun ta'lim sohasi boshqaruv organlarida.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari milliy o'quv dasturi asosida o'zlarining ishchi o'quv dasturlarini ishlab chiqish huquqiga ega.

Maktabgacha ta'lim tashkilotining ishchi o'quv dasturi pedagoglar tomonidan, mutaxassislar va ota-onalarni jalb etgan holda tuziladi hamda amaldagi qonunchilik hujjatlariga muvofiq tasdiqlanadi (1-ilova).

1.1. “Ilk qadam” milliy o'quv dasturining asosiy xususiyatlari

Bolalarni milliy o'zlik va global istiqbollar bilan uyg'unlashgan holda hayotga tayyorlaydi.

Boshlang'ich ta'limga tayyorgarlik va hayoti davomida ta'lim olishi uchun tayanch kompetensiyalarini mustahkamlaydi.

Har bir bolaning individual xususiyatlarini hurmat qiladigan va uning faol ishtirokini ta'minlaydigan, inklyuziv hamda bola shaxsiga yo'naltirilgan yondashuvni ilgari suradi.

O'yin va tadqiqotga asoslangan ta'limga, qiziquvchanlikni rivojlantirishga, muammolarni hal etish va ijodkorlikni shakllantirishga alohida e'tibor qaratadi.

Ko'p tilli ta'limni, shu jumladan, davlat tilida va o'z ona tilida ta'lim berishni qo'llab-quvvatlaydi.

O'zbekiston Respublikasining amaldagi normativ-huquqiy hujjatlariga muvofiq tashkilot imkoniyatlari, shuningdek, bolalar qiziqishi, oila va mahalliy jamoatchilik ehtiyojlaridan kelib chiqib, xorijiy tillar va boshqa qo'shimcha ta'lim xizmatlari ko'rsatishini ta'minlaydi.

Qo'shimcha ta'lim xizmatlari asosiy ta'lim-tarbiya faoliyatidan tashqari vaqtda amalga oshiriladi hamda maktabgacha ta'lim tashkilotining o'quv rejasiga kiritilmaydi.

1.2. Milliy o'quv dasturining asosiy maqsadi

“Ilk qadam” milliy o'quv dasturi bola shaxsiga yo'naltirilgan, o'yin va kompetensiyalarga asoslangan yondashuvlarga tayanadi.

Ushbu yondashuvlar quyidagilarga e'tibor qaratadi:

har tomonlama rivojlanishini ta'minlash – jismoniy, ijtimoiy-hissiy, kommunikativ, bilish va ijodiy rivojlanish;

tayanch kompetensiyalarni shakllantirish – bolalarni boshlang'ich ta'limga va hayoti davomida ta'lim olishga tayyorlash;

madaniy o'zlikni mustahkamlash – O'zbekiston tarixi, an'analari va qadriyatlari bilan faxrlanish tuyg'usini tarbiyalash;

global fuqarolikni rivojlantirish – bolalarni hurmat, hamdardlik (empatiya) va hamkorlikka o'rgatish, buni ham global, ham mahalliy kontekstda amalga oshirish;

barqaror rivojlanishga ko'maklashish – ekologik ong va madaniyatni shakllantirish hamda mas'uliyatni oshirish;

inklyuzivlikni qo'llab-quvvatlash – turli qo'shimcha qadriyat sifatida qabul qilinadigan ijodiy muhitni yaratish.

Asosiy maqsad – bolalarni zamonaviy, tez o'zgaruvchi dunyoda muvaffaqiyatli va farovon hayot kechirishlari uchun zarur bo'lgan kompetensiyalar, bilimlar va ko'nikmalar bilan ta'minlash, shu bilan birga ularning milliy meros bilan mustahkam bog'liqligini saqlashdan iborat.

1.3. Milliy o'quv dasturining asosiy tamoyillari

"Ilk qadam" milliy o'quv dasturi O'zbekiston Respublikasining maktabgacha ta'lim tizimida pedagoglar tomonidan qo'llanilishida quyidagi bir qator tamoyillarga asoslangan:

1. Bolalikning o'ziga xos qadriyat ekanligini tan olish

Bolalik – bu hayotning o'ziga xos va shakllantiruvchi bosqichi hisoblanadi.

Bolaning passiv ta'limdan ko'ra, faol izlanish va tadqiqot, o'yin va ijtimoiy muloqot o'rnatish orqali o'rganishi tezroq va yaxshiroq samarali usul hisoblanadi.

2. Har tomonlama rivojlanish va farovonlik

Maktabgacha ta'lim bolaning har tomonlama rivojlanishini ta'minlashi lozim. Bu jismoniy, ijtimoiy-hissiy, kommunikativ, bilish va ijodiy rivojlanish sohalarini integratsiyalash orqali amalga oshiriladi.

Milliy o'quv dasturi bolaning farovonligini ta'minlashga alohida e'tibor qaratib, ta'lim-tarbiya jarayonida xavfsiz, inklyuziv va qiziqarli ta'lim muhiti yaratishga, shuningdek, Bola huquqlari konvensiyasida belgilab qo'yilgan huquqlarni hurmat qilishga asoslanadi.

3. Bola shaxsiga yo'naltirilgan va o'yinga asoslangan ta'lim

Bola shaxsiga yo'naltirilgan va o'yinga asoslangan ta'lim bolalarga ta'lim berishning eng samarali usuli deb tan olingan.

Milliy o'quv dasturi bolalarda muammolarni aniqlash va samarali hal qilish, kreativlik va o'zaro ijtimoiy muloqotga yordam beradigan tizimlashtirilgan va tizimlashtirilmagan o'yin turlarini qo'llab-quvvatlaydi.

4. Inklyuziv va teng huquqli ta'lim

Barcha bolalar, shu jumladan, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ham sifatli maktabgacha ta'limdan teng foydalanish imkoniyatiga ega bo'lishi lozim.

Milliy o'quv dasturi rivojlantiruvchi ta'lim muhitining moslashuvchan, xilma-xil, xavfsiz va qulay bo'lishini ta'minlaydi.

5. Ota-onalar va jamoatchilik bilan hamkorlik

Bolaning rivojlanishida ota-onalar va mahalliy jamoatchilikning roli muhim ahamiyatga ega.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari ta'lim jarayoniga oila, mahalla va madaniyat tashkilotlarini faol tarzda jalb qiladi. Bu, shuningdek, o'yin orqali ta'limni rag'batlantirish, bolalarning xavfsizligi va atrof-olamga g'amxo'rlik qilishini anglatadi.

6. Hayoti davomida ta'lim olishga tayyorgarlik

Bolalarda tanqidiy fikrlash, mustaqillik va mustaqil ta'lim olish ko'nikmalarini rivojlantirish rag'batlantiriladi hamda hayoti davomida ta'lim olishga bo'lgan qiziqishi va muhabbati tarbiyalanadi.

Ushbu tamoyillar O'zbekistondagi maktabgacha ta'lim tizimining milliy ustuvorliklariga hamda xalqaro standartlarga mos kelishini ta'minlab, kelajak avlod uchun mustahkam poydevor yaratadi.

II BOB. MILLIY O'QUV DASTURINING GLOBAL VA MILLIY QADRIYATLARI

2.1. Global va milliy qadriyatlarning asosi

O'zbekistonda maktabgacha ta'limning "Ilk qadam" milliy o'quv dasturi global va milliy qadriyatlarni integratsiya qilish asosida yaratilgan bo'lib, bolalarning har tomonlama rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan.

Ushbu qadriyatlar tarbiyalanuvchilarni o'z ajdodlari merosini hurmat qiluvchi, globallashtirilgan dunyoda faol ishtirok etuvchi, mas'uliyatli, axloqli va malakali shaxslar sifatida shakllanishiga xizmat qiladi.

Milliy o'quv dasturiga kiritilgan asosiy qadriyatlar ta'lim-tarbiyaning milliy talablariga mos keladi² va quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- 1. Umuminsoniy qadriyatlar;**
- 2. Milliy qadriyatlar;**
- 3. Shaxsiy qadriyatlar;**
- 4. Ekologik qadriyatlar;**
- 5. Ta'limiy qadriyatlar.**

Ushbu fundamental tamoyillarni integratsiya qilish orqali milliy o'quv dasturi bolalarni o'z jamoalari hayotiga ma'naviy hissa qo'shish, global fuqarolik tuyg'usini rivojlantirish va milliy o'zligidan faxrlanish hissini shakllantirishga tayyorlaydi.

2.1.1. Umuminsoniy qadriyatlar

Umuminsoniy qadriyatlar bolalarga ijtimoiy munosabatlarda to'g'ri yo'nalishni tanlash, nizolarni hal etish, ijobiy va konstruktiv munosabatlar o'rnatishda axloqiy asos bo'lib xizmat qiladi (o'zaro hurmat, qo'llab-quvvatlash, hamkorlik va ijobiy muloqot).

Ushbu qadriyatlar quyidagilarni targ'ib qiladi:

hayot va inson qadr-qimmatiga hurmat – bolalarni inson hayotini qadrlash va himoya qilishga o'rgatish;

fikir va so'z erkinligi – o'z fikrini erkin ifoda etish va turli ijobiy g'oyalar almashinuvini qo'llab-quvvatlash;

tinchlik va bag'rikenglikka sodiqlik – mehr-shafqat, mehribonlik va hamdardlik (empatiya) va turli madaniyatlar, dinlar va millatlararo tinch yashashni qo'llab-quvvatlash.

Ushbu qadriyatlarni maktabgacha ta'lim tashkilotlarida joriy etish quyidagilar orqali amalga oshiriladi:

rolli o'yinlar – bolalarni o'z his-tuyg'ularini ifoda etishga va boshqalarga hurmat bilan munosabatda bo'lishga undaydi;

madaniy tadbirlar – tarixiy hikoyalar aytish, bayramlar va turli yo'nalishlarni ifodalovchi festivallar kabi madaniy tadbirlar;

hamkorlikdagi o'yinlar – bolalarda mehribonlik va hamdardlik (empatiya), jamoaviy ish va muammolarni birgalikda hal qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi;

bolalar ushbu qadriyatlarni maktabgacha yoshdan boshlab o'rganadilar va o'z jamoalari va jamiyatiga ijobiy hissa qo'shish uchun zarur bo'lgan ijtimoiy-hissiy intellektni rivojlantiradilar.

² O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Davlat ta'lim standartlari va davlat ta'lim talablarini ishlab chiqish hamda joriy etish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2024-yil 27-martdagi 157-son qarori // www.lex.uz

2.1.2. Milliy qadriyatlar

Milliy qadriyatlar bolaning madaniy merosi, oilaviy an'analari va milliy o'zligi bilan bog'liqligini mustahkamlaydi.

Ushbu qadriyatlar bolalarda quyidagilarni rivojlantiradi:

O'zbekiston (Vatan)ga muhabbat – milliy g'urur va iftixor hamda madaniy meroslarga nisbatan hurmat hissini shakllantirish;

oilaga va kattalarga hurmat – bu insonning o'z oilasiga, uning a'zolariga va katta yoshdagi shaxslarga nisbatan izzat-ehtirom bilan munosabatda bo'lishi, ularni qadrlashi, qadriyatlarni avlodlarga o'rgatish;

an'analarni asrab-avaylash – O'zbekiston folklori, xalq og'zaki ijodi namunalari, san'ati va urf-odatlarini bilan tanishtirish;

fuqarolik mas'uliyati – jamiyat hayotida faol ishtirok etishni qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish.

Maktabgacha ta'limda ushbu qadriyatlarni joriy etish quyidagi faoliyatlar orqali amalga oshiriladi:

an'anaviy musiqa mashg'ulotlari, ertak, rivoyat va hikoyalar aytib berish orqali milliy madaniy-tarixiy merosni yosh avlodga yetkazish;

navro'z kabi milliy an'analar va madaniyatni qadrlashni targ'ib qiluvchi milliy bayramlarni nishonlash;

bolalarning jamiyatdagi rolini tushunishga yordam beradigan jamoatchilik ishtiroki.

Milliy o'quv dasturi maktabgacha ta'limda milliy qadriyatlarni mustahkamlab, g'urur, birdamlik va O'zbekistonning madaniy merosini chuqur anglash tuyg'usini tarbiyalaydi.

2.1.3. Shaxsiy (insoniy) qadriyatlar

Shaxsiy qadriyatlar bolaning xarakterini, mustaqil qaror qabul qilish qobiliyati va axloqiy sifatlarini shakllantiradi.

Ushbu qadriyatlar quyidagilarni targ'ib qiladi:

rostgo'ylik va halollik – haqiqatni aytish, adolat va o'z xatti-harakatlari uchun mas'uliyatni his etish muhimligini anglash;

mehribonlik va hamdardlik (empatiya) – ijtimoiy ko'nikmalar va hamkorlikni rivojlantirish, tengdoshlariga mehribon va hamdard bo'lish;

mas'uliyat va qat'iyatlik – javobgarlikni o'z zimmasiga olish, o'z vazifalarini a'lo darajada bajarish va oqibatlarini yaxshi tushunish, maqsadga erishish uchun qat'iy va barqaror harakat qilish, to'siqlar va muammolar oldida qo'rqmaslik, o'z yo'lidan ortga qaytmaslik, fidoyilik muhimligini anglash.

Ushbu qadriyatlarni maktabgacha ta'lim tashkilotida joriy etish quyidagilar orqali amalga oshiriladi:

ma'naviy-axloqiy mazmundagi hikoyalar – qahramonlar murakkab vaziyatlarga duch kelganda muammolar yuzasidan to'g'ri qarorlar qabul qilish orqali bolalarni yaxshilik, adolat va mas'uliyat haqida fikrlashga o'rgatadi;

guruhdagi kundalik vazifalar – masalan, o'simliklarni parvarishlash yoki mashg'ulotlar uchun materiallar tayyorlash orqali mas'uliyat hissini shakllantirish;

o'z his-tuyg'ularini anglash va harakatlarini muvofiqlashtirish – bolalar o'z hislari va xatti-harakatlari haqida mulohaza yuritishni o'rganadilar.

Tuzilmashtirilgan mashg'ulotlar va kundalik tajriba orqali bolalar ularning kelajakdagi xulq-atvori va o'zaro munosabatlarini belgilab beruvchi shaxsiy qadriyatlarni o'zlashtiradilar.

2.1.4. Ekologik qadriyatlar

Milliy o'quv dasturi iqlim o'zgarishi va ekologik barqarorlikka nisbatan ortib borayotgan xavotirlar munosabati bilan, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida (MTT) ekologik ongni shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim integratsiya qilinmoqda.

Ekologik qadriyatlar quyidagilarni shakllantiradi:

tabiatga hurmat – tabiiy resurslarni muhofaza qilish muhimligini anglash;

barqaror odatlar – chiqindilarni qayta ishlash, tejamkorlik, suv hamda energiya resurslaridan oqilona foydalanishni rag'batlantirish;

ekologik tashabbuslarda faol ishtirok etish – bolalarni yer yuzi va atrof-olamdagi narsalarga g'amxo'rlik qilishdagi rolini tushunishga o'rgatish.

Ushbu qadriyatlarni maktabgacha ta'lim tashkilotlarida joriy etish quyidagi faoliyatlar orqali amalga oshiriladi:

daraxt ekish va bog'dorchilik bo'yicha loyihalari – bolalarga mas'uliyat, g'amxo'rlik, sabr-toqat, mehnatsevarlik, sug'orishda suvning keragidan ortig'ini tejash, ekologik ong va madaniyatga o'rgatadi;

guruhlarda chiqindilarni (ikkilamchi materiallarni) qayta ishlash "bekatlari" – bolalarga chiqindilarni (ikkilamchi materiallarni) saralash va qayta ishlash, sanitariya-gigiyena talablariga rioya qilgan holda turli narsalar yasash hamda jarayonlarda foydalanish ko'nikmalarini o'rgatadi;

ochiq havoda va tabiat qo'ynidagi sayrlar – bolalarning atrof-olam bilan bevosita muloqot qilishiga ko'maklashadi.

Barqaror rivojlanishni maktabgacha ta'limning asosiy qismiga aylantirish orqali, O'zbekistonning kelajak avlodlarida hayoti davomida atrof-olamni muhofaza qilishga bo'lgan mas'uliyat tuyg'usini shakllantirishni kafolatlaydi.

2.1.5. Ta'limiy qadriyatlar va hayoti davomida ta'lim olish

Ta'limiy qadriyatlar maktabgacha yoshdagi bolalarda yoshiga nisbatan ko'proq ta'lim olish va o'rganishga bo'lgan intellektual qiziqish hamda muhabbatni tarbiyalaydi.

Ushbu qadriyatlar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

hodisalarni anglash va o'zlashtirishga bo'lgan qiziqish – bolalarni savol berishga va turli yechimlarni izlab topishini rag'batlantirish;

ijodkorlik va innovatsiyalarning ahamiyati – hikoya qilish, san'at va musiqa orqali ijodiy tafakkurni rivojlantirish;

mustaqillik va mustaqil ta'lim olish – ta'lim-tarbiya jarayonida tashabbuskorlikni qo'llab-quvvatlash.

Ushbu qadriyatlarni maktabgacha ta'lim tashkilotlarida joriy etish quyidagi faoliyatlar orqali amalga oshiriladi:

rivojlantiruvchi markazlar – bolalar bu yerda o'yinlar orqali tajribalar o'tkazadi, boshqotirmalar yechadi va kitoblar bilan tanishadi;

loyihaviy ta'lim doirasida bolalar o'zlarini qiziqtirgan mavzular bo'yicha izlanish olib boradi va natijalarini taqdim etadi;

qiziquvchanlikka asoslangan ta'limni rag'batlantirish – bolalarga o'yinga asoslangan faoliyat turlarini tanlash va muhokamalarni boshqarish imkonini beradi.

Milliy o'quv dasturi bolalarda ta'lim olishga bo'lgan o'z-o'zini ichki rag'batlantirishni rivojlantirishga ko'maklashadi va ularni doimiy o'zgarib rivojlanib borayotgan dunyoga moslashishga tayyorlaydi.

2.2. Inklyuziv ta'lim: alohida ta'lim ehtiyojlarini tan olish

Milliy o'quv dasturi barcha bolalar uchun, shu jumladan, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun ham sifatli ta'lim olishda teng imkoniyatlarni yaratadi.

Inklyuziv ta'lim quyidagilarga qaratilgan:

rivojlanishdagi turli ehtiyojlarni qondirish uchun ta'lim-tarbiya berishning moslashuvchan yondashuvlarini taqdim etish;

pedagoglar, mutaxassislar va oilalar o'rtasida samarali hamkorlikni qo'llab-quvvatlash;

har bir bola o'zini qadrli deb his qiladigan xavfsiz va do'stona rivojlantiruvchi ta'lim muhitini yaratish.

Inklyuziv ta'limni joriy etish strategiyalari:

individual ta'lim rejalari (individual ta'lim yo'l xaritasi) – bolalarning turli qobiliyatlari va ta'lim olish uslublarini hisobga oladi.

moslashuvchan o'quv materiallari – ko'rgazmali qurollar, sensor (hissiyot) vositalar, o'yinchoqlar, didaktik materiallar;

o'zaro qo'llab-quvvatlash dasturlari – bolalarning tengdoshlari va kattalar bilan ijtimoiy integratsiyasi va hamkorligini qo'llab-quvvatlaydi.

O'zbekistonda maktabgacha ta'lim tizimi inklyuziv ta'limni joriy etish orqali barcha bolalar, ularning imkoniyatlari va alohida ta'lim ehtiyojlaridan qat'iy nazar, rivojlanishi uchun zarur bo'lgan yordam olishini kafolatlaydi.

III BOB. MILLIY O'QUV DASTURIGA YONDASHUV

O'zbekistonda maktabgacha ta'lim sifati va samaradorligini oshirish yo'lida keng islohotlar amalga oshirilmoqda.

Milliy o'quv dasturi ushbu islohotlar doirasidagi asosiy tashabbus bo'lib, bolalarning milliy maqsadlar va qadriyatlarga hamda ilg'or xalqaro tajribaga asoslangan kompetensiyalarga yo'naltirilgan, integratsiyalashgan va inklyuziv ta'lim olishlarini ta'minlaydi.

Shu munosabat bilan, milliy o'quv dasturini qayta ko'rib chiqish jarayonida O'zbekistonning madaniy merosini qadrlagan holda, innovatsion, dolzarb, zamonaviy pedagogik yondashuvlarni joriy etish tavsiya qilinadi.

Milliy o'quv dasturi milliy an'analar va xalqaro standartlar bilan uyg'unlashgan holda bolalarga bilish jarayoni, ijtimoiy-hissiy ko'nikmalar va dastlabki bilimlarni beradi, shuningdek, madaniy qadriyatlarni hisobga olgan holda boshlang'ich ta'lim va hayoti davomida ta'lim olishga o'tishda muvaffaqiyatli moslashuv jarayonini ta'minlaydi.

Milliy o'quv dasturi maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim-tarbiya berishda bolaning tabiiy qiziqishlariga ko'ra izlanishi, tadqiqot olib borishi, ijodkorligi, hamkorlik kabi yaxlit yondashuvlarni o'z ichiga oladi.

Ushbu yondashuvlar maktabgacha ta'lim faqat bilimni egallash emas, balki o'yinlar orqali ishonch va qiziquvchanlik, tanqidiy fikrlash va ijtimoiy-hissiy ko'nikmalarni rivojlantirishga qaratilganligini tan oladi.

Milliy o'quv dasturi bolaga yo'naltirilgan ta'lim jarayonini qo'llab-quvvatlaydi. U o'yin, qiziqish va tadqiqotlarga asoslangan bo'lib, bolalarda muammolarni hal qilish ko'nikmalari, tanqidiy fikrlash va hayoti davomida ta'lim olib o'rganishga bo'lgan muhabbatni shakllantiradi. Shu bilan birga, inklyuziv ta'limga alohida e'tibor qaratiladi va bolalarni boshlang'ich ta'limga tayyorlaydi.

3.1. O'yin orqali ta'lim berish

Milliy o'quv dasturi o'yin maktabgacha yoshdagi bolalar uchun yetakchi faoliyat turi ekanligini tan oladi. **Tizimli va erkin o'yinlar orqali bolalar quyidagi sohalarida rivojlanadilar:**

bilish ko'nikmalari – muammoni hal qilish, mantiqiy fikrlash va ijodiy yondashuv;
ijtimoiy-hissiy ko'nikmalar – jamoada ishlash, muloqot va hamkorlikda muammolarni hal qilish, o'z-o'zini anglash, hamdardlik (tolerantlik) va sabrlilik;
jismoniy muvofiqlashtirish – yirik, mayda va sensomotor harakatlarni muvofiqlashtirish;
ijodiy (kreativ) ko'nikmalar – turli elementlarni yangicha tarzda ijodiy uyg'unlashtirish qobiliyati;

nutq, muloqot, o'qish va yozish malakalari – bolalar va kattalar bilan suhbatlashish, o'z fikrlari va g'oyalarini so'z bilan ifoda etish, o'qish va yozishga tayyor bo'lish.

Milliy o'quv dasturi doirasida qo'llaniladigan o'yin turlari:

erkin ("ijodiy") o'yin faoliyati – bolalar o'z qiziqishlariga binoan o'yin ssenariysini mustaqil tanlaydilar;

sahnalashtirish o'yin (rolli)lari – hayotiy vaziyatlarga (masalan, oila, kasblar) asoslangan rolli o'yinlar;

konstruktiv o'yin – qurilish bloklari va turli materiallardan foydalanib konstruksiyalar qurish;

sensor o'yin – qo'l bilan teginish, tovush, ovoz va harakatlar bilan bog'liq faoliyatlarda ishtirok etish;

ochiq havodagi o'yinlar – jismoniy faollikni va tabiatni o'rganishni rag'batlantirish;

milliy o'yinlar – xalqimiz madaniyati, urf-odatlarini avlodlar o'tib kelayotgan qadriyatlarini aks ettiradi.

Milliy o'quv dasturi bolani o'zini va atrofdagi olamni o'rganishga rag'batlantiruvchi usul sifatida o'yin orqali ta'limni (bolalar va pedagoglar tashabbusiga asoslangan) o'z ichiga oladi hamda bolalarning zarur bilim, ko'nikma va malakalarni tabiiy va qiziqarli tarzda egallashini ta'minlaydi.

3.2. Bola shaxsiga yo'naltirilgan ta'lim

Milliy o'quv dasturining asosiy tamoyili shundaki, bolalar eng samarali tarzda o'z qiziqishlari va tabiiy qiziquvchanliklariga tayangan holda o'rganadilar. Ta'lim-tarbiya jarayoni qat'iy chegaralar bilan cheklanmasligi, balki tabiiy, erkin, interaktiv va qiziqarli jarayon bo'lishi lozim.

Bola shaxsiga yo'naltirilgan ta'limning asosiy jihatlari:

bolalarga tajriba o'tkazish orqali atrof-olamni anglash imkonini beruvchi faol tadqiqot va amaliy tajribalar;

bolaning kommunikativ ko'nikmalarini rivojlantirish va o'zini namoyon etishi uchun ijodiy hikoya qilish, rolli o'yinlar va muammolarni hal qilish bo'yicha faoliyatlarini rag'batlantirish;

bolalarga turli o'quv-didaktik materiallar va hamkorlikka asoslangan loyihalarda ishtirok etish imkoniyatini beruvchi rag'batlantiruvchi ta'lim muhitini yaratish.

Ushbu yondashuv bolalarda mustaqillik, o'z-o'ziga ishonch va mas'uliyat tuyg'usini shakllantiradi, shu bilan birga ularni ta'limning keyingi bosqichlarida zarur bo'ladigan bilish, ijtimoiy-hissiy va ijodiy ko'nikmalarning rivojlanishiga xizmat qiladi.

3.3. Pedagogning roli: pedagog fasilitator sifatida

O'zbekistonda maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagoglari faqat yo'riqchi sifatida emas, balki ta'lim jarayonining fasilitatorlari (yordam beruvchi, yo'naltiruvchi) sifatida qaraladi.

Milliy o'quv dasturida pedagoglarning roli quyidagicha belgilanadi:

murabbiy – bolalarning qiziquvchanligi va ijodkorligini qo'llab-quvvatlovchi;

hamkor tadqiqotchi bolalar bilan birgalikda g'oyalar va kashfiyotlarni o'rganuvchi;

tyutor (yo'naltiruvchi) bolalarning muammolarni mustaqil hal etish va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rag'batlantiruvchi;

mediator (vositachi) ota-onalar, manfaatdor tomonlar va mahalliy jamoatchilikni maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyati jarayoniga jalb etuvchi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagoglarining o'yinga asoslangan ta'lim, inklyuziv ta'lim va bola psixologiyasi bo'yicha kasbiy rivojlanishi maktabgacha ta'lim sifatini ta'minlaydi.

3.4. Oila va jamoatchilik bilan hamkorlik

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari, oilalar va mahalliy jamoatchilik o'rtasidagi mustahkam hamkorlik maktabgacha ta'lim sifatini yaxshilash uchun muhim ahamiyatga ega.

Bu borada milliy o'quv dasturi quyidagilarni qo'llab-quvvatlaydi:

ota-onalar ishtiroki va hamkorligi – oilada ta'lim-tarbiya faoliyatini rag'batlantirish va maktabgacha ta'lim tashkiloti faoliyatida faol ishtirok etish;

mahalla bilan o'zaro hamkorlik – ta'lim mazmunini boyitishda mahalliy madaniy va ijtimoiy resurslardan foydalanish;

jamoaviy loyihalar – turli tadbirlar, seminarlar, treninglar, ekskursiyalar va boshqa tadbirlarni tashkil etish.

Milliy o'quv dasturi maktabgacha ta'lim tashkiloti, oila va mahalliy jamoatchilik o'rtasidagi aloqani mustahkamlash orqali hamkorlikda ta'lim muhitini yaratishga ko'maklashadi.

3.5. Bolalar huquqlari, inklyuzivlik va tenglik

Milliy o'quv dasturi BMTning Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyasida belgilangan bolaning rivojlanish, ta'lim olish, himoya qilinish va ishtirok etish huquqlariga muvofiqlashtirilgan.

Bu quyidagilarni o'z ichiga oladi:

barcha bolalar uchun teng imkoniyatlar – millati, irqi, terisining rangi, jinsi, tili, dini, siyosiy yoki boshqa e'tiqodlari, ijtimoiy kelib chiqishi, mulkiy ahvoli, nogironligi, tug'ilgan joyi yoki boshqa holatidan qat'i nazar;³

gender tengligi – o'g'il va qiz bolalar uchun ta'limda teng imkoniyatlarning ta'minlanishi;

alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni qo'llab-quvvatlash – inklyuziv ta'lim strategiyalarini amaliyotga joriy etish;

madaniyat va til xilma-xilligi – ko'p millatli O'zbekistonning boy madaniy merosini e'tirof etish va nishonlash;

barcha bolalarning ehtiyojiga ko'ra ta'lim olishi uchun teng imkoniyatlar yaratilishi;

ta'lim olishning turli uslub va ehtiyojlarini hisobga olgan holda moslashuvchan ta'lim strategiyalari;

guruhda xilma-xillikni va o'zaro hurmatni qo'llab-quvvatlovchi do'stona va ochiq ta'lim muhitini yaratish.

Bola huquqlariga asoslangan mazkur yondashuv har bir bolaga inklyuziv ta'lim muhitida muvaffaqiyatga erishish va o'z salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarish imkoniyatini kafolatlaydi.

3.6. Tabiat va atrof-olam bilan bog'liqlik

Maktabgacha ta'limga yaxlit yondashuv bola faqat guruh xonasi va ta'lim tashkiloti hududi bilan cheklanmasligini, balki tabiat va bevosita atrof-olam bilan chambarchas bog'liq ekanligini alohida ta'kidlaydi.

Atrof-olamga mas'uliyat bilan munosabatni shakllantirishning asosiy tamoyillari:

ochiq havoda tadqiqotlar olib borish – tabiat qo'ynida muntazam sayrlar, bog'dorchilik loyihalari va atrof-olamni kuzatish;

jamiyat hayotida ishtirok etish – mahalliy an'analarni o'rganish, madaniyat tashkilotlari bilan hamkorlikda jamoat tadbirlarida ishtirok etish;

ekologik-do'stona amaliyotlar – chiqindilarni (qayta ishlanadigan tabiiy va maishiy materiallar) qayta ishlash va atrof-olamni muhofaza qilishga qaratilgan tashabbuslar orqali barqaror rivojlanish tamoyillari asosida ta'lim berish.

Ekologik ta'limni integratsiya qilish orqali bolalarda mas'uliyat hissi, ekologik ong va o'z madaniy merosiga nisbatan hurmat hamda qadrlash tuyg'usi shakllantiriladi.

3.7. Ta'lim muhiti – “uchinchi pedagog” sifatida

Jismoniy ta'lim muhiti bolaning ta'lim-tarbiya olish bilan bog'liq tajribasini shakllantirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Milliy o'quv dasturi ta'lim muhitini pedagog va tengdoshlar bilan bir qatordagi “uchinchi pedagog” sifatida e'tirof etadi.

Rag'batlantiruvchi ta'lim muhitining asosiy jihatlari:

³ Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiya // BMT Bosh Assambleyasining 1989-yil 20-noyabrdagi 44/25-sonli Rezolyutsiyasi bilan qabul qilingan; O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1992-yil 9-dekabrdagi 757–XII-sonli qarori bilan qo'shilgan / 2.1-modda.

moslashuvchan va o'zgaruvchan vositalar – tajriba orttirish va ijodkorlikni rag'batlantiruvchi muhitni yaratish;

tabiiy materiallardan foydalanish – sensor rivojlanishni rag'batlantirish va ekologik ongini shakllantirish;

yopiq xonada va ochiq havoda ta'lim olish o'rtasidagi muvozanat – dinamik ta'lim muhitini ta'minlash;

xavfsizlik, moslashuvchanlik va mahalliy madaniyat bilan bog'liqlikni ta'minlash.

Milliy o'quv dasturi interaktiv va qiziqarli ta'lim muhitini yaratish orqali bolalarda mustaqil fikrlash, hamkorlik va o'z-o'zini anglashni qo'llab-quvvatlaydi.

3.8. MTT tuzilmasi va kun tartibi

Tizimli, biroq o'yinga asoslangan moslashuvchan kun tartibi maktabgacha yoshdagi bolalarda xavfsizlik, barqarorlik, oldindan ko'ra bilish imkoniyati hamda faol ishtirok etishni ta'minlaydi.

Milliy o'quv dasturi yondashuvi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

faol va tinch faoliyat o'rtasidagi muvozanat – izlanish, mulohaza yuritish va dam olish uchun vaqt ajratish;

faoliyat turlarining biridan boshqasiga bir maromda va oson o'tish – bolalarda xavotir va bezovtalikni kamaytirish hamda ularning barchasini faol ishtirok etishga jalb qilish;

o'yin, ijtimoiylashuv va tizimli ta'lim faoliyatini integratsiya qilish – har tomonlama ta'limiy tajriba yaratish.

Barqaror va rag'batlantiruvchi kun tartibini ta'minlash bolalarda vaqtni boshqarish, mustaqillik va mas'uliyat hissini rivojlantirishga yordam beradi (2-ilova).

3.9. Ta'lim-tarbiya jarayonini rejalashtirish

O'yinga asoslangan ta'lim-tarbiya jarayonini samarali rejalashtirish milliy o'quv dasturining eng muhim tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. Bu jarayon o'yinga asoslangan ta'lim-tarbiya jarayonining mazmunli, bolaning rivojlanish darajasiga mos va uning qiziqishlariga muvofiq tashkil etilishini kafolatlaydi.

Samarali rejalashtirishning asosiy jihatlar:

mavzuli va integratsiyalashgan ta'lim – bolaning rivojlanish sohalaridagi faoliyatlarni o'yinga asoslangan holda haqiqiy hayotiy tajriba bilan bog'lash;

moslashuvchanlik va moslashtirish – bolalarning ehtiyojlari va qiziqishlaridan kelib chiqqan holda mustaqil o'yin faoliyatlari rejalarini moslashtirish;

pedagoglar o'rtasida hamkorlik – o'yinga asoslangan ta'lim-tarbiya amaliyotida bilim, tajriba va ilg'or amaliyotlarni almashishni rag'batlantirish.

Rejalashtirish turlari

Yillik mavzuli reja

Namunaviy yillik mavzuli rejada har bir yosh guruhi uchun oy mavzulari va haftalik mavzular aks ettirilgan.

Maktabgacha ta'lim tashkilotining yillik mavzuli rejasi milliy o'quv dasturi hamda maktabgacha ta'lim tashkiloti faoliyatini tartibga soluvchi boshqa amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar, shuningdek, bolaning qiziqishlari va ehtiyojlarini inobatga olgan holda ishlab chiqiladi (4-ilova).

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari o'z hududining xususiyatlari va bolalarning o'ziga xos jihatlarini inobatga olgan holda o'zlarining yillik mavzuli rejalarini ishlab chiqish huquqiga ega.

O'yinga asoslangan ta'lim-tarbiya jarayonini rejalashtirishda maktabgacha ta'lim tashkilotlari o'quv rejasida hududiy xususiyatlar va bolalarning qiziqishlari va ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda quyidagi tarkibni nazarda tutadi:

80 foiz – milliy o'quv dasturida belgilangan majburiy tarkibiy qism;

20 foiz – hududiy komponent, mahalliy xususiyatlar, sharoit va an'analar, bolaning qiziqish va ehtiyojlarini hisobga olgan holda.

Yillik mavzuli reja maktabgacha ta'lim tashkilotlarining Pedagogik kengashi tomonidan har o'quv yili boshlanishidan oldin tasdiqlanadi.

Haftalik reja

Haftalik reja yillik mavzuli reja asosida, bolalarning qiziqishlari va ehtiyojlarini inobatga olgan holda tuziladi va unda hafta mavzulari hamda mazkur mavzu doirasida o'tkaziladigan faoliyatlar aks ettiriladi.

Bolalar bilan ishlash mazmuni va ketma-ketligi quyidagi faoliyat turlarini hisobga olgan holda rejalashtirilishi lozim:

faol/passiv faoliyat turlari;

kichik guruhda/katta guruhda olib boriladigan individual faoliyatlar;

bolaning tashabbusi va tanlovi asosida amalga oshiriladigan faoliyatlar;

faoliyat joyi – xonalar ichida yoki ochiq havoda (tabiatda).

Haftalik reja tarbiyachining ish daftari sifatida xizmat qiladi hamda o'yinga asoslangan ta'lim-tarbiya faoliyatining kunlik rejalashtirilishini o'zida aks ettiradi.

Milliy o'quv dasturi tizimli, ammo moslashuvchan va o'zgartirilishi mumkin bo'lgan rejalashtirishni joriy etgan holda ta'lim jarayonining dolzarbligi, qiziqarliligi va samaradorligini ta'minlaydi.

IV BOB. MILLIY O'QUV DASTURIDAGI KOMPETENSIYALAR

4.1. Milliy o'quv dasturidagi kompetensiyaviy yondashuv

Maktabgacha ta'lim bolaning hayoti davomida oladigan ta'limining poydevorini tashkil etadi.

Milliy o'quv dasturi kompetensiyaga asoslangan yondashuvni qo'llaydi va bu orqali bolalar shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishlari uchun zarur bo'lgan bilimlar, ko'nikmalar, malakalar hamda qadriyatlarga asoslangan munosabatlarni muvozanatli ravishda o'zlashtirish imkonini beradi.

Kompetensiyalar – bolaning bilim, ko'nikma, malaka va qadriyatlari majmuidir. Bu faqat bilimlarni egallashni emas, balki ularni turli hayotiy vaziyatlarda qo'llash, muammolarni hal etish va yangi sharoitlarga moslashish qobiliyatini ham anglatadi.

Maktabgacha ta'limdagi kompetensiyalarni rivojlantirish – bu uzluksiz jarayon bo'lib, unda bolalar o'yin, ijtimoiy muloqot va pedagog tomonidan tashkil etilgan tajribalar orqali o'rganadilar.

Milliy o'quv dasturi bolaning boshlang'ich ta'limga muvaffaqiyatli o'tishini va butun hayoti davomida ta'lim olishga tayyorligini ta'minlovchi beshta tayanch kompetensiyalarni belgilaydi.

Ushbu kompetensiyalar bolalarda bilish jarayoni rivojlanishi, hissiy intellekti, ijtimoiy ko'nikmalari, kreativlik va moslashuvchanligini qo'llab-quvvatlaydi hamda ularni kelajakdagi ta'lim va hayotdagi muvaffaqiyatga tayyorlaydi.

4.2. 6-7 yoshli maktabgacha yoshdagi bolaning umumiy tayanch kompetensiyalari

Kommunikativ

Ijtimoiy

Shaxsiy (“Men” konsepsiyasini shakllantirish)

Bilish

Tanqidiy fikrlash

Kommunikativ kompetensiya – bu bolaning atrofidagi insonlar bilan konstruktiv tarzda o'zaro hamkorlik o'rnatish usullari va vositalarini o'zlashtirishini, shuningdek, muloqot qilish hamda kundalik hayotda yuzaga keladigan o'yin, ta'limiy va ijodiy vazifalarni samarali hal etish qobiliyatiga ega bo'lishini nazarda tutadi.

Ushbu kompetensiya tarkibiga nutqni rivojlantirish ham kiradi.

Nutq bolaning bilish jarayoni va ijtimoiy rivojlanishi hamda uning dunyoni anglashida muhim vosita hisoblanadi.

Bolalar og'zaki va yozma muloqot ko'nikmalarini rivojlantiradi, bu esa ularga o'zini ifoda etish, boshqalar bilan munosabat o'rnatish, dunyo, atrof-olam haqidagi tushunchalarini shakllantirish, turli tadbirlarda faol ishtirok etish va jamoaviy loyihaviy ishlarda faol bo'lish imkonini beradi.

Bolalar o'z fikrlarini tengdoshlariga va kattalarga tushunarli tarzda bayon qila oladi. Shuningdek, ular tinglay olish va tushunish, savol berish va javob qaytarish, ko'rsatmalarni to'g'ri bajarish ko'nikmalariga ega bo'ladi. Ular nutq, o'qish va yozish bilan bog'liq faoliyatlarga ijobiy munosabatda bo'ladilar.

Bolalar nutqning turli shakl va funksiyalarini bilib oladilar, zaruratga ko'ra turli muloqot vaziyatlariga mos ravishda ularni qo'llay oladilar.

Shuningdek, ushbu kompetensiya bolaning mustaqil ravishda turli aloqa vositalari va axborot manbalaridan foydalanish, axborotni izlash, tahlil qilish, kerakli ma'lumotlarni saralab olish, tizimlashtirish, qayta ishlash, saqlash va ulardan o'z ta'lim jarayoni va rivojlanishida maqsadli foydalanish ko'nikmalarini ham o'z ichiga oladi.

Ijtimoiy kompetensiya – bu bolaning tengdoshlari va kattalar bilan hamkorlikda faoliyat yuritishi, kelishilgan qoidalar va xulq-atvor normalariga rioya qilgan holda o‘zaro munosabatlar o‘rnata olish qobiliyatidir.

Bolalar boshqalarga nisbatan hurmat bilan munosabatda bo‘lishni va ularning fikrlarini inobatga olishni o‘rganadilar. Ular o‘zlarini guruhning a‘zosi sifatida tobora ko‘proq anglay boshlaydilar va o‘zlarining huquqlari va majburiyatlariga ega ekanliklarini tushunib yetadilar. Ular guruhda samarali faoliyat yuritish uchun zarur bo‘lgan xulq-atvor qoidalarini qabul qiladilar.

Bolalar muammoli vaziyatlarda o‘z yoshi va individual rivojlanish xususiyatlariga mos ravishda ularni hal etishga qaratilgan yechim topishga intiladilar.

Bolalar shaxslararo farqlarga ochiq munosabatda bo‘ladilar, boshqalar bilan uyg‘un hamkorlik qilish qobiliyatiga ega bo‘ladilar.

Turli insonlar bilan muloqot qila oladilar, ular bilan tajriba almashadilar, yordam taklif etadilar, ko‘mak beradilar, hamdardlik (empatiya) va madaniy xilma-xillikni qo‘llab-quvvatlaydilar.

Shaxsiy kompetensiya (“Men” konsepsiyasini shakllantirish) – bolaning o‘ziga g‘amxo‘rlik qilish, kundalik hayotini boshqarish, sog‘lom turmush tarziga rioya etish, madaniy-gigiyenik ko‘nikmalarni barqaror qo‘llash, jismoniy faollik bilan shug‘ullanish hamda o‘z sog‘lig‘i holati uchun mas‘uliyatni his etish qobiliyati va ko‘nikmalarini o‘z ichiga oladi. Bola o‘z qadr-qimmatini anglaydi, o‘z farovonligi va atrof-dagilarga g‘amxo‘rlik qilishni o‘rganadi.

Bola mustaqil va o‘ziga ishonadi. U o‘zining kuchli va zaif tomonlarini biladi, ularni bartaraf etish ustida ishlay boshlaydi, o‘zini boshqalardan farqlay oladi. Bola o‘z g‘oya va fikrlarini ilgari sura oladi, qaror qabul qilishni o‘rganadi, o‘z oldiga maqsad qo‘yish va tanlov qilish ko‘nikmalariga ega bo‘ladi, tashabbus ko‘rsatadi va o‘z xatti-harakatlari uchun mas‘uliyatni his etadi. Bola o‘zining afzalliklari, qiziqishlari, his-tuyg‘ulari va emotsiyalari haqida gapirib bera oladi. U o‘zining ortib borayotgan jismoniy, bilish (kognitiv), hissiy va ijtimoiy ehtiyojlarini qondira oladi, turli vaziyatlarda o‘zini boshqarishni o‘rganadi.

Bilish kompetensiyasi – bolaning bilimlarni egallashi, ularni o‘zlashtirishi, atrof-olamni anglashi uchun zarur ma‘lumotlarni mustaqil ravishda izlash, tahlil qilish va saralab olish qobiliyatini o‘z ichiga oladi.

Bolalar faoliyati va o‘zaro munosabatlari jarayonida bilim olish strategiyalarini rivojlantiradi. Ular o‘yin jarayonida kuzatish, taxmin qilish, gipoteza tuzish va o‘yin orqali tajriba o‘tkazishni o‘rganadilar. Atrof-olamni anglash va muammolarni hal etish uchun yangi yechimlar va imkoniyatlarni kashf etadilar.

Bolalar mustaqil, o‘zini-o‘zi boshqaradigan, tanqidiy va ijodiy fikrlaydigan shaxs sifatida rivojlanadi. Ular atrof-olam haqidagi vazifalarni tushunadi, bilim olishga bo‘lgan qiziqishlarini oshiradi va o‘z bilim va kashfiyotlarini boshqalar bilan o‘rtoqlashadi.

Tanqidiy fikrlash kompetensiyasi – bola mavjud voqelikni tahlil qilish, mustaqil xulosa chiqarish va o‘z fikrini asoslash qobiliyatiga ega. U muammolarni hal qilish va samarali qarorlar qabul qilish uchun ma‘lumotlarni baholay oladi va tushunadi.

Bola o‘zini qiziqtirgan mavzularni tushunishga intiladi, boshqalarning qarashlaridan mustaqil ravishda fikr yuritadi, ammo shu bilan birga muloqot qila oladi, turli nuqtayi nazar va qarashlarni muhokama qiladi.

U tanqidiy (metakognitiv) jarayonlarni, ya‘ni o‘z fikrlashini anglab, bilim va ko‘nikmalarini baholash, tahlil qilish, rejalashtirish va o‘z harakatlarini nazorat qilishni ham namoyon eta oladi.

4.3. Milliy o‘quv dasturidan kutiladigan natijalar

Milliy o‘quv dasturining ta‘limiy natijalari maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishi va ta‘limiga qo‘yilgan talablar asosida ishlab chiqilgan bo‘lib, ular bolaning har tomonlama rivojlanishini, keyingi ta‘lim bosqichiga uzluksiz va muvaffaqiyatli o‘tishini hamda boshlang‘ich ta‘lim uchun zarur kompetensiyalarning shakllanishini ta‘minlaydi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishi va ta'lim olishiga qo'yiladigan talablar quyidagi rivojlanish sohalari bo'yicha belgilanadi:

- 1. Jismoniy rivojlanish va sog'lom turmush tarzi;**
- 2. Ijtimoiy-hissiy rivojlanish;**
- 3. Nutq, muloqot, o'qish va yozish ko'nikmalari;**
- 4. Bilish jarayonlarining rivojlanishi;**
- 5. Ijodiy rivojlanish.**

4.3.1. "Jismoniy rivojlanish va sog'lom turmush tarzi" sohasida kutiladigan natijalar

6-7 yoshli bola "Jismoniy rivojlanish va sog'lom turmush tarzi" sohasida ta'lim-tarbiya jarayoni yakunida:

o'z imkoniyatlari va yoshiga oid jismoniy rivojlanish me'yorlariga muvofiq jismoniy faollikni namoyon etadi;

harakat faolligi turlarini muvofiqlashgan va maqsadga yo'naltirilgan holda bajara oladi;

turli hayotiy va ta'limiy vaziyatlarda mayda motorika ko'nikmalaridan foydalanadi;

o'z harakatlarini sezgi organlari yordamida muvofiqlashtiradi;

shaxsiy gigiyena ko'nikmalarini qo'llaydi;

sog'lom turmush tarzi va sog'lom ovqatlanish asoslarini biladi;

hayot xavfsizligi qoidalariga rioya qiladi.

4.3.2. "Ijtimoiy-hissiy rivojlanishi" sohasida kutiladigan natijalar

6-7 yoshli bola "Ijtimoiy-hissiy rivojlanishi" sohasida ta'lim-tarbiya jarayoni yakunida:

o'zi ("Men") va kundalik hayotda boshqa insonlarning rollari haqida tasavvurga ega bo'ladi;

o'z his-tuyg'ularini boshqara oladi va vaziyatga mos ravishda ifoda etadi;

boshqalarning his-tuyg'ularini anglaydi va ularga mos ravishda munosabat bildiradi;

kattalar va tengdoshlar bilan vaziyatga mos ravishda muloqot qiladi;

murakkab vaziyatlarda samarali yechim topishga harakat qiladi.

4.3.3. "Nutq, muloqot, o'qish va yozish ko'nikmalari" sohasida kutiladigan natijalar

6-7 yoshdagi bola "Nutq, muloqot, o'qish va yozish ko'nikmalari" sohasida ta'lim-tarbiya jarayoni yakunida:

ona tilidagi nutqni tinglaydi va tushunadi;

ona tilida so'zlarni to'g'ri talaffuz qiladi, tegishli grammatik shakllar va turli gap tuzilishlaridan foydalanadi;

turli janrdagi san'at asarlariga qiziqish bildiradi;

so'zlarning leksik, bo'g'inli va fonetik tuzilishini tushunadi;

turli shakldagi matnlarni mustaqil tuzadi va qayta so'zlab bera oladi;

kitoblarga qiziqish bildiradi hamda o'qishga tayyorlik ko'nikmalarini namoyish etadi;

ona tilida o'qish va yozishning boshlang'ich ko'nikmalariga ega bo'ladi;

xorijiy tillarni o'rganishga qiziqish bildiradi.

4.3.4. "Bilish jarayonlarining rivojlanishi" sohasida kutiladigan natijalar

6-7 yoshdagi bola "Bilish jarayonlarining rivojlanishi" sohasida ta'lim-tarbiya jarayoni yakunida:

bilish jarayoniga nisbatan faol qiziqishni namoyon etadi;

ta'limiy va hayotiy faoliyatda zarur bo'lgan ma'lumotlarni mustaqil izlab topadi va undan foydalanadi;

buyumlar, hodisalar va voqealar o'rtasidagi oddiy bog'lanishlarni anglaydi hamda ularni yaxlit jarayon sifatida qabul qiladi;
son va sanoq, ular orasidagi farqlar haqida tasavvurga ega bo'ladi va ularni hayotda qo'llay oladi;

elementar matematik hisob-kitoblarni bajaradi;
fazo, shakl va vaqtga oid tushunchalarni anglaydi hamda ulardan foydalana oladi;
axborot va raqamli savodxonlik asoslarini o'zlashtiradi;
atrof-olamdagi hodisalar va obyektlarni kuzatadi hamda tajribalar o'tkazadi;
tabiat va atrof-olamni muhofaza qilishga nisbatan ehtiyotkor va mas'uliyatli munosabatni namoyon etadi.

4.3.5. "Ijodiy rivojlanish" sohasida kutiladigan natijalar

6-7 yoshli bola "Ijodiy rivojlanish" sohasida ta'lim-tarbiya jarayoni yakunida:

san'at va madaniyatga qiziqishini namoyon etadi;
milliy an'analarni qadrlaydi va ularni kundalik hayotning bir qismi sifatida qabul qiladi;
muayyan san'at turlariga nisbatan qiziqishini ifoda etadi;
egallagan bilim va ko'nikmalarini turli hayotiy vaziyatlarda ijodiy g'oyalarni yaratish va amalga oshirishda qo'llaydi;
inson va san'atning dunyoni o'zgartirish hamda madaniy merosni saqlashdagi ijodiy rolini tushunadi.

V BOB. BAHOLASH VA KUZATISH

5.1. Baholash

Ta'limni baholash – bu ishtirok va refleksiyaga asoslangan hamda o'quv dasturi bilan chambarchas bog'liq jarayondir. UNESCO Xalqaro ta'lim byurosi (IBE-UNESCO) fikriga ko'ra, baholash ta'lim jarayonini bolalar ehtiyojlariga moslashtirish orqali uning samaradorligini oshiradi.

Maktabgacha yoshdagi bolaning rivojlanishi va ta'limni baholash – bu bolaning turli faoliyat turlaridagi individual yutuqlari, qiziqishlari, faolligi va rivojlanish dinamikasini kuzatish, tahlil qilish va tushunishga asoslangan uzluksiz jarayon bo'lib, uning shaxsiy o'sishini qo'llab-quvvatlash, ta'limiy ehtiyojlarini aniqlash va pedagogik yordamni rejalashtirishga qaratilgan.

Maktabgacha ta'limda baholash inklyuzivlik, ishtirokchilik va o'zaro tushunish qadriyatlarini aks ettirishi lozim.

Baholash bolalarni tanqidiy baholash, test sinovlari orqali tekshirish, taqqoslash yoki tabaqalashtirish (ya'ni bolalarni bilim yoki qobiliyat darajasiga ko'ra ajratish) vositasi emas, balki o'zaro munosabatlar va ta'lim-tarbiya jarayoni sifatini oshirishga xizmat qilishi kerak.

Maktabgacha ta'limda bolaning rivojlanishi va ta'lim olish jarayoni muntazam va tizimli kuzatuvlar orqali baholanadi.

5.2. Kuzatish

Bolaning rivojlanishini kuzatish pedagog kasbiy faoliyatining muhim va mas'uliyatli qismi hisoblanadi.

Kuzatishning asosiy maqsadi – bolaning ta'lim-tarbiya jarayonida va hayotiy vaziyatlarda turli ko'nikmalar va bilimlarni qanday qo'llayotganligini aniqlash hamda ma'lumotlarni to'plashdan iborat.

Bolalarni turli joylarda, vaqt va sharoitlarda kuzatish orqali pedagog ularning qiziqishlari, kuchli tomonlari, ehtiyojlari hamda individual ta'lim ritmlari haqida to'liq va xolis tasavvur hosil qiladi.

Pedagogik kuzatishlar natijasida olingan ma'lumotlar ta'lim-tarbiya faoliyatining keyingi vazifalarini rejalashtirish va takomillashtirishga xizmat qiladi. Samarali kuzatish yuqori darajada diqqatni jamlashni talab qiladi.

Pedagoglarning kuzatishni rejalashtirishda loyihalar konteksti yoki kundalik tajribadan kelib chiqib, qaysi jihatlariga e'tibor qaratishlarini oldindan aniqlab olishlari lozim.

Hamkasblar o'rtasidagi fikr almashish kuzatish jarayonini mazmunli va samarali qiladi hamda pedagogik hujjatlarni rasmiylashtirishda asos bo'lib xizmat qiladi.

5.3. Hujjatlashtirish

Bolalarning ta'lim olish jarayonini pedagogik hujjatlashtirish pedagogik faoliyatda muhim strategiya hisoblanadi. U bolaning tafakkuri, rivojlanishi va ta'limni namoyon etadi hamda jamoaviy mulohazani qo'llab-quvvatlaydi.

Hujjatlashtirish baholashning yakuniy bosqichi emas, balki kuzatish, tahlil (talqin) qilish va qayta rejalashtirishni o'z ichiga olgan refleksiv siklning bir qismi hisoblanadi.

Hujjatlashtirish ta'lim jarayonini tahlil qilish va baholash uchun samarali vosita hisoblanadi. U bolaning tafakkuri, harakatlari va hissiyotlarini aks ettiruvchi dalillarni fotosuratlar, bolalarning og'zaki izohlarini qayd etish, rasmlar va boshqa materiallar orqali to'playdi.

Sifatli hujjatlashtirish quyidagilarga xizmat qiladi:

- ta'lim jarayonini rejalashtirish;
- bolalar bilan muloqot qilish;
- oilalar bilan muloqot qilish;

pedagogning kasbiy rivojlanishi.

Hujjatlashtirish bolalar, pedagoglar va oilalarga ta'limdagi yutuqlarni tushunish va ulardan mamnun bo'lish imkonini yaratadi, ta'lim jarayonini ko'zga ko'rinarli qiladi hamda birgalikda tahlil qilishga xizmat qiladi.

Pedagoglar ota-onalarni farzandlarining rivojlanishi haqida xabardor qiladi, uning ta'lim va rivojlanish ehtiyojlariga oid masalalarni ota-onalar bilan hamkorlikda hal qiladi, zarurat tug'ilganda esa tegishli mutaxassislar bilan maslahatlashadi.

Har bir maktabgacha ta'lim tashkiloti hujjatlashtirishning turli shakllaridan foydalanishi mumkin, jumladan jurnal, posterlar, portfolio, video va foto materiallar yoki raqamli platformalar va yozishmalar.

5.4. Baholash vositalari

Baholash ta'lim va rivojlanish jarayonining ajralmas bir qismi hisoblanadi.

Pedagoglar baholashni bolalar bilan birgalikda, ularning joriy kuzatuvlari va o'rganish jarayonini hujjatlashtirilgan dalillarga asoslanib amalga oshiradilar.

Shakllantiruvchi (joriy) baholash – kundalik kuzatuv bo'lib, ta'lim jarayonining ajralmas bir qismi hisoblanadigan faoliyat hisoblanadi.

Pedagog kun davomida bolalarning rivojlanish sur'ati, muhim voqealar, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammoli holatlar va ularning yechimini, shuningdek, guruhdagi boshqa muhim vaziyatlarni kuzatadi. Pedagog bolalarning fikr-mulohazalari, qarashlari, g'oyalari va istaklarini to'plab, qayd qiladi va ularni ta'lim-tarbiya faoliyatini rejalashtirishda qo'llaydi. Ushbu ma'lumotlar pedagog tomonidan ota-onalar va hamkasblar bilan o'rtoqlashiladi hamda muhokama qilinadi. Bunday hollarda kuzatuv natijalari bo'yicha yozma hisobotlar talab etilmaydi.

Pedagog muntazam ravishda o'quv yili davomida bolaning barcha rivojlanish sohalari bo'yicha maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishi va ta'lim olishiga qo'yiladigan talablarga erishish natijalarini kuzatib boradi hamda kuzatuv natijalarini rivojlanish xaritasiga qayd etib boradi.

Bolaning rivojlanish xaritasi pedagog tomonidan o'quv yili davomida uch marta (o'quv yili boshida, o'rtasida va yakunida) tegishli yosh guruhi (3-4; 4-5; 5-6; 6-7 yosh) bo'yicha har bir bola uchun alohida to'ldiriladi (6-ilova).

Dastlabki kuzatuv o'quv yilining boshlanishida (taxminan 4 hafta davomida, sentabr-oktabr oylarida) o'tkaziladi.

Kuzatishdan maqsad har bir bolaning mavjud imkoniyatlarini tahlil qilishdan iborat. Ya'ni kuzatish vaqtida bola rivojlanishining boshlang'ich va real darajasi aniqlanadi va belgilanadi.

O'quv yili boshida bolaning rivojlanishidagi kuchli va zaif tomonlari aniqlanadi. Pedagog bolaga yordam berish uchun qaysi sohalarda qo'llab-quvvatlash zarurligini qayd etadi.

Oraliq kuzatuv birinchi yarim yillik yakunida (dekabr va yanvar oylari) o'tkaziladi.

Kuzatishdan maqsad bolaning rivojlanishdagi taraqqiyoti hamda mazkur bola uchun tanlangan ta'lim metodikasining samaradorligini tahlil qilishdan iborat.

Kuzatuv natijalariga asosan, pedagog boshqa mutaxassislar bilan hamkorlikda o'z pedagogik yondashuvlari va usullarini qayta ko'rib chiqadi, tahlil qiladi hamda ta'lim-tarbiya faoliyati rejasiga tegishli o'zgartirishlar kiritadi.

Yakuniy kuzatuv o'quv yili yakunida (may oyida) o'tkaziladi.

Kuzatishdan maqsad belgilangan vazifalar qay darajada bajarilganligini baholash va bolaning rivojlanishida kutilgan yangi natijalarni hisobga olgan holda keyingi pedagogik jarayon uchun maqsadlarni belgilashdan iborat.

6-7 yoshdagi bolalar uchun yakuniy kuzatishdan so'ng bolaning maktabga tayyorlik xaritasi to'ldiriladi.

6-7 yoshdagi bolaning maktabga tayyorlik xaritasi (faqat maktabgacha ta'lim tashkiloti bitiruvchilari uchun) maktabgacha ta'lim tashkilotidan chiqib boshlang'ich ta'limga o'tishda to'ldiriladi.

Bu jarayon umumta'lim maktabining boshlang'ich bosqichi bilan uzviylikni ta'minlash va bolaning maktabga muvaffaqiyatli o'tishini qo'llab-quvvatlash maqsadini ko'zlaydi (7-ilova).

Bolaning beshta rivojlanish sohasi (bolaning kompetensiyalari) bo'yicha erishilgan natijalari pedagog tomonidan tuzilgan yozma hisobotlarda hujjatlashtiriladi.

Ushbu hisobotlarda maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishi va ta'lim olishiga qo'yiladigan talablarga erishish jarayoni tahlil qilinib, umumlashtiriladi, shuningdek, tavsiya va takliflar bayon etiladi.

Yozma hisobotlar ota-onalarga yetkaziladi va ularga topshiriladi.

Ota-onalar xohishiga binoan bolaning maktabga tayyorlik xaritasi umumiy o'rta ta'lim maktabining 1-sinf o'qituvchisiga taqdim etilishi mumkin.

Rivojlanish xaritasidagi yozma hisobotlarda aks etgan ma'lumotlar maxfiy ma'lumot hisoblanadi. Uchinchi shaxslar va mutaxassislarni ushbu jarayonga jalb etish faqat ota-onalarning roziligi asosida amalga oshirilishi lozim.

VI BOB. O‘TISH DAVRLARI

Maktabgacha ta’limda o‘tish davrlari bolalarning turli muhitlar, kun tartibi yoki ta’lim bosqichlari o‘rtasida bir holatdan ikkinchisiga o‘tish jarayonlarini anglatadi. Bunday o‘tishlar bir martalik yoki har kuni takrorlanadigan bo‘lishidan qat’i nazar, ular bolalar hayotidagi oddiy o‘zgarish emas, balki chuqur hissiy va bilish tajribasi hisoblanadi. Zarur pedagogik qo‘llab-quvvatlash ta’minlanganda, o‘tish davri bolalar uchun o‘rganish, o‘zini o‘zi boshqarish (o‘zini o‘zi tartibga solish) hamda ijobiy munosabatlarni shakllantirishning muhim imkoniyatiga aylanadi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida pedagoglar va ota-onalar e’tibor qaratishi lozim bo‘lgan to‘rtta asosiy o‘tish davri mavjud:

uydan MTTga o‘tish (MTTga moslashuvning dastlabki kunlari);
uydan (oiladan) MTTga va yana uyga qaytish (har kunlik o‘tish);
kun davomida MTT ichidagi o‘tishlar (turli kundalik vaziyatlar);
MTTdan boshlang‘ich ta’lim bosqichiga o‘tish (ta’limning yangi bosqichiga o‘tish).

6.1. Uy (oiladan) maktabgacha ta’lim tashkilotiga o‘tish

Bu dastlabki o‘tish davri bolaning oila muhitidagi hayotidan tashqi dunyoga qo‘ygan birinchi jiddiy qadami hisoblanadi. Bu odatda ikki-uch yoshda sodir bo‘ladi va maktabgacha ta’lim tashkilotiga moslashish davri bola uchun bir vaqtning o‘zida ham qiziqarli, ham hissiy jihatdan murakkab bo‘lishi mumkin.

Asosiy jihatlar:

oiladagi asosiy parvarish qiluvchilardan ajralish – bola birinchi marta uzoqroq vaqt davomida ota-onasi yoki yaqin qarindoshlaridan alohida bo‘ladi;

yangi muhit, insonlar va kun tartibi – barchasi bola uchun notanish: yangi chehralar, o‘yinchoqlar, hidlar, tovushlar va faoliyatlar;

hissiy holat – bola yig‘lashi, yaqinlariga qattiq yopishib olishi, jim bo‘lib qolishi yoki hatto qaysarlik ko‘rsatishi mumkin. Ba’zi bolalar dastlab o‘zini ishonchli tutgandek ko‘rinsa-da, vaqt o‘tishi bilan xavotir belgilarini namoyon eta boshlaydi.

Bolani qanday qo‘llab-quvvatlash mumkin:

bosqichma-bosqich moslashuv – ota-ona hamrohligida qisqa tashriflarni tashkil etish va bolaning mustaqil qolish vaqtini bosqichma-bosqich uzaytirish o‘tish davrini yengillashtiradi;

biriktirilgan pedagog xodimlar – asosiy shaxslar tizimini (doimiy tarbiyachi va tarbiyachi yordamchisi) tashkil etish bolada ishonch va hissiy xavfsizlik hissini shakllantiradi;

tizimli kun tartibi, samimiy va do‘stona qabul qilish – tanish qo‘shiqlar, salomlashish marosimlari (masalan, ertalabki davra yoki samimiy salomlashish) bolada xavfsizlik va guruhga tegishlilik hissini shakllantiradi.

Bu o‘tish davri bolaning oiladan tashqaridagi kattalarga nisbatan ishonchini mustahkamlaydi hamda uning kelajakdagi ta’lim olish va muloqotga bo‘lgan ijobiy munosabatini shakllantiradi.

6.2. Har kunlik uy (oiladan) maktabgacha ta’lim tashkilotiga kelish va uyga qaytish

Bola MTTning yangi muhitiga moslashgach, uning kundalik hayotida yangi tartib shakllanadi: har kuni ertalab MTTga kelish va kunning ikkinchi yarmida uyga qaytish. Ushbu kundalik o‘tishlar bolaning xavfsizlik hissi, mustaqilligi va ijtimoiy moslashuvini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Asosiy jihatlar:

har kungi odatiy o‘tish jarayoni – bola uydan chiqib, umumiy ta’lim muhiti bo‘lgan MTTga keladi va kun yakunida yana uyga qaytadi;

bolalar, ayniqsa ertalab shoshiltirilganlarida yoki uyda turli o'zgarishlar yuz berayotgan bo'lsa, turli hissiy holatlarni boshdan kechirishlari mumkin;

ayrim bolalar har kuni yaqinlaridan ajralishni xohlamasligi mumkin, boshqalari esa MTTga xotirjam kelib-ketadilar.

Bolani qanday qo'llab-quvvatlash mumkin:

aniq va izchil xayrlashuv marosimlari – quchoqlashish, derazadan qo'l silkitish yoki maxsus xayrlashuv iborasi bolani tinchlantiradi va o'zini xavfsiz his qilishiga yordam beradi;

pedagoglarning emotsional qo'llab-quvvatlashi – bolalarni tabassum bilan kutib olish, ularga e'tibor va mehr ko'rsatish hamda har bir bolani ismi bilan kutib olish bolada ishonch va xotirjamlikni mustahkamlaydi;

uy va MTT o'rtasida bog'liqlikni ta'minlash vositalari – o'tish davri buyumlari (masalan, ryukzakdagi oilaviy surat) yoki ota-onalar va pedagoglar o'rtasidagi muloqot uchun mo'ljallangan aloqa daftarlari bolaga uy va MTT o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni his qilishga yordam beradi.

Har kunlik o'tishlar tashqi tomondan oddiy jarayon bo'lib ko'rinsa-da, ular bolaning hissiy rivojlanishida muhim o'rin tutadi. Ularga nisbatan izchil va e'tiborli yondashuv bolalarda mustaqillikni, xavfsizlik hissini hamda pedagoglar va boshqa kattalarga nisbatan ishonchli munosabatni shakllantirishga xizmat qiladi.

6.3. MTTda kun davomidagi o'tishlar (turli kundalik vaziyatlar)

Kun tartibi davomida bolalar ko'plab kichik o'tish jarayonlarini boshdan kechiradilar. Ular bir faoliyat turidan boshqasiga, bir muhitdan boshqasiga yoki bir hissiy holatdan boshqasiga o'tadilar.

Asosiy jihatlar:

bunday o'tishlarga ochiq havodagi o'yinlardan tushlik vaqtiga o'tish, guruhiiy faoliyatdan individual mashg'ulotlarga o'tish yoki uyqudan uyg'ongandan keyin tushdan keyingi faoliyatlarga o'tish misol bo'la oladi;

kun davomida yuz beradigan o'tishlar, ayniqsa o'yin jarayoniga chuqur berilib ketgan yoki o'zgarishlarga endigina moslashayotgan maktabgacha yoshdagi bolalar uchun murakkab kechishi mumkin.

Bolani qanday qo'llab-quvvatlash mumkin:

imo-ishoralar va ko'rgazmali vositalardan foydalanish – musiqa, qum soati, rasmlar, jadvallar yoki qo'l ishoralari bolalarni navbatdagi faoliyatga tayyorlashga yordam beradi;

o'tish uchun yetarli vaqt berish – oldindan ogohlantirish (masalan, "Yana besh daqiqadan so'ng sayrga chiqamiz") bolalarga moslashish va keyingi faoliyatga tayyorlanish imkonini beradi;

hissiy qo'llab-quvvatlash va o'zaro muloqot – ayrim bolalar ushbu o'tish davrlarini yengilroq o'tkazish uchun do'stona teginish, og'zaki eslatma yoki qo'shimcha yordamga ehtiyoj sezadilar;

bolalarni o'tish jarayoniga faol jalb qilish – ularga tushlik uchun stol tayyorlash, keyingi mashg'ulotni tanlash kabi vazifalarni ishonib topshirish bolalarda mas'uliyat va o'ziga ishonch hissini rivojlantiradi.

Pedagoglar bunday vaziyatlarga mehribonlik va e'tibor bilan yondashgan holda bolalarda ijro etuvchi funksiyalarni, jumladan, moslashuvchanlikni, o'z hissiyotlarini boshqarishni hamda diqqatni bir faoliyatdan boshqasiga yo'naltirish qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi.

6.4. Maktabgacha ta'lim tashkilotidan boshlang'ich ta'limga o'tish

Bu o'tish davri bolaning rivojlanishi va ta'lim olishida yangi bosqichga o'tishdagi muhim davr hisoblanadi. U odatda 7 yosh atrofida sodir bo'ladi. Bu jarayon faqat yangi bino yoki pedagog bilan tanishish emas, balki kun tartibi, boladan kutilayotgan natijalar hamda o'zini maktab o'quvchisi sifatida his etish bilan bog'liq sezilarli o'zgarishlarni ham o'z ichiga oladi.

Asosiy jihatlar:

bolalar yangi ta'lim muhitiga, diqqatni uzoqroq jamlashga hamda ortib borayotgan ta'lim talablariga moslashishlari kerak;

ijtimoiy muhit ham o'zgaradi: yangi tengdoshlar jamoasi, yangi qoidalar va ko'p hollarda kattalar tomonidan har bir bolaga individual e'tiborning kamayishi kuzatiladi;

bu jarayon bolalarda hayajon, qiziqish va qo'rquv kabi turli his-tuyg'ularni uyg'otishi mumkin hamda ular ko'pincha bir vaqtning o'zida namoyon bo'ladi.

Bolani qanday qo'llab-quvvatlash mumkin:

o'tish jarayonini birgalikda rejalashtirish – maktabgacha ta'lim tashkiloti va boshlang'ich ta'lim pedagoglari ta'lim-tarbiya jarayonida uzviylikni ta'minlash uchun o'z faoliyatlarini muvofiqlashtirishlari lozim;

tashriflar va qo'shma tadbirlar – bolalar maktabga tashrif buyurishlari, kelajakdagi o'qituvchilari bilan tanishishlari va sinf xonalarini oldindan ko'rishlari mumkin;

hikoyalar orqali xotirani mustahkamlash – maktabgacha ta'lim tashkilotidagi tajribalarni aks ettiruvchi xotira kitoblari yoki ketma-ket sodir bo'lgan voqealarni aks ettiruvchi hikoyalarni yaratish bolalarga ta'limning bir bosqichini yakunlaganini va keyingi bosqichga tayyor ekanligini his qilishga yordam beradi;

oilaning ishtirokini ta'minlash – ota-onalar bolalarni tayyorlash jarayonida ham amaliy, ham hissiy jihatdan xabardor, ishonchli va faol ishtirok etishlari zarur.

Ushbu o'tish jarayoni bolaning maktabgacha ta'limdan boshlang'ich ta'limga o'tishidagi muhim bosqich hisoblanadi. Uni qanday tashkil etish bolaning maktabga, shuningdek, butun hayoti davomidagi ta'limga bo'lgan munosabatiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin.

O'tish davrlari bola hayotidagi oddiy kundalik o'zgarishlarga emas, balki ongli yondashuvni talab qiladigan muhim voqealardir.

Maktabgacha ta'lim tashkilotida bunday o'tish davrlari ta'limiy imkoniyatga aylanishi mumkin. Aynan shu davrda bolalarda hissiy barqarorlik, moslashuvchanlik va atrof-olamga nisbatan ishonch rivojlanadi.

Bolani bunday davrlarda qo'llab-quvvatlash esa uning ta'lim sur'ati va individual ehtiyojlarini hisobga olgan holda, ongli ravishda sekin moslashtirish, ehtiyotkorlik bilan yo'naltirish hamda barqaror o'tish jarayonini tashkil etishni talab etadi.

Pedagoglar va ota-onalarning o'zaro hamkorligi esa ushbu jarayonning yanada oson, mazmunli va samarali kechishiga xizmat qiladi.

VII BOB. MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR RIVOJLANISHI VA TA'LIM Olishiga QO'YILADIGAN TALABLAR

O'zbekistonda "maktabgacha ta'lim va tarbiya – bolalarga ta'lim va tarbiya berishga, ularni intellektual, ma'naviy-axloqiy, etik, estetik va jismoniy jihatdan rivojlantirishga, shuningdek bolalarni umumiy o'rta ta'limga tayyorlashga qaratilgan uzluksiz ta'lim turi"⁴.

Milliy o'quv dasturiga maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishi va ta'lim olishiga qo'yiladigan talablar kiritilgan bo'lib, ular bolaning beshta rivojlanish sohasi bo'yicha egallashi zarur bo'lgan asosiy bilim, ko'nikma va malakalarni aks ettiradi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishi va ta'lim olishiga qo'yiladigan talablarning zamonaviy konsepsiyasi bolalarda ko'nikmalarni soddadan murakkabga tamoyili asosida bosqichma-bosqich rivojlantirishga yo'naltirilgan.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishi va ta'lim olishiga qo'yiladigan talablar maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagoglari uchun har bir yosh guruhida ta'lim-tarbiya jarayonini o'yinga asoslangan yondashuv asosida rejalashtirishda metodik qo'llanma sifatida xizmat qiladi.

7.1. Kutiladigan natijalar kodlari

Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishi va ta'lim olishiga qo'yiladigan talablardan foydalanishni osonlashtirish maqsadida rivojlanish sohasidagi barcha kutiladigan natijalar (indikatorlar) o'ziga xos kod bilan belgilanadi. Kod quyidagi ko'rinishga ega: **1.3.12.e**

Kutiladigan natija kodining har bir belgisi quyidagi ma'noni anglatadi.

Kodning birinchi belgisi – o'quv dasturidagi maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanish sohasi raqamiga mos keluvchi son.

1. Jismoniy rivojlanish va sog'lom turmush tarzi.
2. Ijtimoiy-hissiy rivojlanish.
3. Nutq, muloqot, o'qish va yozish ko'nikmalari.
4. Bilish jarayonlarining rivojlanishi.
5. Ijodiy rivojlanish.

Kodning ikkinchi belgisi – har bir rivojlanish sohasidagi kichik soha (subsoha) tartib raqamiga mos keluvchi son.

Kodning uchinchi belgisi – har bir kutiladigan natijaning tartib raqamiga mos keluvchi son.

Kodning to'rtinchi belgisi – bolaning yoshini ifodalovchi quyidagi kichik harflardan biri.

- a. 3-4 yosh.
- b. 4-5 yosh.
- d. 5-6 yosh.
- e. 6-7 yosh.

Rivojlanish sohalari bo'yicha kodlarga misollar:

Kod misoli: 1.2.1.a. (1-soha – Jismoniy rivojlanish va sog'lom turmush tarzi; 2-kichik soha – Mayda motorika; 1 – indikator tartib raqami; **a** – 3-4 yosh).

Kod misoli: 2.1.2.b. (2-soha – Ijtimoiy-hissiy rivojlanish; 1-kichik soha – "Men" konsepsiyasi; 2 – indikator tartib raqami; **b** – 4-5 yosh).

Kod misoli: 3.1.2.d. (3-soha – Nutq, muloqot, o'qish va yozish ko'nikmalari; 1-kichik soha – Nutq va til; 2 – indikator tartib raqami; **d** – 5-6 yosh).

Kod misoli: 4.2.2.e. (4-soha – Bilish jarayonlarining rivojlanishi; 2-kichik soha – Elementar matematika; 2 – indikator tartib raqami; **e** – 6-7 yosh).

⁴ O'zbekiston Respublikasining "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida" Qonuni // 2019-yil 16-dekabr O'RQ-595-son, 3-modda// www.lex.uz

Kod misoli: 5.1.2.e. (5-soha – Ijodiy rivojlanish; 1-kichik soha – Badiiy dunyoqarash; 2 – indikator tartib raqami; e – 6-7 yosh).

DQU3512

DQU3512

DQU3512

DQU3512

DQU3512

DQU3512

7.2. Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishi va ta'lim olishiga qo'yiladigan talablar

7.2.1. Soha: Jismoniy rivojlanish va sog'lom turmush tarzi

Maktabgacha yoshdagi bolalarda jismoniy rivojlanish va sog'lom turmush tarzini shakllantirish ularga harakat faoliyati bo'yicha tajriba orttirishga, harakatning mohiyatini anglash hamda jismoniy faollikning ahamiyatini tushunishga yordam beradi.

Yirik motorikani rivojlantirish bolaning salomatligi va farovonligi uchun mustahkam asos yaratadi. Harakatlarni muvofiqlashtirish, muvozanatni saqlash, fazoda mo'ljal olish kabi mashqlarni bajarish bolalarda asosiy harakat turlarini (yurish, yugurish, sakrash, emaklash, to'pni uloqtirish va tutib olish), shuningdek, asosiy jismoniy sifatlarni (chaqqonlik, moslashuvchanlik, tezlik va kuch) rivojlantiradi hamda ayrim sport turlariga nisbatan dastlabki qiziqishni shakllantiradi.

Shuningdek, mayda motorika va sensomotorika (qo'l harakatlari bilan ko'rish faoliyatini muvofiqlashtirish) rivojlantiriladi. Bu bolalarning kundalik faoliyatni mustaqil bajarishi hamda keyinchalik savodxonlik bilan bog'liq faoliyatlar, xususan yozishga tayyorgarligi uchun muhim ahamiyatga ega.

Ushbu sohada bolalar sog'lom ovqatlanish va sog'lom turmush tarzi qoidalarini haqida asosiy tushunchalarga ega bo'ladilar, o'z salomatligiga g'amxo'rlik qilish va shaxsiy gigiyena qoidalariga rioya etish ko'nikmalarini egallaydilar. Bundan tashqari, shaxsiy xavfsizlik masalalarini tushunish, ehtimoliy xavf-xatarlarni aniqlash, o'zini himoya qilish hamda zarurat tug'ilganda yordam so'rash ko'nikmalarini rivojlantirish ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Jismoniy rivojlanish va sog'lom turmush tarzi bolalarning jismoniy hamda ruhiy salomatligini mustahkamlashda muhim o'rin tutadi. U bolalarda o'z harakatlarini boshqarish va muvofiqlashtirishga bo'lgan ishonchni oshiradi, mustaqillik hamda o'z farovonligi uchun mas'uliyat hissini rivojlantiradi, kundalik hayotda mustaqil faoliyat yuritishga yordam beradi va sog'lom turmush tarzini shakllantirishga uzoq muddatli ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

1. Soha: Jismoniy rivojlanish va sog'lom turmush tarzi				
Talablar	3-4 yosh (a)	4-5 yosh (b)	5-6 yosh (d)	6-7 yosh (e)
	<i>Bola bajara oladi</i>	<i>Bola bajara oladi</i>	<i>Bola bajara oladi</i>	<i>Bola bajara oladi</i>
1. Kichik soha: Yirik motorika				
Bola o'z tanasi va uning qismlarini boshqaradi hamda maqsadga muvofiq harakatlanadi	1.1.1.a. Mustaqil ravishda oyoq uchida muvozanatni saqlagan holda yurish	1.1.1.b. Oyoq uchida, tovonda, oyoq kaftining tashqi tomonida ishonch bilan muvozanat saqlab yurish	1.1.1.d. Belgilangan yo'nalishda tovondan oyoq uchiga o'tib, harakat tezligini tezlashtirib yoki sekinlashtirib yurish	1.1.1.e. Belgilangan tezlikda turli yo'nalishlar bo'yicha yurish (zigzag, egri chiziq bo'ylab), tez to'xtash va yo'nalishni o'zgartirish

1. Soha: Jismoniy rivojlanish va sog'lom turmush tarzi				
Talablar	3-4 yosh (a)	4-5 yosh (b)	5-6 yosh (d)	6-7 yosh (e)
	<i>Bola bajara oladi</i>	<i>Bola bajara oladi</i>	<i>Bola bajara oladi</i>	<i>Bola bajara oladi</i>
	1.1.2.a. Kattalarning yordamida 5-10 sm balandlikdagi to'siqlardan qadam tashlab o'tish	1.1.2.b. Muvozanatni saqlagan holda 5-10 smlik to'siqlardan oshib o'tib yurish	1.1.2.d. Bir xil balandlikdagi (10-15 santimetrli, ketma-ket) to'siqlardan muvozanatni saqlagan holda oshib yurish	1.1.2.e. Almashinib turadigan (turli balandlikdagi 15-20 sm.) to'siqlardan to'xtamasdan muvozanatni saqlagan holda oshib yurish
	1.1.3.a. To'g'ri tekislikda berilgan yo'nalishda erkin yurish	1.1.3.b. To'g'ri tekislikda yon qadamlar bilan tomonlarga, oldinga, orqaga yurish	1.1.3.d. Gimnastika o'rindig'ida turli yo'nalishlarda to'g'ri va yonlama yurish (cheklangan to'g'ri tekislik bo'yicha)	1.1.3.e. Gimnastika o'rindig'ida turli yo'nalishlarda va tezlikda, boshqa harakatlarni birlashtirgan holda yurish
	1.1.4.a. Bittadan va juft bo'lib, qo'l ushlashib, safda yurish	1.1.4.b. Bittadan va juft bo'lib safda yurish, ikki kishilik kolonnaga qayta saflanish	1.1.4.d. Turli tartibda saf bo'lib, oddiy gimnastik qadam bilan, oldinga, yon tomonga va orqaga yonma-yon qadamlar bilan yurish	1.1.4.e. Berilgan yo'nalish va tezlikda bir, ikki, to'rt kishilik safda yurish, mustaqil ravishda turli saflarga qayta saflanish
	1.1.5.a. Oldinga, orqaga muvozanat saqlagan holda yugurish	1.1.5.b. Tizzani baland ko'tarib yugurish, yugurish yo'nalishi va tezligini o'zgartirish	1.1.5.d. Yugurishning har xil turlarini bajarish (ilonizi, zigzag, mokisimon, turli yo'nalish va tezlikda yugurish)	1.1.5.e. Harakat yo'nalishi va tezligini o'zgartirib mustaqil, to'siqlardan oshib, tezda to'xtay olgan holda yugurish
	1.1.6.a. Kattalar yordamida gimnastika taxtasi yoki boshqa sport o'yin jihozlari bo'ylab tirmashib chiqish	1.1.6.b. Kattalar yordamida sport o'yin jihozlari bo'ylab yuqoriga/pastga tirmashib chiqish	1.1.6.d. Sport o'yin jihozi bo'ylab yuqoriga/pastga 1 metrgacha mustaqil tirmashib chiqish	1.1.6.e. Sport o'yin jihozi bo'ylab yuqoriga/pastga 2 metrgacha tirmashib chiqish va tortilish
	1.1.7.a. Kattalar yordamida tutqichni ushlab, zinadan ko'tarilish	1.1.7.b. Ikki oyoqqa tayanib, zinadan tutqichni ushlab yuqoriga chiqish va pastga tushish	1.1.7.d. Oyoqlarni navbat bilan tashlab, zinadan tutqichni ushlab yuqoriga chiqish va pastga tushish	1.1.7.e. Zinadan mustaqil, ishonch bilan, hech qanday tayanchsiz, oyoqlarni navbatma-navbat qo'yib yuqoriga chiqish va pastga tushish

1. Soha: Jismoniy rivojlanish va sog'lom turmush tarzi				
Talablar	3-4 yosh (a)	4-5 yosh (b)	5-6 yosh (d)	6-7 yosh (e)
	<i>Bola bajara oladi</i>	<i>Bola bajara oladi</i>	<i>Bola bajara oladi</i>	<i>Bola bajara oladi</i>
	1.1.8.a. Joyida va/yoki oldinga harakatlanib, ikki oyoqda sakrash	1.1.8.b. Bitta oyoqda muvozanatni saqlash va kichik to'siqlardan sakrab o'tish	1.1.8.d. Ikki oyog'ini juftlab joyidan uzunlikka sakrash va tushish, navbat bilan bitta oyoqda muvozanatni saqlash, ikki oyoqlab arqonchada sakrash	1.1.8.e. Tik turgan holda uzunlikka sakrash va ikki oyog'ini juftlab yerga tushish, narsalar ustidan sakrash, bir oyoqda sakrash, oyoqlarni navbatma-navbat tashlab arqonchadan sakrash
	1.1.9.a. Kattalar yordamida uch g'ildirakli velosipedda oyoqlari bilan itarilib harakatlanish va muvozanatni saqlab uchish	1.1.9.b. Uch g'ildirakli velosipedda uchish, rulni boshqarish, harakat yo'nalishi va tezligini o'zgartirish	1.1.9.d. Qo'shimcha g'ildiraklari bo'lgan ikki g'ildirakli velosipedda uchish va kichik to'siqlarni aylanib o'tish	1.1.9.e. Ikki g'ildirakli velosipedni boshqarish, to'siqlarni aylanib o'tish
2. Kichik soha: Mayda motorika				
Bola qo'l va barmoqlarining harakatlarini turli maqsadlarda qo'llaydi	1.2.1.a. Qog'ozni turli o'lchamdagi bo'laklarga bo'lib yirtish	1.2.1.b. Qog'ozni belgilangan chiziq bo'yicha yirtish va/yoki buklash	1.2.1.d. Qog'ozni belgilangan chiziqlar bo'yicha yirtish, kattalar ko'rsatmasiga ko'ra qog'ozni buklash orqali oddiy konstruksiyalar yasash	1.2.1.e. Qog'ozni topshiriqqa muvofiq mustaqil yirtish, ko'rsatma bo'yicha buklash orqali murakkab qog'oz konstruksiyalari (origami) yasash
	1.2.2.a. Kattalar yordamida tugmalarni qadash va katta o'lchamdagi mahkamlagichlarni (zamoglarni) ochib-yopish	1.2.2.b. Tugmalarni qadash va o'rta o'lchamdagi mahkamlagichlarni (zamoglarni) ochib-yopish, kattalar yordamida poyabzalni kiyish	1.2.2.d. Tugmalarni qadash va kichik o'lchamdagi mahkamlagichlarni (zamoglarni) ochib-yopish, ba'zida kattalar yordamida poyabzalni kiyish va ipini bog'lash	1.2.2.e. Tugmalarni qadash va kichik o'lchamdagi mahkamlagichlarni (zamoglarni) ochib-yopish, poyabzalni mustaqil kiyish va ipini bog'lash
	1.2.3.a. Katta o'lchamdagi buyumlarni boshqarish: o'yinchoq halqachalarni (piramida) ustma-ust taxlash	1.2.3.b. O'rta o'lchamdagi buyumlarni boshqarish: yirik munchoqlarni kattalar yordamida ipga tizish	1.2.3.d. Kichik o'lchamdagi buyumlarni boshqarish: o'rtacha munchoqlarni taklif qilingan namunaga muvofiq ipga tizish	1.2.3.e. Kichik o'lchamdagi buyumlarni mustaqil boshqarish: mayda munchoqlarni ipga tizish, kichik buyumlarni ixtiyoriy teshiklarga joylashtirish

1. Soha: Jismoniy rivojlanish va sog'lom turmush tarzi				
Talablar	3-4 yosh (a)	4-5 yosh (b)	5-6 yosh (d)	6-7 yosh (e)
	<i>Bola bajara oladi</i>	<i>Bola bajara oladi</i>	<i>Bola bajara oladi</i>	<i>Bola bajara oladi</i>
	1.2.4.a. Kattalar yordamida qog'ozni qaychida ma'lum shakllarsiz bo'laklarga qirqish	1.2.4.b. Qaychini to'g'ri ushlash, kattalar yordamida qog'ozni to'g'ri chiziq bo'ylab oddiy shakldagi tasmalarga bo'lish	1.2.4.d. Berilgan turli chiziqlar, jumladan to'liqlik chiziq bo'yicha qog'oz yoki kartonni qaychi bilan qirqish	1.2.4.e. Ta'lim jarayonida qaychidan mustaqil foydalanish, turli tuzilishga ega materiallardan murakkab shakllarni qirqib olish.
Bola sezgi a'zolari yordamida o'z harakatlarini muvofiqlashtiradi	1.2.5.a. Ko'rish va harakatni muvofiqlashtirgan holda katta to'p bilan ishlash: ikki qo'l yordamida o'tirgan va turgan holatda to'pni tutish hamda belgilangan yo'nalishda dumalatish	1.2.5.b. Ko'rish va to'p harakatini muvofiqlashtirish (katta va o'rta o'lchamdagi to'plar bilan): to'pni polga/yerga yoki devorga urishda hamda tutib olishda o'ng va chap qo'lni navbatma-navbat ishlatish	1.2.5.d. To'p harakati bilan ko'rish va harakatni muvofiqlashtirish: to'pni yuqoridan va pastdan uloqtirish, uzatilgan to'pni tutib olish hamda belgilangan yo'nalishda oyoq bilan tepish	1.2.5.e. Turli o'lchamdagi to'plar bilan uloqtirish va tutib olish, belgilangan nishonga aniq tepish jarayonida ko'rish va harakatni muvofiqlashtirish
	1.2.6.a. Qo'l harakatlari va ko'rishni muvofiqlashtirish: yirik o'lchamdagi pazllarni (kubiklar, piramida, lego) 6 tagacha bo'lgan qismlardan yig'ish va joylashtirish	1.2.6.b. Qo'l harakatlari va ko'rishni muvofiqlashtirish: o'rta o'lchamdagi pazllarni (mozaika, lego) 10 tagacha bo'lgan qismlardan yig'ish va joylashtirish, bloklardan oddiy konstruksiyalar qurish	1.2.6.d. Qo'l harakatlari va ko'rishni muvofiqlashtirish: mayda o'lchamdagi pazllarni (kubiklar, mozaika, lego) 15 tadan ortiq qismlardan yig'ish va joylashtirish, kattalar ko'rsatmasiga muvofiq konstruksiyalar yasash	1.2.6.e. Qo'l harakatlari va ko'rishni muvofiqlashtirish: mayda o'lchamdagi pazllarni (mozaika, lego) 25 tadan ortiq qismlardan yig'ish va joylashtirish, ko'rsatma asosida yoki o'z tasavvuriga ko'ra konstruksiyalar yaratish
	1.2.7.a. Buyumlarni paypaslab zichligiga ko'ra farqlash (yumshoq, qattiq)	1.2.7.b. Buyumlarning yuzasini paypaslab, ularning tuzilishini farqlash: silliq va g'adir-budur yuzalarni ajrata olish	1.2.7.d. Turli tuzilishga ega buyumlarni paypaslab, ularni zichligi, yuzasi, og'irligi va shakliga ko'ra farqlash	1.2.7.e. Turli tuzilishga ega buyumlarni ko'rinishi va paypaslab sezish orqali ularning turli xususiyatlariga ko'ra taqqoslash
3. Kichik soha: Sog'lom turmush tarzi va xavfsizlik				
Bola sog'lom turmush tarzi va shaxsiy gigiyena ko'nikmalariga ega bo'ladi	1.3.1.a. Shaxsiy gigiyenaning boshlang'ich qoidalariga rioya qilish (qo'l va yuzni yuvish, tishlarni tozalash, shaxsiy sochiqdan foydalanish), kattalar yordami bilan hojatxonadan foydalanish.	1.3.1.b. Turli kundalik vaziyatlarda shaxsiy gigiyena qoidalariga rioya qilish, kattalar yordami bilan hojatxonadan foydalanish.	1.3.1.d. Shaxsiy gigiyenaning asosiy qoidalarini mustaqil bajarish (aksirganda va yo'talganda og'izni qo'l yoki yeng bilan yopish), ba'zan kattalar	1.3.1.e. Har kuni shaxsiy gigiyena va o'zini parvarishlash qoidalariga rioya qilish, ularning salomatlikni saqlash uchun muhimligini tushunish,

1. Soha: Jismoniy rivojlanish va sog'lom turmush tarzi				
Talablar	3-4 yosh (a)	4-5 yosh (b)	5-6 yosh (d)	6-7 yosh (e)
	<i>Bola bajara oladi</i>	<i>Bola bajara oladi</i>	<i>Bola bajara oladi</i>	<i>Bola bajara oladi</i>
			ko'magida hojatxonadan foydalanish	hojatxonadan mustaqil foydalanish
	1.3.2.a. MTT guruhida tozalikni saqlashda qatnashish, kattalar yordamida o'zidan keyin o'yinchoqlarni yig'ishtirish	1.3.2.b. MTT guruhida xulq-atvor va tozalik qoidalariga rioya qilish hamda kattalar ko'magida xo'jalik-maishiy mehnatda ishtirok etish	1.3.2.d. MTTda xulq-atvor va tozalik qoidalariga rioya qilish hamda kattalarning eslatmasi bilan xo'jalik-maishiy mehnatda ishtirok etish	1.3.2.e. Uyda, MTT guruhida va jamoat joylarida xulq-atvor hamda tozalik qoidalariga mustaqil rioya qilish, shuningdek xo'jalik-maishiy mehnatda ishtirok etish
	1.3.3.a. Kattalar yordamida ba'zi foydali va zararli ovqatlarni (konfet, gazlangan ichimliklar) farqlash	1.3.3.b. Ayrim foydali va zararli oziq-ovqat mahsulotlarini farqlash va nomini atash, ularning salomatlik uchun foyda yoki zararlarini sodda so'zlar bilan tushuntirish	1.3.3.d. Foydali va zararli oziq-ovqatlar haqida bilimga ega bo'lish hamda sog'lom oziq-ovqat mahsulotlarini ovqatlanish ratsioniga kiritish muhimligini tushunish	1.3.3.e. Foydali va zararli oziq-ovqat mahsulotlarini farqlash, ularning salomatlikka ta'siri va oqibatlarini tushunish
Bola kundalik hayotda xavfsiz xulq-atvor qoidalariga amal qiladi	1.3.4.a. O'zini noqulay his qilayotgani yoki salomatligi yomonlashganligi ("qornim og'riyapti", "sovqotyapman" kabi) haqida kattalarga xabar berish	1.3.4.b. Kattalarga o'zini qanday his qilayotganini tushuntirish va tasvirlab berish ("peshonam qizib ketyapti", "tomog'im og'riyapti", "charchadim", "uyqum keldi")	1.3.4.d. O'z his-tuyg'ularini aniqlash va batafsil tasvirlab berish (og'riq, isitma, yo'tal yoki burun oqishi, nafas olishda qiyinchilik, bosh og'rig'i)	1.3.4.e. O'zidagi noqulaylik alomatlarini aniqlash va ularga ehtimoliy sabablar bilan bog'lash ("zararli narsa yeb qo'yganim uchun qornim og'riyapti"), o'z holatini batafsil ta'riflash ("ertalabdan isib ketyapman")
	1.3.5.a. Kattalarning eslatmasi bilan xavfli narsalar haqida asosiy bilimlarga ega bo'lish ("dorilarga tegmaslik", "gugurt, sanchqi va pichoq kabi kesuvchi narsalarni o'ynamaslik")	1.3.5.b. Kattalarning eslatmasi bilan xavfli buyumlarni va ular bilan muomala qilish qoidalarini farqlash (o'tkir/sanchuvchi buyumlar, gugurt, dori vositalari, maishiy kimyoviy vositalar bilan o'ynamaslik), kattalarning eslatmasi bilan	1.3.5.d. Xavfli buyumlardan foydalanish inson hayoti uchun qanday xavf tug'dirishini tushunish va ular bilan muomala qilish qoidalariga rioya qilish muhimligini anglash (sanchuvchi va kesuvchi buyumlar – qaychi, pichoq va boshqalar bilan o'ynamaslik;	1.3.5.e. Zarur bo'lganda kattalar nazorati ostida xavfli buyumlar bilan muomala qilishning asosiy qoidalariga rioya qilish va ularni buzish oqibatlarini oldindan anglash (kuyish, jarohatlanish, zaharlanish va boshqalar)

1. Soha: Jismoniy rivojlanish va sog'lom turmush tarzi				
Talablar	3-4 yosh (a)	4-5 yosh (b)	5-6 yosh (d)	6-7 yosh (e)
	<i>Bola bajara oladi</i>	<i>Bola bajara oladi</i>	<i>Bola bajara oladi</i>	<i>Bola bajara oladi</i>
			dori vositalari va maishiy kimyoviy vositalarga tegmaslik; gaz plitasi yoki elektr jihozlarini yoqmaslik)	
	1.3.6.a. Yo'llarda o'ynayotganda harakatlanayotgan transport vositalarining xavfliligini tushunish	1.3.6.b. Harakatlanayotgan transport vositalari xavfini tushunish, piyodalar uchun asosiy yo'l harakati qoidalarini bilish (svetofor, piyodalar o'tish joyi, to'xtash (piyodalar harakati taqiqlangan)	1.3.6.d. Kattalar yordamida ko'chadan o'tish, piyodalar uchun yo'l harakati qoidalariga rioya qilish, asosiy yo'l harakati belgilarining ma'nosini bilish (piyodalar o'tish joyi, "ehtiyot bo'ling, bolalar", zebra yo'lak, piyodalar hududi)	1.3.6.e. Piyodalar uchun yo'l harakati xavfsizligining asosiy qoidalariga rioya qilish, piyodalar uchun mo'ljallangan yo'l belgilarining ma'nosini bilish (avtobus bekati, velosiped yo'lagi, piyodalar harakati taqiqlangan), yo'l harakati qoidalarini buzish oqibatlarini tushunish
	1.3.7.a. Ehtimoliy xavfli vaziyatlar haqida boshlang'ich bilimlarga ega bo'lish va bunday holatlarda tanish kattalarga xabar berish zarurligini tushunish (favqulodda vaziyatlar, bolaga zarar yetkazilgan holatlar yoki begona odamlar bilan aloqa qilish)	1.3.7.b. Hayot uchun xavfli bo'lishi mumkin bo'lgan turli xil vaziyatlarni va xavfsizlik qoidalariga rioya qilishning muhimligini tushunish (tanish kattalarni favqulodda vaziyatlar, noma'lum shaxslar bilan aloqa qilish va har qanday zo'ravonlik haqida xabardor qilish)	1.3.7.d. Xavfli vaziyatlarda hayot uchun xavflarni tushunish, ulardagi xatti-harakatlarning asosiy qoidalarini bilish va shoshilinch ravishda kattalarga xabar berish (favqulodda vaziyatlarda guruh bilan birga qolish, kattalarning ko'rsatmalariga amal qilish, notanish odamlarning so'zlar/narsalar bilan o'zlarini aldashiga yo'l qo'ymaslik).	1.3.7.e. Turli xil xavfli vaziyatlarda hayot xavfsizligining asosiy qoidalariga rioya qilish, kattalar va qutqaruv xizmatlaridan shoshilinch yordam so'rash.

7.2.2. Soha: Ijtimoiy-hissiy rivojlanish

Bolalarning ijtimoiy-hissiy rivojlanishi ularning har tomonlama rivojlanishining asosiy omili hisoblanadi. Maktabgacha yosh davrida shaxsiy rivojlanish (“Men” konsepsiyasi) bolalarda o‘zligini anglash, o‘ziga ishonch, ijobiy o‘zini baholash hamda o‘z harakatlari uchun mas’uliyatni his qilish ko‘nikmalarini shakllantiradi. Shuningdek, bola o‘zini ijtimoiy-madaniy guruhning bir qismi sifatida anglaydi: o‘z oilasi, do‘stlari, yaqin atrofidagi kattalar, mahalliy hamjamiyat va mamlakatining bir a‘zosi ekanini tushunadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning hissiy rivojlanishining muhim jihati o‘z his-tuyg‘ularini va boshqalarning his-tuyg‘ularini anglay olish qobiliyatidir. Bolalarda o‘zini boshqarish va o‘z hissiyotlarini tartibga solish ko‘nikmalari rivojlanadi, muzokara olib borish, kelishish hamda boshqalarga yordam va qo‘llab-quvvatlash ko‘rsatish qobiliyatlari shakllanadi.

Bolalarning ijtimoiy rivojlanishi roli o‘yinlar, hikoyalar va ertaklar orqali amalga oshiriladi. Bu jarayon bolalarda tengdoshlari va kattalar bilan ijobiy munosabatlarni shakllantirish ko‘nikmalarini, shuningdek, xilma-xillikka hurmat bilan munosabatda bo‘lish qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi. Bunda har bir insonning o‘ziga xosligini anglash, turli ijtimoiy qatlamlar, madaniyatlar vakillari hamda turli qobiliyat, ehtiyoj va/yoki fikrlarga ega bo‘lgan insonlar o‘rtasidagi o‘xshashlik va farqlarni hurmat qilish muhimligini tushunish shakllanadi.

Maktabgacha yosh davridan boshlab bolalarda o‘z harakatlari va qabul qilgan qarorlari uchun mas’uliyatni o‘z zimmasiga olish, kelishmovchiliklarni tinch yo‘l bilan hal qilish, gender stereotiplaridan qochish, oila, guruh, MTT va jamoat joylarida belgilangan qoidalar hamda xulq-atvor me‘yorlariga rioya qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish zarur.

Bolalarning shaxsiy va ijtimoiy-hissiy rivojlanishi yaxlit jarayon bo‘lib, fuqarolik tuyg‘usi va o‘z milliy o‘ziga xosligidan faxrlanish hissini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Bu rivojlanish bolalarning xulq-atvoriga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi, ularga o‘zaro muloqot qilish va bir-biridan o‘rganishga yordam beradi, xarakterning shakllanishi, uzluksiz ta‘lim olish hamda tez o‘zgarib borayotgan dunyoda boshqa insonlar bilan uyg‘un hayot kechirish uchun asos yaratadi.

2. Soha: Ijtimoiy-hissiy rivojlanish				
Talablar	3-4 yosh (a)	4-5 yosh (b)	5-6 yosh (d)	6-7 yosh (e)
	<i>Bola bajara oladi</i>	<i>Bola bajara oladi</i>	<i>Bola bajara oladi</i>	<i>Bola bajara oladi</i>
1. Kichik soha: “Men” konsepsiyasi				
Bola o‘zini ijobiy shaxs va ijtimoiy-madaniy guruhning bir a‘zosi sifatida qabul qiladi	2.1.1.a. O‘z ismini aytishi, jinsi va yoshini bilish	2.1.1.b. O‘zi haqida gapirib berish: ismi, familiyasi, jinsi, yoshi, millati, manzili aytish. O‘z qiziqishlari va xususiyatlarini tavsiflash (masalan, “men tezkorman”, “men rasm chizishni yaxshi ko‘raman”)	2.1.1.d. O‘zi haqida to‘liq ma’lumotni aytib berish (ismi, familiyasi, jinsi, yoshi, millati, manzili, hududi/mamlakatini aytish), o‘z qiziqishlari, yoqtirgan va yoqtirmagan narsalari, yutuqlari haqida gapirib berish	2.1.1.e. O‘zini tanishtirish (ismi, familiyasi, jinsi, yoshi, millati, ona tili, tug‘ilgan sanasi va joyi (shahar/mintaqa nuqtai nazaridan), o‘z qiziqishlari, afzalliklari, yutuqlari haqida gapirib berish

2. Soha: Ijtimoiy-hissiy rivojlanish				
Talablar	3-4 yosh (a)	4-5 yosh (b)	5-6 yosh (d)	6-7 yosh (e)
	<i>Bola bajara oladi</i>	<i>Bola bajara oladi</i>	<i>Bola bajara oladi</i>	<i>Bola bajara oladi</i>
	2.1.2.a. O'zini shaxs sifatida anglash (oynada o'zini tanish) va kattalarning o'z yoqtirgan narsalari haqidagi savollariga javob berish (masalan, "Men bu ertakni yaxshi ko'raman").	2.1.2.b. "Men" olmoshidan foydalanib, o'zini tavsiflash, o'z ehtiyojlari, his-tuyg'ularini ifodalash, kattalar bilan birgalikda qarorlar qabul qilish	2.1.2.d. O'z istaklari va qiziqishlarini aniq ifodalash, o'zining kuchli va zaif tomonlarini baholash, qarorlar qabul qilish	2.1.2.e. O'zini ijobiy inson sifatida qabul qilish kuchli va zaif tomonlarini hisobga olgan holda mustaqil qarorlar qabul qilish va asoslash
	2.1.3.a. Oilasiga mehr ko'rsatish, yaqin oila a'zolarini fotosuratdan tanib olish (katta yoshli yaqinlari va bolalar bilan uchrashganda quvonish)	2.1.3.b. Oilaga mehr-muhabbat ko'rsatish, yaqin atrofidagi oila a'zolarini nomlay olish. O'zi haqida oila a'zosi sifatida gapira olish ("men o'g'ilman", "men qizman", "mening opam/singlim", "mening ukam" kabi).	2.1.3.d. O'zini oilaning a'zosi sifatida anglash va o'z oilasi haqida so'zlab bera olish. Oila a'zolari/qarindoshlar hamda qo'shnilar/tanishlar tushunchalari o'rtasidagi farqni tushunish.	2.1.3.e. O'z oilasiga mansubligidan faxrlanish, yaqin va uzoq qarindoshlar ismini aytish, oila a'zolari va oilaviy an'analari haqida gapirib berish
	2.1.4.a. O'z mamlakati nomini bilish, kattalar ishtirokidagi milliy bayramlarda qatnashish	2.1.4.b. O'z mahallasi, hududi va mamlakatiga mansubligini anglash, mamlakatning asosiy ramzlarini (bayroq, gerb, madhiyani) bilish, bayramlarda ishtirok etish, o'z hududining asosiy madaniy an'analari haqida so'zlab bera olish.	2.1.4.d. Milliy o'ziga xoslikni anglash va mamlakat tarixiga qiziqish bildirish, turli mamlakatlar va madaniyatlar (qo'shni mamlakatlar, dunyoning ayrim mamlakatlari) o'rtasidagi farqlarni tushunish	2.1.4.e. O'z mamlakati va madaniyatiga mansubligidan faxrlanish, milliy ramzlarning ahamiyatini tushuntira olish, milliy bayramlarda ishtirok etish, Vatanining tarixiy o'tmishi va zamonaviy yutuqlariga qiziqish bildirish.
	2.1.5.a. Yaxshi xatti-harakatlar va yomon xatti-harakatlarni farqlay olish	2.1.5.b. Guruhda/MTTda va jamoat joylarida o'z harakatlari uchun mas'uliyatni his qilish muhimligini tushunish	2.1.5.d. O'z xatti-harakatlari uchun mas'uliyatini his qilish, uning oqibatlarini anglash va baholash	2.1.5.e. O'z harakatlari uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olish, xatolarini anglash va ularni tuzatishga intilish (kimnidir ranjitgan bo'lsa, kechirim so'rash, o'z harakatlari to'g'ri tan olish va ular uchun javob berish).
2. Kichik soha: Hissiy rivojlanish				
Bola o'zini boshqarish va hissiyotlarini	2.2.1.a. Hayotiy vaziyatlar va rasmlar orqali o'zida va atrofidagilardagi asosiy his-	2.2.1.b. Kamida 6 ta hisni farqlash va aytish (hayrat, uyat, xafalik, faxr va asosiylari)	2.2.1.d. Kamida 8 ta hissiyotni, shu jumladan murakkab his-tuyg'ularni (hasad,	2.2.1.e. O'z hislari, shuningdek, tengdoshlari va kattalar

2. Soha: Ijtimoiy-hissiy rivojlanish				
Talablar	3-4 yosh (a)	4-5 yosh (b)	5-6 yosh (d)	6-7 yosh (e)
	<i>Bola bajara oladi</i>	<i>Bola bajara oladi</i>	<i>Bola bajara oladi</i>	<i>Bola bajara oladi</i>
tartibga solish ko'nikmalarini namoyon etadi	tuyg'ularni (xursandchilik, qayg'u, g'azab, qo'rquv) farqlay olishi		uyatchanlik, hafsalasi pir bo'lishi) aniqlash va nomlay olish	hislarining sabablarini tan olish va tushunish
	2.2.2.a. Turli hislar va kayfiyatlarni namoyon etish (sovg'alar, bayramlarda xursand, omadsizlik va o'yinni boy berganida hislarini jilovlay olmaydi)	2.2.2.b. Xursandlik hissini jo'shqin ifodalash (o'yin, sevgan kitoblari, g'alabadan zavqlanish), o'yinda boy berganda xafa bo'lish va umidsizlik hislarini boshqara olmaslik	2.2.2.d. Turli vaziyatlarda (o'yinlar, musobaqalar) g'alabalar va muvaffaqiyatlardan xursand bo'lish, umidsizlik va xafagarchilik his-tuyg'ularini boshqarishga harakat qilish	2.2.2.e. Vaziyatga qarab his-tuyg'ularini ifoda etish, o'zi, boshqalar va jamoaning g'alabalaridan xursand bo'lish, muvaffaqiyatsizliklarga hamdard bo'lish
	2.2.3.a. O'z hissiyotlarini oddiy iboralar orqali ifodalash ("men xursandman", "men xafaman"), real yoki o'yin vaziyatlarida ularni mimika va imo-ishoralar bilan namoyon etish	2.2.3.b. Do'stlari, yaqinlari va kattalar bilan o'z hislari va kechinmalarini o'rtoqlashish, ularning sababini muhokama qilish	2.2.3.d. O'z hislarini va o'zini o'zi nazorat qilish zarurligini tushunish ("baqirmaslik", "yig'lamaslik", "shovqin qilmaslik"), ammo hamma vaqt ham o'z hislarini jilovlay olmaslik	2.2.3.e. O'zi va boshqaning xulq-atvoriga nisbatan hislarini mustaqil boshqarish, ularning atrofdagilar kayfiyatiga ta'sirini oldindan ko'ra bilish
	2.2.4.a. Boshqalarning hislariga do'stona munosabat bildirish ("ularga e'tibor qaratish", "yig'layotgan tengdoshini yupatish", "boshqalar bilan birga quvonish")	2.2.4.b. Boshqalarning his-tuyg'ularini tan olish va ularga munosib javob berish ("so'zlar va harakatlar bilan hamdardlik bildirish va tasalli berish", "qo'llab-quvvatlash – yordam berish", "quvonchni baham ko'rish")	2.2.4.d. Bolalar va kattalarning his-tuyg'ularini anglash, ularning oqibatini oldindan ko'ra bilish, birgalikda xursand bo'lish yoki tengdoshlari va oila a'zolariga hamdard bo'lish ("Keling, shovqin qilmaylik, u xafa bo'lib qoldi")	2.2.4.e. Zarur bo'lganda atrofdagilarga nisbatan hamdardlik va qo'llab-quvvatlash ko'rsatish, nizolarni oldini olish uchun o'z hissiyotlari va xulq-atvorini boshqara olish (so'z bilan taskin berish, yordam ko'rsatish)
3. Kichik soha: Ijtimoiy rivojlanishi				
Bola tengdoshlari va kattalar bilan ijobiy munosabatlarni o'rnatadi hamda xilma-xillikka	2.3.1.a. Yaqin-atrofdagi kattalar xatti-harakatlariga taqlid qilish ("o'zini o'qiyotgan qilib ko'rsatish, kattalar yonida ovqat tayyorlayotgan qilib ko'rsatish")	2.3.1.b. Rolli o'yinlarda atrofidagi kattalarning xatti-harakatlari va xulqiga ongli ravishda taqlid qilish ("Men tarbiyachi bo'laman", o'yinda tanish rollarni tanlab)	2.3.1.d. Kattalar bilan muloqot tajribasidan xulq-atvorning turli ijtimoiy usullarini o'zlashtirish ("Shifokor va bemor", "Sotuvchi-xaridor", "Bank	2.3.1.e. Oila va jamiyatdagi ijtimoiy hayot va xulq-atvor shakllarining xilma-xilligini o'z tajribasiga asoslanib tushunish (rolli o'yinlarda do'kon, shifoxona, sataroshxonaga tashrif buyurish)

2. Soha: Ijtimoiy-hissiy rivojlanish				
Talablar	3-4 yosh (a)	4-5 yosh (b)	5-6 yosh (d)	6-7 yosh (e)
	<i>Bola bajara oladi</i>	<i>Bola bajara oladi</i>	<i>Bola bajara oladi</i>	<i>Bola bajara oladi</i>
hurmat bilan munosabatda bo'ladi			xodimi-mijoz" rolli o'yinlarida)	
	2.3.2.a. Yaqin atrofidagi kattalar (oila, tarbiyachilar) bilan ijobiy muloqot qilish	2.3.2.b. Tanish kattalar bilan ijobiy muloqot qilish, qiziqtirgan ma'lumotlarni olish va/yoki aniqlashtirish uchun savollar berish hamda ularga javob bera olish	2.3.2.d. Kattalar bilan ijobiy muloqot qilish, tanishlar bilan suhbat jarayonida mavzuni davom ettira olish, savollar berish va ularga javob bera olish, zarur ma'lumotlarni olish	2.3.2.e. Tanish va notanish kattalar bilan ijobiy muloqot qilish, o'z fikrlarini bayon etish, kattalar bilan muloqot qilish tajribasi atrofidagi dunyoda muvaffaqiyatli ijtimoiylashuv uchun muhim ekanini tushunish.
	2.3.3.a. Bolalarning xatti-harakatlarini kuzatish va do'st tanlash ("o'zi ma'qul ko'rgani bilan o'yinchoqlarni almashish/bo'lishish")	2.3.3.b. Hamkorlikdagi faoliyatda/o'yinlarda boshqa bolalar bilan do'stona munosabatda bo'lish, rollar va harakatlarni tanlashda kelisha olish ("kim bilan va nimani o'ynash kerak?", "nimani chizish kerak?" va boshqa.)	2.3.3.d. Bolalar bilan do'stona munosabatda bo'lish, umumiy qarorlarni kelishib olish va murosaga kela olish. O'yinlarda va boshqa faoliyat turlarida o'z g'oyalari hamda tashabbuslarini taklif qila olish.	2.3.3.e. Muloqot jarayonida hurmat bilan munosabatda bo'lish, jamoaviy faoliyatda qaror qabul qilishda shaxsiy manfaatlarini guruh manfaatlariga moslashtira olish (tengdoshlar bilan o'yin va faoliyatni amalga oshirishda, jamoaviy qarorlar qabul qilish jarayonida)
	2.3.4.a. Bolalar bilan muloqotda o'z xohish – istaklari, iltimoslarini so'z bilan ifodalash	2.3.4.b. Guruhdagi bolalar bilan muzokara olib borish va boshqalarning fikrini hisobga olish ("Keling, navbat bilan", "Men qilsam maylimi?")	2.3.4.d. Muzokara olib borish va kelishishning dastlabki ko'nikmalarini namoyon etish, boshqalarning manfaatlarini hisobga olgan holda o'z nuqtai nazarini tushuntira olish	2.3.4.e. Bolalar bilan ijobiy muloqot o'rnatish, tizimli qarorlar qabul qilish, tengdoshlari bilan muzokaralarni kelishuv orqali olib borish ("mana bunday qilib ko'rish mumkin, agar natija bo'lmasa, boshqacha qilib ko'ramiz")
	2.3.5.a. Turli xil farqlarga nisbatan ijobiy munosabat bildirish (qizlar, o'g'il bolalar, alohida ehtiyojga ega bolalar)	2.3.5.b. Bolalarning farqlarga (soch rangi, teri rangi, jinsi, millati, kiyimi va boshqa xususiyatlari) e'tibor berish va ularni hurmat qilish hamda ularning hamma bilan ko'plab	2.3.5.d. Bolalar va kattalar o'rtasidagi farqlarni (turli tillar, an'analar) hurmat qilish, xilma-xil insonlarga hurmat ko'rsatish muhimligini tushunish (noto'g'ri talaffuz	2.3.5.e. Bolalar va kattalarning turli xil xususiyatlariga ko'ra xilma-xilligiga hurmat bilan munosabatda bo'lish, barcha insonlar teng hurmat va yaxshi

2. Soha: Ijtimoiy-hissiy rivojlanish				
Talablar	3-4 yosh (a)	4-5 yosh (b)	5-6 yosh (d)	6-7 yosh (e)
	<i>Bola bajara oladi</i>	<i>Bola bajara oladi</i>	<i>Bola bajara oladi</i>	<i>Bola bajara oladi</i>
		umumiy xususiyatlari borligini tushunish	bilan soʻzlash, tashqi koʻrinish yoki rivojlanishdagi nuqsonlar uchun masxara qilish, kamsitish notoʻgʻri ekanligini tushuntirish)	munosabatga loyiq ekanini tushunish
Bola qarorlar qabul qilishda masʼuliyatni namoyon etadi	2.3.6.a. Kattalar yordamida asosiy guruh qoidalariga rioya qilish (kitoblarni yirtmaslik, oʻyinchoqlarni yigʻishtirish, salomlashish, rahmat aytish)	2.3.6.b. Kattalar eslatmasiga koʻra maktabgacha taʼlim tashkiloti guruhining umumiy qoidalar va kun tartibiga rioya qilish (ish joyini tayyorlash va tozalash, axlat tashlamaslik, navbat bilan harakat qilish)	2.3.6.d. Maktabgacha taʼlim tashkiloti kun tartibi va guruh umumiy qoidalariga rioya qilishning muhimligini tushunish, qoidalar buzilishining oqibatlarini oldindan koʻra olish (ularni bolalar bilan muhokama qilish, boshqalarning fikrlarini hurmat qilish, baland ovozda gapirmaslik yoki baqirmaslik)	2.3.6.e. Kun tartibiga, guruhdagi, MTTdagi va jamoat joylaridagi umumiy xulq-atvor qoidalariga rioya qilish
	2.3.7.a. Guruh qarorlarini qabul qilishda ishtirok etish (“Qaysi kitobni oʻqish kerak?”, “Qaysi oʻyinni oʻynash kerak?”)	2.3.7.b. Guruh qarorlarida, ertalabki davra davomida, kunni rejalashtirishda, mashgʻulotlarni tanlashda ishtirok etish	2.3.7.d. Guruh qarorlarini qabul qilishda ishtirok etish, faoliyatlarni rejalashtirish va vazifalarni taqsimlash jarayonida muqobil yechimlarni taklif qilish	2.3.7.e. Natijalarga erishish uchun guruhning qoʻshma qarorlarini qabul qilishda masʼuliyatni oʻz zimmasiga olish
	2.3.8.a. Kattalar tomonidan taklif qilinganida guruhdagi bolalarni qabul qilish va ularga yordam berish	2.3.8.b. Guruhdagi kelishmovchiliklardan qochish, guruh yoki doʻstining manfaatlarini hisobga olib, yon berish (oʻz oʻyinchogʻini boʻlishish)	2.3.8.d. Bolalar bilan doʻstona muloqot qilish orqali muammoli vaziyatlarni tinch yoʻl bilan hal etish usullarini taklif qilish	2.3.8.e. Guruhdagi muammoli vaziyatlarni oldini olish, soʻz va ishlantirish orqali tinch yoʻl bilan hal qilish.

7.2.3. Soha: Nutq, muloqot, o'qish va yozish ko'nikmalari

Nutq, muloqot, o'qish va yozish ko'nikmalari rivojlanish sohasi nutqni bolaning bilish va o'zini namoyon etish vositasi sifatida samarali rivojlantirishni, shuningdek, nutq asosida bolalar faoliyatining turli turlarini shakllantirishni hamda bolalarda ona tilidan zavqlanish hissini rivojlantirishni nazarda tutadi.

Shuningdek, u o'qishga ijobiy munosabatni rivojlantirish va o'qish ko'nikmalarini shakllantirishni (tilni tushunish, tanish bosma so'zlarni ajrata olish va so'zlarni o'qish), ta'lim tilida yozma nutqni egallashga qiziqishni rivojlantirishni ham o'z ichiga oladi.

Ushbu ko'nikmalar kattalar bolalar bilan atrof-olam va kitoblar haqida suhbatlashganda, ular bilan birgalikda ertaklar, hikoyalar, she'rlar va qo'shiqlarni o'qib, ulardan zavqlanganda samarali rivojlanadi. Bu esa bolalarning tinglash va og'zaki nutqni tushunish ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

Ushbu rivojlanish sohasi nutq va muloqot ko'nikmalarini shakllantirishni o'z ichiga oladi: bog'langan, grammatik jihatdan to'g'ri dialogik va monologik nutqni rivojlantirish, lug'at boyligini (leksikani) faollashtirish, fonetik ko'nikmalarni shakllantirish (so'zdagi barcha tovushlarni to'g'ri talaffuz qilish, unli va undosh tovushlarni farqlash, so'zlarni bo'g'inlarga ajratish hamda so'zlarni o'qishda tovushlardan foydalanish), nutqning grammatik tuzilishini shakllantirish, o'qish va yozishga tayyorgarlik (savodxonlik) ko'nikmalarini rivojlantirish.

Hikoyalar aytib berish, qayta hikoya qilish, yangi syujetlar o'ylab topish hamda suhbatlar va rolli o'yinlarda ishtirok etish bolalarga o'z g'oyalarini ifodalash, faol lug'at boyligidan foydalanish va uni boyitish imkonini beradi.

Bolalarda kitoblarga va o'qishga mehr uyg'otish, og'zaki nutq hamda kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirish ularga o'z fikr va istaklarini so'z orqali ifodalash, atrofdegilar bilan ijobiy munosabatlar o'rnatish hamda o'ziga bo'lgan ishonchini mustahkamlash imkonini beradi. Bu ko'nikmalar bolalarni ta'limning keyingi bosqichlarida muvaffaqiyatli o'qishga tayyorlaydi, shuningdek, bilish, tafakkur, mantiqiy fikrlash va o'z xulq-atvorini boshqarish ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

3. Soha: Nutq, muloqot, o'qish va yozish ko'nikmalari				
Talablar	3-4 yosh (a)	4-5 yosh (b)	5-6 yosh (d)	6-7 yosh (e)
	<i>Bola bajara oladi</i>	<i>Bola bajara oladi</i>	<i>Bola bajara oladi</i>	<i>Bola bajara oladi</i>
1. Kichik soha: Nutq va til				
Bola og'zaki nutqni eshitadi va tushunadi	3.1.1.a. Qisqa ertak, hikoyalarni zavq bilan tinglash (kulish, chapak chalish, imo-ishora qilish)	3.1.1.b. Ertak/hikoyalarni zavq bilan tinglash, mazmuni bo'yicha kattalarning savollariga javob berish	3.1.1.d. Turli manbalarda (kitoblar, audio, video) ertak, hikoyalarni zavq bilan tinglash, eshitganlariga nisbatan o'z munosabatini savollar orqali bildirish)	3.1.1.e. Turli badiiy adabiyot va axborot matnlarini qiziqib tinglash, eshitganini tahlil qilish va o'z fikrini bildirish
	3.1.2.a. Kattalar yordamida tinglangan ertak qahramonlarini ularning oddiy xarakterlari bilan	3.1.2.b. Eshitgan voqea, hikoya, ertaklarining mazmunini asosiy	3.1.2.d. Eshitgan turli asarlar matnining asosiy mazmunini hodisalar va qahramonlar	3.1.2.e. Eshitgan turli janrdagi badiiy asarlari mazmunini voqealarning mantiqiy

3. Soha: Nutq, muloqot, o'qish va yozish ko'nikmalari				
Talablar	3-4 yosh (a)	4-5 yosh (b)	5-6 yosh (d)	6-7 yosh (e)
	<i>Bola bajara oladi</i>	<i>Bola bajara oladi</i>	<i>Bola bajara oladi</i>	<i>Bola bajara oladi</i>
	aytib berish (Zumrad – mehribon, Qimmat – jahldor, buvijon – mehribon)	qahramonlarning qisqacha tavsifi bilan aytib berish (qayta hikoya qilish)	xatti-harakatlarini baholab aytib berish	ketma-ketligida qahramonlarning harakatlarini baholab, ifodali ravishda qayta hikoya qilish
	3.1.3.a. Kattalar yordamida qisqa she'r, qo'shiqlarni qaytarish	3.1.3.b. Kattalar yordamida qisqa she'r, tez aytish yoki qo'shiqlarni yoddan ijro etish	3.1.3.d. She'r, maqollar, tez aytishlarni ifodali yoddan o'qish, so'zlar uchun qofiyalar tanlay olish	3.1.3.e. She'r, masal, qo'shiqlar matnini yakka tartibda yoki guruhda ifodali yoddan o'qish, so'zlarga qofiya o'ylab topish
	3.1.4.a. Ikkita bir-biriga bog'liq harakatdan iborat sodda va og'zaki ko'rsatmalarni ketma-ketlikda bajarish (masalan: "Kubikni shkafga qo'y va yonimga kel")	3.1.4.b. Uchtagacha bir-biriga bog'liq harakatdan iborat sodda og'zaki ko'rsatmalarni bajarish (masalan: "Qalamni ol, doira chiz va bolalarga ko'rsat")	3.1.4.d. Uchta va undan ortiq bir-biriga bog'liq harakatdan iborat sodda og'zaki ko'rsatmalarni bajarish (masalan: "Kitobni top, ko'rsatilgan betini och, rasmda nimani ko'rayotganingni aytib ber")	3.1.4.e. Ko'rsatmalarni ijodkorlik bilan bajarish, o'z harakatlarini tushuntirish va izohlash ("agar bunday qilib bo'lmasa, boshqacha qilib ko'rishga harakat qilaman")
Bola nutq va muloqot ko'nikmalarini namoyon etadi	3.1.5.a. Kattalar va yaqin atrofida tilning savollariga javob berish	3.1.5.b. Umumiy suhbatlarda mavzuga oid savol va javoblarda ishtirok etish	3.1.5.d. Tengdoshlari va/yoki kattalar bilan suhbatda faol qatnashish, suhbatni davom ettirish, o'z fikrini bildirish, suhbatdoshlarining fikrini hurmat qilish	3.1.5.e. Tengdoshlari va/yoki kattalar bilan suhbatda dialogik nutq yordamida fikr, g'oya va ma'lumot almashish va o'z g'oyalarini ilgari surish
	3.1.6.a. So'zlar ma'nosini tushunish uchun sodda savollar berish ("Bu kim?", "Bu nima?")	3.1.6.b. "Qayerda?", "Qachon?", "Qanday?" aniqlashtiruvchi savollarini berib, axborot olish	3.1.6.d. Olingan ma'lumotni aniqlashtirish maqsadida qo'shimcha "nima uchun?", "nega?" va "qanday maqsadda?" kabi savollar berib baholash	3.1.6.e. Turli manbalardan eshitilgan ma'lumotlarni tahlil qilish va keyin uni kundalik hayotida qo'llash
	3.1.7.a. Kattalar yordamida yangi so'zlarni qo'llash	3.1.7.b. Obyektlar va voqealarni tasvirlashda yangi so'zlarni qo'llash (bino baland, naqsh chiroyli, oltin kuz keldi)	3.1.7.d. Nutqda yangi so'zlar, bir xil yoki qarama-qarshi ma'noli so'zlarni qo'llash (sinonim/antonim)	3.1.7.e. Nutqda turli sohalarga taalluqli yangi atamalardan foydalanish (kasblar nomlari – hamshira, shifokor, muhandis, gadjetlar, asboblari, uskunalar va boshqalar)

3. Soha: Nutq, muloqot, o'qish va yozish ko'nikmalari				
Talablar	3-4 yosh (a)	4-5 yosh (b)	5-6 yosh (d)	6-7 yosh (e)
	<i>Bola bajara oladi</i>	<i>Bola bajara oladi</i>	<i>Bola bajara oladi</i>	<i>Bola bajara oladi</i>
	3.1.8.a. Kundalik nutqda shaxs olmoshlari “Men”, “U (o'g'il bola/qiz bola)”ni qo'llay boshlash	3.1.8.b. Kundalik nutqda birlik va ko'plikdagi shaxs olmoshlarini (“Men”, “Sen”, “Siz”, “U”, “Ular”) qo'llash	3.1.8.d. Shaxs olmoshlari va egalik olmoshlarini (“Mening”, “Meniki”, “Mening ...im”) qo'llash	3.1.8.e. Tegishli vaziyatlarda birlik va ko'plikdagi shaxs hamda egalik olmoshlarini to'g'ri qo'llash (“ular – ularning”)
	3.1.9.a. “Bir” va “ko'p” so'zlarining ma'nosini tushunish	3.1.9.b. Nutqda ot so'z turkumini birlik va ko'plik shaklini qo'llash (echki-echkilar, g'oz-g'ozlar)	3.1.9.d. Nutqda ot va fe'lining birlik va ko'plikdagi birikmasidan foydalanish (men borayapman – bolalar borayapti, qiz bola qo'shiq aytayapti – bolalar qo'shiq aytayaptilar)	3.1.9.e. Nutqning turli qismlarida birlik va ko'plik shakllaridan to'g'ri foydalanish (Qizcha bog'chaga keldi. Bolalar stollarga o'tirdilar)
	3.1.10.a. Nutqida 2-3 ta so'zdan iborat sodda gaplardan foydalanish	3.1.10.b. Nutqda sifatlarni qo'llagan holda sodda gaplardan foydalanish (ko'chmanchi qushlar iliq o'lkalarga uchib ketadi)	3.1.10.d. Nutqda asosiy va qo'shimcha gap bo'laklarini qo'shib kengaytirilgan gaplardan foydalanish (ko'chib yuruvchi qushlar qish kelayotgani uchun iliqroq iqlimga uchib ketishadi)	3.1.10.e. Harakatlarni asoslash va aniqlashtirish uchun jummalarda murakkab nutq tuzilmalaridan foydalanish (so'zlardan foydalanish - chunki, qiz bola do'stlari uni kutayotganligi uchun bolalar bog'chasiga xursandchilik bilan boradi)
	3.1.11.a. Kattalar yordamida nutqda o'tgan va hozirgi zamon fe'llarini qo'llash (Dadam ishga ketdi. Onam ko'ylak tikyapti.)	3.1.11.b. Nutqda hozirgi va o'tgan zamondagi voqealarni farqlash va ulardan foydalanish (kecha men istirohat bog'ida edim, bugun men bog'daman)	3.1.11.d. Nutqda kelgusi zamon fe'llaridan foydalanish (ertaga men bog'chaga boraman...)	3.1.11.e. Nutqda turli voqealar vaqtiga qarab turli zamon fe'llaridan foydalanish (Kecha men uyda bir o'zim qo'g'irchoq bilan o'ynadim, ertaga esa qo'g'irchoqlarni dugonalarim bilan o'ynayman)

3. Soha: Nutq, muloqot, o'qish va yozish ko'nikmalari				
Talablar	3-4 yosh (a)	4-5 yosh (b)	5-6 yosh (d)	6-7 yosh (e)
	<i>Bola bajara oladi</i>	<i>Bola bajara oladi</i>	<i>Bola bajara oladi</i>	<i>Bola bajara oladi</i>
	3.1.12.a. Multfilmlarni tomosha qilish orqali chet tiliga qiziqish bildirish	3.1.12.b. Bolalar uchun mo'ljallangan kitoblarni qiziqib ko'rish, xorijiy tildagi multfilmlarni tomosha qilish	3.1.12.d. Xorijiy tilda ba'zi so'zlarni aytish (raqamlar, ranglar, hayvonlar, salomlashish/xayrlashish/rahmat), oddiy qofiyalar va she'rlarni takrorlash	3.1.12.e. Tez-tez uchraydigan narsalarni xorijiy tilda nomlash, oddiy ko'rsatmalarga amal qilish (o'tiring, turing, bering), shablon yordamida savollarga javob berish (ismingizni, yoshingizni, yashash joyingizni ayting), qisqa she'rlar yodlash
2. Kichik soha: O'qishga tayyorgarlik				
Bola kitobga qiziqish va o'qishga tayyorlikni namoyon etadi	3.2.1.a. Kitobdagi rang-barang tasvirlarni qiziqish bilan ko'rib chiqish, sevimli hikoyasini o'qib berishni so'rash	3.2.1.b. Rang-barang tasvirli kitoblarga qiziqish bildirish, oddiy savollar berish, kitobga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish (kitobni yirtmaslik, o'z joyiga qo'yish)	3.2.1.d. Turli janrdagi kitoblarga qiziqish bildirish, xohishiga ko'ra kitoblarni tanlash, kitoblarga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish	3.2.1.e. Kitobni bilim va axborot manbai sifatida qadrlash va uning ahamiyatini tushunish, kitob tuzilishini (muqova, sahifa, matn, illyustratsiya) farqlay olish
	3.2.2.a. O'yinda o'zini qo'g'irchoqlarga yoki boshqa bolalarga kitob o'qib berayotgandek tutish	3.2.2.b. Kitob o'qishda kattalarga taqlid qilish, kitobni to'g'ri holatda ushlab, rasmlar ma'nosini va mazmunini anglash va savollar berish	3.2.2.d. Kattalar bilan birgalikda kitob o'qishda ishtirok etish va ular tanlagan asarning mazmuniga (dinozavrlar, kemalar, sayohatlar haqida) qiziqish bildirish	3.2.2.e. Bolalar adabiyoti janrlarini farqlash, sevimli qahramonlar va mualliflarni aniqlash va kitob mazmunini boshqa bolalar bilan baham ko'rish (ertaklar, she'rlar, qisqa hikoyalar)
	3.2.3.a. Kattalarga qarab oddiy so'zlarni aniq talaffuz qilish, baland va past ovozli nutqni farqlash	3.2.3.b. So'zlarni aniq talaffuz qilish, unli va undosh tovushlarni farqlash va kattalar tomonidan aytilgan so'zlarni esga olib nutq balandligini (baland, jim yoki pichirlab) tartibga solish	3.2.3.d. Asosiy fonetik nutq ko'nikmalarini namoyon etish, unli va ko'pgina undosh tovushlarni aniq talaffuz qilish, so'zlarning bo'g'in tuzilishini tushunish va nutqda intonatsiyani o'zlashtirish	3.2.3.e. Asosiy fonetik nutq ko'nikmalarini namoyon etish, tovushlarni aniq talaffuz qilish va ulardan so'zlarni o'qish uchun foydalanish, so'zlarning asosiy tovush tahlilini o'tkazish va nutqning balandligi, temp va intonatsiyasini tartibga solish
	3.2.4.a. Atrofidagi ayrim bosma harflarni taniy olish	3.2.4.b. Atrofidagi tanish so'zlar va belgilarni taniy	3.2.4.d. Tovushlarni mos keladigan harflar bilan bog'lash,	3.2.4.e. Alifbodagi katta bosma harflarni vizual ravishda ajrata olish va nomlash

3. Soha: Nutq, muloqot, o'qish va yozish ko'nikmalari				
Talablar	3-4 yosh (a)	4-5 yosh (b)	5-6 yosh (d)	6-7 yosh (e)
	<i>Bola bajara oladi</i>	<i>Bola bajara oladi</i>	<i>Bola bajara oladi</i>	<i>Bola bajara oladi</i>
		olish (o'zining ismi, peshlavhalar)	og'zaki so'zlardagi bosh va oxirgi tovushlarni taniy olish	
	3.2.5.a. O'yinlarda, mashg'ulotlarda kattalar orqasidan so'zlarni bo'g'inlarga ajratib takrorlash	3.2.5.b. Kattalar yordamida qisqa va uzun so'zlarni eshitib, qarsak chalib bo'g'inlarga ajratish (o-na; da-da)	3.2.5.d. So'zlarni og'zaki bo'g'inlarga ajratish, qarsak chalib bo'g'inlar sonini (1 dan 2 gacha) aniqlash, bo'g'inlarni so'zlarga birlashtirish (os-mon, yom-g'ir, sha-mol)	3.2.5.e. Bosma harflar orqali so'zlarni bo'g'inlab o'qish, so'zlarni mustaqil ravishda bo'g'inlarga ajratish, so'zdagi birinchi va oxirgi bo'g'inni ajratib ko'rsatish
3. Kichik soha: Yozuvga tayyorgarlik				
Bola yozishga tayyorgarlik ko'nikmalarini namoyon etadi	3.3.1.a. Yozuv vositalarini (qalam, ruchka) butun kafti bilan ushlash (kam ushlash)	3.3.1.b. Yozuv vositalarini barcha barmoqlari bilan ushlash (barmoqda ushlash)	3.3.1.d. Yozuv vositalarini uchta barmoq bilan ushlash (uchta barmoqda ushlash)	3.3.1.e. Mashg'ulotlarda yozuv vositalaridan uchta barmoqda ushlash foydalanish (qisib ushlash)
	3.3.2.a. Yozishga qiziqish bildirish, uni qog'ozda turli xil belgilar bilan o'yin sifatida qabul qilish	3.3.2.b. O'yinlarda "yozish"ni taqlid qilish va chizilgan/yozilganlarni tushuntirish	3.3.2.d. Qog'ozdagi harflar va so'zlar ma'lum bir ketma-ketlikda joylashtirilganligini va matn (xabarlar, hikoyalar va boshqalar) hosil qilishini tushunish	3.3.2.e. Yozuvni ma'lumot yoki xabarni yozma shaklda yetkazish vositasi sifatida anglash, undagi so'zlar o'z ma'nosi va mazmuniga ega ekanligini tushunish
	3.3.3.a. Asosiy grafik belgilarni (chizmalar, chiziqlar, doiralar) chizish	3.3.3.b. Bosma harflarning elementlarini ("soxta harflar") chizish/nusxalash, shablonlar yordamida chiziqlar, yoylar, doiralar va boshqa shakllarni bog'lash	3.3.3.d. Shablon bo'yicha bosma harflarni chizish/atrofni chiqarish, 2 ta bo'lakgacha bo'lgan qisqa so'zlarni yozish, nuqtali chiziqlarni bog'lash va daftar chiziqlarida yo'nalishni to'g'ri belgilash	3.3.3.e. So'zlar va oddiy gaplarni bosma harflar bilan yozish, yozish yo'nalishini saqlash (chapdan o'ngga, yuqoridan pastga, so'zlar orasida bo'sh joy qoldirish).

7.2.4. Soha: Bilish jarayonlarining rivojlanishi

Bilish jarayonlarining rivojlanishi maktabgacha yoshdagi bolalarda elementar matematika, raqamli va axborot texnologiyalaridan foydalanish savodxonligi, fan, dunyoni anglash, “yashil ta’lim” va ekologik mas’uliyat bilan bog‘liq ko‘nikmalarni shakllantirishni o‘z ichiga oladi.

Mantiqiy fikrlash va muammolarni hal qilish bolalarning atrof-olamdagi narsa va voqea-hodisalar o‘rtasidagi sabab-oqibat bog‘liqliklarini aniqlash, ularni tahlil qilish, gipotezalar ilgari surish hamda muammolarga ijodiy yechimlar topish ko‘nikmalarini rivojlantirishni anglatadi.

Bolalar atrof-dagi narsalar, ularning vazifalari, xususiyatlari va maqsadlarini o‘rganishga qiziqish bildiradilar. Ular savollar beradilar, olingan ma’lumotlar asosida oddiy xulosalar chiqaradilar, xatolar va muvaffaqiyatlarini muhokama qiladilar hamda ilmiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantiradilar.

Bolalar raqamli va axborot texnologiyalaridan foydalanish savodxonligining boshlang‘ich asoslarini hamda ularning bugungi texnologik taraqqiyotdagi ahamiyatini tushunishni boshlaydilar.

Elementar matematika sonlar, raqamlar o‘rtasidagi munosabatlar va ketma-ketlikni tushunishni, 10 ichida oddiy matematik amallarni bajarishni, ishonch bilan sanashni hamda turli ta’limiy va hayotiy vaziyatlarda sanash ko‘nikmalarini qo‘llashni o‘z ichiga oladi.

Bolalarning geometrik shakllar, miqdor, hajm, fazo va vaqt haqidagi bilimlari kengaytiriladi.

Ular matematik tilni (“kattaroq”, “kichikroq”, “teng”, “qism-butun” va boshqalar) o‘zlashtiradilar hamda narsalarni taqqoslash, saralash va tasniflash ko‘nikmalarini rivojlantiradilar, bir yoki bir nechta belgilariga (rang, shakl, o‘lcham, naqsh va boshqalar) asoslanib ketma-ketliklarni aniqlaydilar.

Matematika fan, texnologiya va muhandislik, moliyaviy savodxonlik hamda boshqa faoliyat yo‘nalishlari uchun muhim ahamiyatga ega. Shu bois sifatli matematik ta’lim dunyoni anglash uchun mustahkam poydevor yaratadi.

Dunyoni anglash bolalarning jonli va jonsiz tabiat, Yer va koinot haqidagi bilimlarini kengaytiradi.

Bolalar tabiat va atrof-olamdagi o‘zgarishlar ketma-ketligini, masalan, kunduz va tun almashinuvi, mavsumiy ob-havo o‘zgarishlari, o‘simliklar, parrandalar, hayvonlar va insonning rivojlanishi hamda hayot sikllarini kuzatadilar va qayd etadilar. Shuningdek, ular inson faoliyati va atrof-olam o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirning tabiatga qanday ta’sir ko‘rsatishini, jumladan, iqlim o‘zgarishi, global isish, qurg‘oqchilik, suv tanqisligi va havo ifloslanishi kabi dolzarb ekologik muammolarni tushunishni boshlaydilar.

Bolalar atrof-olamga nisbatan mas’uliyatli munosabatda bo‘lish, unga g‘amxo‘rlik qilish va uni muhofaza etish zarurligini anglaydilar.

Ular ekologik xulq-atvor qoidalariga rioya qiladilar, suv, energiya va boshqa tabiiy resurslardan oqilona foydalanish hamda ularni tejashning muhimligini tushunadilar, atrof-olamni, o‘simlik va hayvonot dunyosini muhofaza qilishga mas’uliyat bilan yondashadilar.

Bilish jarayonlarini rivojlantirish bolalarning qiziqishi va faol izlanishini rag‘batlantiradi. Bu esa ularning maktabda va butun hayoti davomida muvaffaqiyatli ta’lim olishi uchun mustahkam asos yaratadi. Shuningdek, tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga, turli vaziyatlarga moslashishga, mulohaza yuritishga, muammolarni hal etishga, ma’lumotlarni to‘plash va ulardan samarali foydalanishga, ijodkorlik hamda tashabbuskorlikni rivojlantirishga xizmat qiladi.

4. Soha: Bilish jarayonlarining rivojlanishi				
Talablar	3-4 yosh (a)	4-5 yosh (b)	5-6 yosh (d)	6-7 yosh (e)
	<i>Bola bajara oladi</i>	<i>Bola bajara oladi</i>	<i>Bola bajara oladi</i>	<i>Bola bajara oladi</i>
1. Kichik soha: Mantiqiy fikrlash va muammolarni hal qilish				
Bola qiziquvchanlikni, tadqiqotchilikni, mantiqiy fikrlash va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini namoyon etadi	4.1.1.a. Qiziquvchanlikni namoyon etish, yangi narsa va hodisalar haqida sodda savollar berish ("Bu nima?")	4.1.1.b. Mavjud voqea va hodisalar sababini aniqlashda qat'iyatli bo'lish ("Nega?", "Nima uchun?" kabi savollar berish)	4.1.1.d. Narsa va hodisalar o'rtasidagi sabab-oqibat munosabatlarini aniqlash ("Bu qanday ishlaydi?", "Qorni issiq xonaga olib kirsam, nima bo'ladi?")	4.1.1.e. Narsa va hodisalar o'rtasidagi sabab-oqibat munosabatlarini tahlil qilish ("Yomg'ir boshlandi, shuning uchun sayrga soyabon olib chiqamiz")
	4.1.2.a. Buyumlarni o'rganishga qiziqishni namoyon qilish (qarab ko'rish, paypaslash, ta'mini bilishga urinish, dumalatish, taqillatish, siqib ko'rish)	4.1.2.b. Yangi buyumlarning tarkibi (qog'oz, plastik, metall, yog'och) va uning xususiyatlarini o'rganish (o'yinchoqni qismlarga ajratib ko'rish, buyum ichida nimalar borligini aniqlash, suvda cho'kishi yoki cho'kmasligini kuzatish, magnitga tortilishi yoki tortilishmasligini tekshirish)	4.1.2.d. Buyum va hodisalarining xususiyatlari va o'zgarishlarini kuzatish asosida tajribalar o'tkazish (metall buyumlar magnitga tortiladi, yog'och va plastik buyumlar tortiladigan emas, qor eriydi, suvga aylanadi, suv bug'lanadi)	4.1.2.e. Shaxsiy tajribasiga, kuzatuvlar va tajribalarning kutilgan/kutilmagan natijalariga asoslangan oddiy gipotezalarni ilgari surish va natijalarni qayd etish (magnitlar tortishi va qaytarishi mumkin, o'zgarishlar, o'lchovlar va boshqalar natijalarini eslab qolish)
	4.1.3.a. Tajribadan o'tkazish va xatolar qilish orqali sodda yechimlar topish (masalan, minora qurish, toki u qulab tushmaguncha)	4.1.3.b. Muammolarni muvaffaqiyatli va muvaffaqiyatsiz urinishlar orqali hal qilishning turli usullarini topish (minora qurishning turli variantlarini sinab ko'rish, yiqilib ketmasligi uchun tayanch ustunni to'g'ri tanlash)	4.1.3.d. Kundalik vaziyatlarda tajriba va xatolar qilish yo'li bilan muammoni hal qilish (eshik kalitini ochish uchun to'g'ri kalitni topish, sodda konstruktorni sxemasi bo'yicha yig'ish)	4.1.3.e. Egallangan tajriba asosida masalalar va muammolarga ijodiy yechim topish (minorani qurishda munosib va ijodiy yondashuv, konstruktorni sxemaga muvofiq yig'ish) va o'z xohishiga ko'ra qo'shimcha qismlarni qo'shish
	4.1.4.a. Ayrim sodda harakatlar oqibatlarini oldindan ko'ra bilish (televizorni o'chirsa, jimlik bo'ladi, chiroqni o'chirsa, qorong'i bo'ladi)	4.1.4.b. Kuzatishlar va tajriba asosida yakuniy natijani oldindan ko'ra bilish (osmonda qora bulutlar bor, yomg'ir yog'adi)	4.1.4.d. Buyumlar, voqea va hodisalar o'rtasidagi oddiy munosabatlarni tushunish orqali oldindan ko'rish (soyabonsiz yomg'irda ho'l bo'lib ketaman, keyin kasal bo'lib qolishim mumkin)	4.1.4.e. Voqealarning sabab-oqibatlarini tushunish orqali uning rivojlanishi va natijalarini oldindan ko'rish (agar piyolani stol chetiga qo'ysa, tushib ketishi, sinishi va jarohatga olib kelishi mumkin)

4. Soha: Bilish jarayonlarining rivojlanishi				
Talablar	3-4 yosh (a)	4-5 yosh (b)	5-6 yosh (d)	6-7 yosh (e)
	<i>Bola bajara oladi</i>	<i>Bola bajara oladi</i>	<i>Bola bajara oladi</i>	<i>Bola bajara oladi</i>
Bola raqamli va axborot texnologiyalaridan foydalanish savodxonligining boshlang'ich asoslarini o'zlashtiradi	4.1.5.a. Kattalar yordamida tanish narsalarni bitta tashqi belgisiga (rangi, o'lchami) ko'ra ajratish	4.1.5.b. Narsalarni 2 ta belgisiga ko'ra ajratish, o'xshash va farqlarini taqqoslash (rangi va o'lchami, rangi va shakli)	4.1.5.d. Narsalarni 3 ta va undan ortiq belgisiga ko'ra ajratish va guruhlariga taqsimlash (transportlar turi va o'lchami bo'yicha)	4.1.5.e. Ta'lim jarayonida va kundalik hayotiy faoliyatda narsalarni ajratish bo'yicha ijodiy g'oyalar taklif etish
	4.1.6.a. Kattalar yordamida 2 ta elementning oddiy takrorlanuvchi ketma-ketliklarini tanib olish (rang, shakl)	4.1.6.b. Ketma-ketlikdagi tartibni tushunish va davom ettirish, shuningdek 2-3 ta (son, rang, shakl) almashib keladigan elementlarni davom ettirish	4.1.6.d. 3-4 elementni ketma-ketlikda joylashtirish va mantiqan o'ylab, ortiqcha elementni aniqlash (sonlar, shakllar, naqshlar, harakatdagi ritm)	4.1.6.e. Aralash ketma-ketlikka ega mantiqiy masalalarni yechish (modellash, matematika, konstruktor yig'ish va boshqalar)
	4.1.7.a. Oddiy raqamli qurilmalarni (telefon, planshet, televizor, ularni yoqish/o'chirish) aniqlash va ulardan foydalanish	4.1.7.b. Raqamli qurilmalarning asosiy funksiyalari va ularning mo'ljallangan maqsadlari o'rtasidagi farqni aniqlash (telefon belgisi – qo'ng'iroq qilish, tegishli belgini bosish orqali ilovani ochish)	4.1.7.d. Kattalar yordami bilan raqamli qurilmalardan o'yin o'ynash va kerakli ma'lumotlarni topish uchun foydalanish (o'yinlar, audiokitoblar, bolalar dasturlari va videolar)	4.1.7.e. Raqamli qurilmalardan ta'lim jarayoni va kundalik hayotda maqsadli foydalanish, hamda raqamli xavfsizlik qoidalariga rioya qilish (shaxsiy ma'lumotlarni bermaslik va begona xabarlarga javob yozmaslik)
	4.1.8.a. Oddiy grafik belgilarni ("quyosh" yoki "bulut" – ob-havo, kulgichlar (smaylik) – kayfiyat/hissiyotlar) farqlash	4.1.8.b. Oddiy grafik belgilarni farqlash va ularning ma'nosini tushuntirish (strelkalar – harakat yo'nalishi)	4.1.8.d. Ta'lim jarayoni va hayotiy vaziyatlarda tanish grafik belgilardan foydalanish (o'yinlardagi piktogrammalar, ko'chadagi belgilar)	4.1.8.e. Turli vaziyatlarda funksional grafik belgilardan foydalanish (yo'l belgilari, jamoat joylaridagi piktogrammalar, axlat, hojatxona, kirish-chiqish)
	4.1.9.a. Tanish manbalardan (radio, televideniye, rasmlar, kitoblar) asosiy ma'lumotlarni tanib olish	4.1.9.b. Axborotni qabul qilish va uzatishning asosiy manbalarini tanib olish (kattalar va bolalar, kitoblar, rasmlar, raqamli qurilmalar)	4.1.9.d. Kattalar yordamida ma'lumot qidirish (video, audio, kitoblar, internet, ularning qiziqishlarini hisobga olgan holda)	4.1.9.e. Qabul qilingan va uzatilgan ma'lumotlarni xronologiya, ahamiyat va mavzu bo'yicha tanqidiy tahlil qilish, ulardan foydalanish va qayd

4. Soha: Bilish jarayonlarining rivojlanishi				
Talablar	3-4 yosh (a)	4-5 yosh (b)	5-6 yosh (d)	6-7 yosh (e)
	<i>Bola bajara oladi</i>	<i>Bola bajara oladi</i>	<i>Bola bajara oladi</i>	<i>Bola bajara oladi</i>
				etish (grafik diagrammalar, loyiha faoliyati)
2. Kichik soha: Elementar matematika				
Bola sonlar, miqdor, sanash va sonlar o'rtasidagi bog'liqliklar haqida tasavvurga ega bo'ladi	4.2.1.a. Turli amaliy vaziyatlarda 1 dan 5 gacha tartibli sanashdan foydalanish (rasmlardagi o'yinchoqlar, buyumlar sonini sanash)	4.2.1.b. Turli amaliy vaziyatlarda 1 dan 10 gacha tartibli sanashdan foydalanish (narsalarni sanashda, sonlar yoki harakatlar ketma-ketligini muhokama qilishda)	4.2.1.d. Turli amaliy vaziyatlarda 1 dan 10 gacha oldinga va orqaga tartibli sanashni tanib olish va qo'llash (guruhdagi bolalarni sanash, o'yinchoq oldin yoki orqa qatorda qanday o'rinni egallashini bilishi)	4.2.1.e. Turli amaliy vaziyatlarda 1 dan 20 gacha tartibli sanashdan foydalanish
	4.2.2.a. O'yinchoqlar va ko'rgazmali materiallar yordamida to'plam tushunchalarini farqlash: "bitta", "ko'p"	4.2.2.b. Ko'rgazmali mashqlar yordamida to'plamni ikki guruhga bo'linganligini tushunish va namoyon etish: "ko'p", "oz", "jami", "bir xil miqdor"	4.2.2.d. Ko'rgazmali va amaliy mashqlar (ish daftarlari) yordamida ikki guruhga bo'lingan ("ko'p", "kamroq", "teng") buyumlarni miqdori bo'yicha taqqoslash	4.2.2.e. Ko'rgazmali va amaliy mashqlar yordamida 10 soni ichidagi buyumlar sonini (4 ta buyum 2 tadan ko'p, lekin 6 tadan kam) taqqoslash bo'yicha mantiqiy masalalarni yechish
	4.2.3.a. Sonlarni harflardan farqlash, raqamlarni tanish va nomini aytish	4.2.3.b. Sonlar buyumlarning miqdori sifatida (bitta olma, ikkita shar, o'nta kub) ifodalanishini tushunish va ba'zi sonlarni chizish	4.2.3.d. Didaktik materiallardan foydalanib, sonning tarkibini tushunish (sonni qismlarga ajratish) va 10 gacha bo'lgan sonlarni chizish	4.2.3.e. Amaliy resurslardan foydalanib, sonlar va ishoralar (+, -, =) yordamida 10 gacha bo'lgan sonlarni qo'shish va ayirish bilan bog'liq oddiy matematik masalalarni yechish
Bola geometrik shakllar, miqdor, fazo va vaqt haqidagi tushunchalarni namoyon etadi	4.2.4.a. Buyumlarni o'lchash, hajmiga qarab kichikdan kattagacha taqqoslash	4.2.4.b. Buyumlarni tavsifiga ko'ra o'lchash va taqqoslash (uzunligi, balandligi, eni yoki og'irligi) "kengroq-torroq", "uzunroq-kaltaroq", "balandroq-pastroq", "yengilroq-og'irroq" tushunchalaridan foydalanish	4.2.4.d. Vazifalarni hal qilish, o'yin va kundalik vaziyatlarda o'lchov vositalaridan foydalanish (chizg'ich, tarozi)	4.2.4.e. Tadqiqot va tajriba jarayonida suyuq, sochiluvchan va qattiq jismlarni o'lchash uchun o'lchov asboblari yoki shartli birliklardan maqsadli foydalanish va natijalarni qayd etish (uzunlikni lenta bilan,

4. Soha: Bilish jarayonlarining rivojlanishi				
Talablar	3-4 yosh (a)	4-5 yosh (b)	5-6 yosh (d)	6-7 yosh (e)
	<i>Bola bajara oladi</i>	<i>Bola bajara oladi</i>	<i>Bola bajara oladi</i>	<i>Bola bajara oladi</i>
				suyuqlik va sochiluvchan narsalarni stakan bilan o'lchash)
	4.2.5.a. Narsaning butun va yarim bo'lagi tushunchalarini farqlash (butun olma va olmaning bo'lagi)	4.2.5.b. Yarim butunning ikkita teng bo'lagi ekanligini tushunish (butun non – nonning yarmi)	4.2.5.d. Butunni bir nechta bo'laklarga bo'lish va qismlardan butunni hosil qilish (masalan, qog'ozni 4 bo'lak qilib qirqish va aksincha, to'plash)	4.2.5.e. Butun va qism nisbatlarini tahlil qilish, narsani teng va teng bo'lmagan bo'laklarga ong'li ravishda bo'lish, xulosa qilish (bo'lak nima uchun butundan kichik ekanini tushuntirish)
	4.2.6.a. Asosiy geometrik shakllarni farqlash (doira, kvadrat, uchburchak)	4.2.6.b. Geometrik shakllarni farqlash va nomini aytish (doira, kvadrat, uchburchak, to'g'ri to'rtburchak, oval), o'rab turgan muhitdan geometrik shakllarga o'xshash narsalarni topish	4.2.6.d. Silliq geometrik shakllarni ularning xossalari asosida (burchaklar, tomonlar), shakli va o'lchami bo'yicha qiyoslash	4.2.6.e. Silliq va hajmli shakllarni farqlash (shar, kub, silindr, piramida), bir geometrik shaklni boshqasiga o'zgartirishni loyihalash, (buklash, qirqish yo'li bilan)
	4.2.7.a. Buyumning o'ziga nisbatan joylashishini aniqlash (yaqin – uzoq, baland – past, oldinda – orqada)	4.2.7.b. Buyumlarning boshqa narsalarga nisbatan joylashishini aniqlash (stolda, qo'g'irchoqning oldida), oddiy ko'rsatmalar asosida fazoda mo'ljal olish (masalan, "ayiqchani kubik oldiga qo'y")	4.2.7.d. Joylashuvni ko'rsatish va aniqlash uchun ko'makchi so'zlardan foydalanish (orqasida, oldida, yonida, orasida, qarama-qarshi), xona ichida yo'nalishni belgilay olish	4.2.7.e. Yo'nalishlarni aniqlash va ifodalash (o'ngga-chapga, diagonal bo'ylab), ikki o'lchamli fazoda mo'ljal olish (quyoshni qog'ozning yuqori o'ng burchagida chizish, doirani qog'oz markazida joylashtirish) va uch o'lchamli fazoda mo'ljal olish (masalan, xona yoki hovli sxemasi bo'yicha yo'lni topish)
	4.2.8.a. Kun qismlarini farqlash (ertalab, kunduzi, kechqurun (oqshom), ularni kundalik harakatlar bilan nisbatlash (ertalab bolalar bog'chasiga boraman, kechqurun uxlashga yotaman)	4.2.8.b. Voqealarning kun davomidagi ketma-ketligini farqlash, "kecha", "bugun", "ertaga" tushunchalarini qo'llash	4.2.8.d. Kunning turli vaqtlari, hafta kunlari, yil fasllarini vaqt birligi sifatida farqlash va to'g'ri qo'llash	4.2.8.e. Vaqt munosabatlarini farqlash (o'tmish-hozir, oldin-keyin), yil fasllarini, hafta kunlarini, oylarni ketma-ketlikda aytib berish, soat va kalendarning ma'nosini tushunish

4. Soha: Bilish jarayonlarining rivojlanishi				
Talablar	3-4 yosh (a)	4-5 yosh (b)	5-6 yosh (d)	6-7 yosh (e)
	<i>Bola bajara oladi</i>	<i>Bola bajara oladi</i>	<i>Bola bajara oladi</i>	<i>Bola bajara oladi</i>
3. Kichik soha: Dunyoni anglash				
Bola atrof-olamga, odamlarga, hayvonlar va o'simliklarga qiziqish hamda qiziquvchanlik bildiradi	4.3.1.a. Tananing ayrim qismlarini aytish (qo'llar, oyoqlar, barmoqlar, quloqlar, burun, bosh)	4.3.1.b. Tanish tana a'zolarini va ularning vazifalarini aytib berish (tizzaga – oyoqni bukadi, barmoqlar – narsalarni ushlashga yordam beradi, ko'z – ko'rish a'zosi, quloq – tovushlarni eshitish a'zosi)	4.3.1.d. Tananing asosiy qismlarini (tirsak, yelka, tizza) va ba'zi ichki a'zolarini nomlash, ularning joylashuvini ko'rsatish hamda vazifalarini oddiy tarzda ta'riflash (masalan: oshqozon – ovqatni hazm qilishi, o'pka – nafas olishga yordam beradi)	4.3.1.e. Inson tanasining murakkab qismlarini (suyak, mushaklar), ichki a'zolarini nomlash va ularning vazifalarini ta'riflash (suyak va mushaklar tanani tutish va harakatlanishga yordam beradi, yurak qon aylanishni ta'minlaydi, o'pka tanani kislorod bilan ta'minlaydi)
	4.3.2.a. Tanish hayvonlar (mushuk, kuchuk, sigir) va hasharotlarni (chumoli, kapalak, qo'ng'iz) nomlash	4.3.2.b. Uy hayvonlari (echki, qo'y) va yovvoyi hayvonlarni (quyon, bo'ri, tulki, ayiq), ba'zi qushlarni (kabutar, to'ti, qarg'a), va hasharotlarni (pashsha, o'rgimchak, chigirtka) nomlash va farqlash	4.3.2.d. Hayvonot olamidagi hasharotlar, qushlar, baliqlar, hayvonlarni farqlash va ularning tuzilishi hamda xarakterli xususiyatlarini (ovqatlanishi, yashash muhiti, harakat turi) tasvirlash	4.3.2.e. Turli iqlim sharoitida yashaydigan hayvonlar, baliqlar, qushlar va hasharotlar hayotidagi mavsumiy o'zgarishlarni farqlash (qushlar issiq o'lkalarga uchib ketadi, quyonning rangi qishda oq rangga aylanadi), hayvonot olamini muhofaza qilishning muhimligini tushunish
	4.3.3.a. Tanish o'simliklarni nomlash (daraxt, o't, gul, olma, pomidor)	4.3.3.b. Ayrim tanish daraxt va gullar, sabzavot va mevalarni nomlash va guruhlash	4.3.3.d. Sabzavotlar, meva, daraxtlar va gullarni tashqi ko'rinishi va tuzilishi bo'yicha farqlash va ta'riflash (ildiz, poya, barg, gul/mevalar)	4.3.3.e. Madaniy va yovvoyi o'simliklarni farqlay bilish, ularning foydasini, o'sish va parvarish shartlarini (sug'orish, yorug'lik) tushunish va ularga g'amxo'rlik qilish
Bola jonli va jonsiz tabiat obyektlarining xususiyatlari va belgilarini farqlay oladi	4.3.4.a. Jonli va jonsiz tabiat obyektlariga qiziqish bildirish ("Bu nima?", "Ayi qayerda uxlaydi?")	4.3.4.b. Jonli va jonsiz tabiat o'rtasidagi farqlarni tushunish (tirik organizmlarning yashashi uchun havo, suv va oziq-ovqatga ehtiyoji borligini tushuntiradi)	4.3.4.d. Tirik organizmlarning yashash joylaridagi farqlarni tushunish va tabiatni o'rganish orqali oddiy	4.3.4.e. Okean, qit'a, qutb, Quyosh tizimi sayyorolari, do'l, tuman, chaqmoq kabi tabiat obyektlari va hodisalarini farqlash, shuningdek globus,

4. Soha: Bilish jarayonlarining rivojlanishi				
Talablar	3-4 yosh (a)	4-5 yosh (b)	5-6 yosh (d)	6-7 yosh (e)
	<i>Bola bajara oladi</i>	<i>Bola bajara oladi</i>	<i>Bola bajara oladi</i>	<i>Bola bajara oladi</i>
			xulosalar chiqarish (o'simlik sug'orilmasa, quriydi, baliq suvsiz yashay olmaydi)	xarita va ob-havo kalendari bilan ishlashni tushunish
	4.3.5.a. Quyosh, osmon, yomg'ir va bulut kabi oddiy tabiat hodisalari va obyektlarini farqlash	4.3.5.b. Yulduzlar, tog'lar, daryo, qor va shamol kabi tabiat obyektlari va hodisalarini farqlash, hamda tabiatdagi o'zgarishlarni sezish (kuzda barglar sarg'ayadi, bahorda qor eriydi)	4.3.5.d. O'rmon, orol, sayyora kabi tabiat obyektlari va shamol, jala, momaqaldiraq kabi hodisalarini farqlash hamda fasllar o'zgarishi bilan bog'liq oddiy sabab-oqibatlarini tushunish	4.3.5.e. Tabiiy narsalar va hodisalarini farqlash: okean, qit'a, qutb, Quyosh tizimining sayyorolari, do'l, tuman, chaqmoq, shuningdek, globus va xarita, ob-havo taqvimini bilan ishlashni tushunish
Bola atrof-olamga nisbatan mas'uliyatli munosabatda bo'lish, unga g'amxo'rlik qilish va uni muhofaza etishning muhimligini tushunadi	4.3.6.a. Kattalar yordamida atrof-olamga g'amxo'rlik va e'tibor ko'rsatish (gullarni sug'orish, qushlarga don berish)	4.3.6.b. Kattalar ko'rsatmasi bilan atrof-olamga g'amxo'rlik qilish (o'yinchoqlarga g'amxo'rlik qilish, xona o'simliklarini sug'orish, chiqindilarni maxsus qutiga tashlash)	4.3.6.d. Insonlarning atrof-olamga ta'sirini (havo ifloslanishi, qurg'oqchilik) tushunish, uni muhofaza qilishda mas'uliyat va faol ishtirok etish (chiqindilarni qayta ishlash, suv, energiyani tejash)	4.3.6.e. Ekologik mas'uliyatni ko'rsatish va atrof-olamni muhofaza qilishda ishtirok etish, tabiiy resurslarni tejash (daraxt va gullar ekish, chiqindilarni qayta ishlash, tashlandiq va tabiiy materiallardan buyumlar yasash)
	4.3.7.a. Fasllar va ob-havo o'zgarishlarini farqlash	4.3.7.b. Iqlim va ob-havoning o'simliklar, hayvonlar va insonlar hayotiga ta'sirini tushunish	4.3.7.d. Iqlim o'zgarishining atrof-olamga ta'sirini kuzatish va tahlil qilish	4.3.7.e. Inson faoliyatining iqlim o'zgarishiga bog'liqligining sabab-oqibatlari va uning jonli va jonsiz tabiat dunyosiga ta'sirini tushunish
	4.3.8.a. Kundalik turmushda keng qo'llaniladigan elektr jihozlarini nomlash (chiroq, televizor, muzlatgich)	4.3.8.b. Kundalik hayotda qo'llaniladigan elektr jihozlarini nomlash, ularning qanday maqsadda qo'llanilishini tushuntirish (masalan: chang yutgich – tozalash uchun, chiroq – yoritish uchun, muzlatgich – oziq-ovqat mahsulotlarini saqlash uchun)	4.3.8.d. Maishiy elektr jihozlaridan foydalanishning muhimligini tushunishni namoyon etish va ularni ishlatishda asosiy xavfsizlik qoidalariga rioya qilish (nam qo'llar bilan rozetka yoki simlarga tegmaslik)	4.3.8.e. Maishiy elektr jihozlaridan foydalanish va ularni ishlatishda xavfsizlik qoidalariga hamda energiya tejashga rioya qilish (ishlatilgandan so'ng jihozlarni yoqish-o'chirish)

7.2.5. Soha: Ijodiy rivojlanish

Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy rivojlanishi atrofda voqelikka estetik munosabatni shakllantirish, tasavvur va o'zini ifoda etish qobiliyatlarini rivojlantirishni o'z ichiga oladi.

Ijodiy rivojlanish bolaning o'z fikrlari, his-tuyg'ulari va g'oyalarini ifoda etish qobiliyatini, turli san'at turlari va ijodiy o'yinlar orqali kreativ fikrlashni, yangi g'oyalarni yaratish hamda ularni individual yoki jamoaviy ijodiy faoliyatda amalga oshirishni nazarda tutadi.

Badiiy dunyoqarash bolaning estetik didi, badiiy tasavvuri va fantaziyasini, shuningdek, atrofda dunyo go'zalligi haqidagi his-tuyg'ulari va tasavvurlarini turli ijodiy faoliyat turlari – tasviriy san'at, amaliy san'at, musiqa, raqs va sahnalashtirish (teatr) orqali ifoda etish qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Badiiy va ijodiy qobiliyatlar bolalarning badiiy dizayn va modellash ko'nikmalarini ham o'z ichiga oladi. San'at bilan muntazam shug'ullanish, turli vosita va materiallardan (jumladan, tabiiy va qayta ishlangan materiallardan) ijodiy foydalanish ekologik mas'uliyat asosida buyumlarni estetik va amaliy qo'l ishlariga aylantirish imkonini beradi.

Ijodiy rivojlanish bolalarda san'atni qadrlash, uning tarix va an'analar bilan bog'liqligini tushunish, insonning dunyoni o'zgartirish va madaniy merosni asrashdagi bunyodkorlik rolini anglashni shakllantiradi.

5. Soha: Ijodiy rivojlanish				
Talablar	3-4 yosh (a)	4-5 yosh (b)	5-6 yosh (d)	6-7 yosh (e)
	<i>Bola bajara oladi</i>	<i>Bola bajara oladi</i>	<i>Bola bajara oladi</i>	<i>Bola bajara oladi</i>
1. Kichik soha: Badiiy dunyoqarash				
Bola turli ijod turlari — tasviriy san'at, musiqa, raqs va sahnalashtirish orqali badiiy dunyoqarash ko'nikmalarini namoyon etadi	5.1.1.a. San'at turlariga (qo'g'irchoq teatr, qo'shiqlar, musiqa, raqs) hissiy munosabat bildirish	5.1.1.b. Kitob illyustratsiyalari, rasmlar, ertak/hikoyalarning teatrlashtirilgan spektakllari va musiqiy ijod namunalarini tomosha qilishga qiziqish bildirish va ularga o'z munosabatini ifodalash ("Menga bu musiqa yoqadi, u quvnoq")	5.1.1.d. Turli san'at asarlariga qiziqish bildirish, ularni tasvirlash hamda o'z tushunchasi va afzalliklarini ifodalash	5.1.1.e. Jahon va milliy san'atning har xil turlariga qiziqish bildirish, ularning tarix va turli madaniyat an'analari bilan bog'liqligini anglash
	5.1.2.a. Kattalarning ijodiy faoliyatiga taqlid qilish: rasm chizish, loydan yasash, qo'shiq aytish, raqsga tushish	5.1.2.b. Rasmlar, musiqa va haykalchalar, san'at bilan bog'liq bo'lib, insonlar tomonidan yaratilishini tushunish (rassom rasm chizadi, shoir she'rlar yozadi, aktyor rollarni ijro etadi)	5.1.2.d. San'at asarlarini yaratuvchilarga qiziqish bildirish ("Bu rasmni kim chizgan?", "Bu qo'shiqni kim yaratgan?") va ba'zi mashhur rassomlar, yozuvchilar, bastakorlar	5.1.2.e. Inson va san'atning dunyoni o'zgartirish hamda madaniy merosni saqlashdagi ijodiy rolini tushunish (badiiy ijod, she'riyat, musiqa, haykaltaroshlik, xalq

5. Soha: Ijodiy rivojlanish				
Talablar	3-4 yosh (a)	4-5 yosh (b)	5-6 yosh (d)	6-7 yosh (e)
	<i>Bola bajara oladi</i>	<i>Bola bajara oladi</i>	<i>Bola bajara oladi</i>	<i>Bola bajara oladi</i>
			hamda qo'shiqchilarning ismlarini ayta olish	hunarmandchiligi va boshqalar)
	5.1.3.a. Tasviriy san'atga qiziqish bildirish (barmoqlar bilan chizish, kaft izlaridan turli rangdagi naqshlar)	5.1.3.b. Bo'yoqlarni aralashtirib, yangi rang va tuslar hosil qilish orqali rasmlar chizishda tajriba o'tkazish	5.1.3.d. O'z g'oyasiga ko'ra ijodiy ishlar yaratishda turli chizish usullaridan (akvarel, guash, qalam, rangli bo'rlar) foydalanish	5.1.3.e. Rasmlar orqali o'z his-tuyg'ulari va dunyoqarashini ifodalash, chizilgan syujetni tasavvur qilib, og'zaki tushuntirish
	5.1.4.a. Kattalar bergan namunaga (konturga) qarab chizish	5.1.4.b. Shablon va namunalar asosida ijodiy ishlarni bajarish (masalan, onani chizishda inson tana qismlari shablonidan foydalanish, mozaikada esa namunaga qarab naqsh tuzish)	5.1.4.d. Shaxsiy tajriba va tasavvur elementlarini o'z ichiga olgan ijodiy faoliyatni amalga oshirish (Bir nechta narsalardan – uy, quyosh, asosiy tana qismlari harakatda bo'lgan inson qiyofasidan chizilgan rasm)	5.1.4.e. Shaxsiy dunyoqarashiga asoslanib kompozitsiyalar yaratish (masalan, harakatdagi, kiyimli insonni tanish va tasavvur qilingan elementlar bilan chizish)
	5.1.5.a. Pedagog yordami bilan turli ijodiy faoliyatlarda ishtirok etish (rasm chizish, loydan yasash, applikatsiya)	5.1.5.b. Ijodiy faoliyatda turli material va shakllar bilan tajriba o'tkazish (loy, plastilin, xamir bilan yasash, turli chizish usullaridan foydalanish)	5.1.5.d. O'z xohishiga ko'ra ma'lum bir ijod turi bilan shug'ullanish (rasm chizish, haykaltaroshlik, kashtachilik, munchoq to'qish va boshqalar)	5.1.5.e. Tasavvuridagi syujetlar va g'oyalarini turli xil san'at turlarida, yakka tartibda yoki jamoaviy loyihalarda amalga oshirish
	5.1.6.a. O'zbek amaliy san'ati buyumlariga (rang-barang matolar, sopol idishlar, o'ymakor yog'och va loydan yasalgan haykalchalar) qiziqish bildirish	5.1.6.b. Pedagog yordamida namuna va maketlar asosida o'zbek amaliy san'ati unsurlaridan foydalanib oddiy qo'l ishlanmalarini yaratish (tayyor loy ko'za, sopol idish yoki lagan maketiga namuna asosida naqshlar chizish)	5.1.6.d. Milliy amaliy san'atga qiziqish bildirish, uning elementlaridan (shakl, materiallar, ramzlar, naqshlar) o'zining ijodiy qo'l ishlanmalarida foydalanish	5.1.6.e. O'z hududi va mamlakatining milliy amaliy san'ati tarixiy hamda madaniy ahamiyatini tushunish, milliy amaliy san'at elementlarini o'zining ijodiy loyihalarida qo'llash

5. Soha: Ijodiy rivojlanish				
Talablar	3-4 yosh (a)	4-5 yosh (b)	5-6 yosh (d)	6-7 yosh (e)
	<i>Bola bajara oladi</i>	<i>Bola bajara oladi</i>	<i>Bola bajara oladi</i>	<i>Bola bajara oladi</i>
	5.1.7.a. Oddiy, tanish bo'lgan bolalar qo'shiqlarini zavq bilan tinglash va kuylash	5.1.7.b. Ommabop bo'lgan bolalar qo'shiqlarini kuy ritmiga mos ravishda, tovush dinamikasini (baland/past) va ijro tempini (tez/sekin) o'zgartirib kuylash	5.1.7.d. Yakka tartibda yoki jamoa bo'lib (xor tarkibida) kuylashda ishtirok etish, ovoz dinamikasini, intonatsiyani (g'amgin – quvnoq), hamda tonallikni (baland – past) o'zgartirish	5.1.7.e. Yakka holda va/yoki bolalar guruhi bilan turli qo'shiqlarni kuylash, kuy ohangi kayfiyatini, intonatsiyasini va ijro ifodaliligini yetkazib bera olish (davlat madhiyasi, bolalar qo'shiqlari, xalq qo'shiqlari hamda boshqa ommabop qo'shiqlar)
	5.1.8.a. Turli xil “cholg'u asboblari”da chalishni taqlid qilish (doira, nay, nog'ora chalish)	5.1.8.b. Bolalar musiqa asboblari (doira, baraban, fleyta, ksilofon) turli tovushlarni sinab ko'rish va ular bilan tajriba o'tkazish, yakka tartibda yoki “orkestr” o'yinlarida ishtirok etish	5.1.8.d. Bolalar musiqa asboblari (bolalar pianinosi, gitara, qo'ng'iroqcha, metallofon, uchburchak) temp va ritmi turlicha bo'lgan oddiy kuylarni chalib bera olish	5.1.8.e. Musiqa asboblari yakka tartibda yoki guruh orkestri tarkibida chalish, asboblarni ularning ohangi va jarangiga bo'lgan qiziqishiga ko'ra tanlash (fortepiano, dutor, doira, gitara, naycha)
	5.1.9.a. Musiqa jo'rligida oddiy raqs harakatlarini takrorlash (qarsak chalish, oyog'i bilan taqillatish, raqs tushish)	5.1.9.b. Yakka yoki guruhli raqslarda harakatlarni musiqa ritmi va tempiga muvofiqlashtirib raqs harakatlarini bajarish	5.1.9.d. Milliy va dunyo xalqlari raqsalarini o'z improvizatsiyasini kiritib, yakka yoki birgalikda ijro etish	5.1.9.e. Yakkaxon va guruhli raqslarda yangi raqs harakatlari va musiqiy kompozitsiyalar yaratish g'oyalarini taklif qilish
	5.1.10.a. Rolli o'yinlarda ertak qahramonlari va kattalarning xatti-harakatlarini tasvirlash (“Bo'g'irsoq”, “Shifoxona”, “Do'kon” va boshqalar)	5.1.10.a. Kattalar tomonidan taklif qilingan ssenariylar asosida teatr spektakllarida tanish ertak qahramonlarining rollarini qisqa sahna ko'rinishlarida va rolli o'yinlarda ijro etish	5.1.10.d. Tanish teatr spektakllarida yoki o'z tasavvuridagi qahramonlarning rollarini ijro etish (“Ertak/hikoyani davom ettiring...”, “Ertak qahramoniga muammoni hal qilishda yordam bering”)	5.1.10.e. Yangi ssenariylar yaratish, o'z g'oyalari va istaklariga muvofiq turli xil teatr va sahnalashtirish tadbirlarida ishtirok etish (yangi qahramonlar va syujetlar, milliy musiqiy/sahna teatri, raqs guruhlari)

5. Soha: Ijodiy rivojlanish				
Talablar	3-4 yosh (a)	4-5 yosh (b)	5-6 yosh (d)	6-7 yosh (e)
	<i>Bola bajara oladi</i>	<i>Bola bajara oladi</i>	<i>Bola bajara oladi</i>	<i>Bola bajara oladi</i>
2. Kichik soha: Badiiy va ijodiy qobiliyatlari				
Bola atrofidagi buyum va voqealarni badiiy hamda ijodiy o'zgartirish va modellash tirish ko'nikmalarini namoyon etadi	5.2.1.a. O'yinlarda o'rnini bosuvchi buyumlardan foydalanish: cho'plar – qoshiq, quticha – uy, kubiklar – g'ishtlar, likopcha va qoshiqni barabanga aylantirish	5.2.1.b. O'yin va ijodiy mashg'ulotlarda turli xil o'rnini bosuvchi buyumlar va materiallardan foydalanish bo'yicha g'oyalarni taklif qilish (qalam mikrofon sifatida, stulni avtobus sifatida, qutini televizor sifatida)	5.2.1.d. O'yin va ijodiy mashg'ulotlarda turli xil o'rnini bosuvchi buyumlarni modellash tirish bo'yicha g'oyalarni taklif qilish	5.2.1.e. O'quv qurollari/materiallarni (yelim, bo'yoq, qog'oz, shu jumladan nostandart buyumlar) mustaqil ravishda tanlab, buyumlarni o'z loyahasiga muvofiq modellash tirish va o'zgartirish
	5.2.2.a. Tabiiy materiallar (qarag'ay qubbasi, yong'oqlar, mayda toshlar) bilan bo'lgan o'yinlarga qiziqish bildirish	5.2.2.b. Kattalar tomonidan tayyorlangan turli tabiiy materiallar va boshqa buyumlardan namuna asosida oddiy qo'l ishlanmalarini yaratish	5.2.2.d. O'zi mustaqil ravishda to'plagan turli xil materiallar (qog'oz, mato, plastilin, loy), shu jumladan, tabiiy materiallarni birlashtirib oddiy ijodiy kompozitsiyalar yaratish	5.2.2.e. O'zining ijodiy qarashlariga ko'ra, yakka tartibda yoki loyiha asosidagi faoliyat orqali tabiiy materiallardan (barglar, daraxt mevalari, shoxlar, qarag'ay qubbalari, toshlar, loy, xamir, qum) badiiy kompozitsiyalar modellash tirish
	5.2.3.a. Ikkilamchi materiallardan oddiy o'yin buyumlarini yaratish (kartondan qutilardan uycha, don solingan plastik butilkalardan shiqildoq yasash)	5.2.3.b. Ikkilamchi foydalanish materiallaridan oddiy qo'l ishlanmalarini yaratish (qog'oz rulonlardan raketa, plastik qopqoqlardan o'yin chiplari yasash)	5.2.3.d. Ikkilamchi materiallardan funksional qo'l ishlanmalarini yaratish, ularni qayta ishlashning ekologik ahamiyatini tushunish (yogurt idishlaridan o'simlik ekish uchun tuvaklar, qutilardan soya teatri yaratish)	5.2.3.e. Ikkilamchi foydalanish materiallaridan estetik jihatdan jozibador ijodiy buyumlarni modellash tirish, ularni qayta ishlashning atrof-olamni muhofaza qilishdagi ekologik ahamiyatini anglash (eski jurnallar va qog'ozlardan qo'lda yasalgan kitobchalar, bloknotlar, pazllar, plastik butilkalardan qushlar uchun oziqlantirgichlar yaratish)

MAVZULI LUG‘AT (Glossariy)

MTTda farovonlik – bolalarning jismoniy va ruhiy salomatligi hamda rivojlanishida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. U ta’lim olishga ijobiy munosabatni, ta’lim-tarbiya, o’yin jarayonlaridan mamnunlikni, o’z-o’zini yuqori baholashni, xavotirning yo’qligini, yaxshi jismoniy salomatlikni hamda uyg’un ijtimoiy munosabatlarni o’z ichiga oladi. Farovonlik va ta’lim-tarbiya o’zaro bog‘liq bo‘lib, ular bir-birini mustahkamlab boradi.

Hujjatlashtirish – o’yinga asoslangan ta’lim-tarbiya jarayoni sifatini ko’rsatib beradi, jarayon haqida ma’lumot beradi, shuningdek, yangi bilim va tadqiqotlarni yaratadi. U oilalar uchun muloqot vositasi bo‘lib xizmat qiladi va bolalarning ta’lim jarayonlaridagi ishtiroki, tajribasi, munosabatlari va kashfiyotlari haqida shaffoflikni ta’minlaydi. Shuningdek, hujjatlashtirish (qayd etish) bolaning o’yinga asoslangan ta’lim jarayonidagi ishtiroki va tajribasini xotira sifatida saqlab qolishga yordam beradi, shuningdek, ko‘pincha ko‘zga ko‘rinmaydigan, ammo bolalar rivojlanishining muhim bo‘lgan jihatlari qayd etadi.

Maktabgacha ta’lim va tarbiya – “maktabgacha ta’lim va tarbiya – bolalarga ta’lim va tarbiya berishga, ularni intellektual, ma’naviy-axloqiy, etik, estetik va jismoniy jihatdan rivojlantirishga, shuningdek bolalarni umumiy o’rta ta’limga tayyorlashga qaratilgan uzluksiz ta’lim turi”⁵. “Maktabgacha ta’lim va tarbiya olti yoshdan yetti yoshgacha bo‘lgan bolalarni boshlang‘ich ta’limga bir yillik majburiy tayyorlashni ham nazarda tutadi”⁶.

Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar inklyuziyasi – ushbu ta’lim shakli qo‘shimcha qo‘llab-quvvatlash va moslashtirilgan ta’lim berish usullariga muhtoj bo‘lgan shaxslar uchun ta’lim jarayonini yengillashtirishga qaratilgan. Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar uchun mo‘ljallangan dasturlar asosiy ta’lim dasturiga asoslanishi mumkin, ammo ular bolaning individual ehtiyojlariga muvofiq moslashtiriladi hamda ko‘pincha maxsus resurslar va moslashtirilgan ta’lim mazmuni bilan ta’minlanadi.

Integratsiyalashgan (sohalararo) yondashuv – maktabgacha ta’limda ushbu yondashuv matematika, til, san’at, tabiiy fanlar va ijtimoiy ko‘nikmalar kabi bola rivojlanishining turli sohalariga oid bilim va ko‘nikmalarni o‘zaro bog‘laydi hamda ularni yaxlit va mazmunan uzviy ta’lim jarayoniga integratsiya qiladi.

Maktabgacha yoshdagi bolaning kompetensiyasi – bu bilim, ko‘nikma va malakalar majmui, shuningdek, ularni turli vaziyatlarda qo‘llash tajribasi va tayyorgarligi bo‘lib, bolaga atrof-olam bilan o‘zaro muvaffaqiyatli munosabat o‘rnatish imkonini beradi.

Maktabgacha yoshdagi boladagi metakognitiv jarayon – bu bolaning o‘z fikrlari, bilimi va ko‘nikmalarini anglashga doir dastlabki shakllaridir. Bu jarayon o‘z harakatlarini rejalashtirish va nazorat qilish qobiliyatini ham o‘z ichiga oladi. Bolalar o‘zlari nimalarni bilishi va nimalarni bilmasligini anglay boshlaydi, oddiy eslab qolish strategiyalaridan (masalan, nimaningdir ovozi chiqarib takrorlash) foydalanadi, o‘z harakatlarining natijalarini tahlil qilish va oldindan bashorat qilishni o‘rganadi, o‘tgan tajribasidan kelib chiqib o‘z xulq-atvorini tuzatadi (masalan, “O‘tgan safar noto‘g‘ri qildim, endi boshqacharoq qilishim kerak.”).

Bolaning rivojlanish sohalar – bolaning rivojlanishi beshta sohani o‘z ichiga oladi: jismoniy rivojlanish va sog‘lom turmush tarzi, ijtimoiy-hissiy rivojlanish, nutq, muloqot, o‘qish va yozish ko‘nikmalari, bilish jarayonlarining rivojlanishi hamda ijodiy rivojlanish. Ushbu sohalar o‘zaro bog‘liq bo‘lib, ularga kompleks yondashuv talab etiladi.

Ta’lim olish – maktabgacha ta’lim olish bolalarning erta rivojlanishida hal qiluvchi ahamiyatga ega. U o’yin va interaktiv faoliyatga asoslangan bo‘lib, bolalarga bilim olish, tafakkurni rivojlantirish, muammolarni hal qilish hamda ijtimoiy munosabatlar ko‘nikmalarini

⁵ O‘zbekiston Respublikasining “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida” Qonuni // 2019-yil 16-dekabr O‘RQ-595-son 3-modda // www.lex.uz

⁶ O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida” Qonuni // 2020-yil 23-sentabr O‘RQ-637-son 8-modda // www.lex.uz

shakllantirishda yordam beradi. Ta'lim berish metodlari bolalarning yosh xususiyatlari, qiziqishlari va individual ehtiyojlariga moslashtiriladi.

Ta'limiy tajriba – maktabgacha yoshdagi bolaning ta'limiy tajribasi ta'lim jarayoni, o'yinlar, atrof-olam, kattalar va tengdoshlari bilan o'zaro muloqot orqali egallaydigan bilimlar, ko'nikmalar, malakalar va taassurotlar majmuasidir.

Tanishuv – bu har o'quv yilining boshidagi (avgust-sentabr) davr bo'lib, unda bolalar MTTga ilk bor qabul qilinganida ta'lim muhiti, pedagoglar, kun tartibi, guruh qoidalari va tengdoshlari bilan tanishadilar. Ushbu davrda ota-onalarga farzandlarining moslashuvini yengillashtirish maqsadida tashkilotda qisman qolishga ruxsat beriladi.

Asosiy matematik tushunchalar – hisoblash ko'nikmalari oddiy son tushunchalarini anglash va ularni amalda qo'llashni o'z ichiga oladi. Bazaviy hisoblash ko'nikmalari qo'shish, ayirish va tenglik kabi asosiy matematik amallarni tushunishni qamrab oladi hamda matematik savodxonlikning asosini tashkil etadi.

Baholash va kuzatuv – baholash bolaning o'yinga asoslangan ta'lim jarayonidagi rivojlanishi va ehtiyojlarini tushunish maqsadida kuzatish orqali to'plangan ma'lumotlarni tahlil qilish jarayonidir. Maktabgacha ta'limda baholash raqobatga emas, balki qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan bo'lib, bolaning individual rivojlanishini aks ettirishga xizmat qiladi. Kuzatuv esa pedagoglarga bolalarning ta'lim-tarbiya jarayonini tushunish, hujjatlashtirish va talqin etishda zarur vosita hisoblanadi. U ta'limiy strategiyalarni takomillashtirish hamda hamkorlikdagi ta'lim imkoniyatlarini yaratishga yordam beradi.

Maktabgacha ta'limda "patternlar" (naqshlar) – pattern (inglizcha pattern) pedagogikada ma'lum bir qonuniyatga asoslangan takrorlanuvchi elementlar ketma-ketligi modeli bo'lib, u mantiqiy fikrlashni va diqqatni rivojlantirish, shuningdek, keyingi bosqichlarda qonuniyatlarni o'zlashtirishga tayyorlash uchun qo'llaniladi. Maktabgacha matematika ta'limida pattern takrorlanuvchi ketma-ketlikdagi qonuniyatni anglatadi. U sonlarda (masalan, 1, 3, 5, 7, ...), shakllarda (masalan, doira – kvadrat – doira – kvadrat), ranglarda (masalan, qizil – ko'k – qizil – ko'k), harakatlarda (masalan, chapak – oyoq bilan urish – chapak – oyoq bilan urish) yoki aralash variantlarda (masalan, qizil uchburchak – yashil kvadrat – qizil uchburchak) ifodalanishi mumkin.

Namunaviy o'quv dasturi – maktabgacha ta'limning namunaviy o'quv dasturi MTTda ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishga doir umumiy maqsadlar, vazifalar va yondashuvlarni belgilab beruvchi asosiy hujjatdir. U aniq o'quv dasturlari va rejalarini ishlab chiqishda yo'nalish beruvchi hujjat vazifasini o'taydi hamda rivojlanish va ta'lim talablarining yaxlitligini, uzviyligini, qulayligini, moslashuvchanligini, bola rivojlanishiga yo'naltirilgan yondashuvni hamda integratsiyani ta'minlaydi.

Vaqtning taqsimlash – muayyan faoliyat turi uchun rasmiy ravishda ajratilgan ta'lim vaqti ta'lim jarayonida amalda sarflangan vaqtdan farq qiladi.

Ijtimoiy-hissiy ta'lim (IHT) – IHT his-tuyg'ularni hamda atrof-dagi odamlar bilan munosabatlarni anglash va boshqarishni qamrab oladigan ta'limiy jarayondir. U his-tuyg'ularni tanish, ijobiy munosabatlarni saqlash va empatiyani rivojlantirishni o'z ichiga oladi. IHT o'zini anglash, o'zini boshqarish, ijtimoiy xabardorlik, muloqot ko'nikmalari hamda mas'uliyatli qaror qabul qilish kabi muhim jihatlarni qamrab oladi.

Soft skills (yumshoq ko'nikmalar) – bu muloqot qilish, emotsional intellekt, jamoada ishlash, moslashuvchanlik, vaqtning boshqarish va nizolarni hal etish bilan bog'liq universal ko'nikmalardir. Hard skills (qattiq ko'nikmalar)dan farqli ravishda, soft skills muayyan kasbga bog'liq bo'lmagan hamda turli hayotiy va ish vaziyatlarida qo'llaniladigan ko'nikmalardir. Maktabgacha ta'limda soft skillsni rivojlantirish bolaning umumiy rivojlanishi va ijtimoiylashuviga xizmat qiladi.

Tizimli o'yin – bu aniq belgilangan qoidalar, maqsadlar, rollar va harakatlar ketma-ketligiga asoslangan o'yin bo'lib, bolada muayyan ko'nikmalar, qobiliyatlar yoki ijtimoiy kompetensiyalarning maqsadli rivojlanishini ta'minlaydi.

Tizimli bo'lmagan o'yin – bu bola aniq tashqi ko'rsatmalarsiz maqsadlar, harakatlar, qoidalar va rollarni mustaqil tanlaydigan erkin, o'z-o'zidan yuzaga keladigan o'yindir.

Ertalabki va kechki doira (yig'in) – ertalabki yig'in odatda kunning boshida o'tkaziladigan guruh uchrashuvi bo'lib, unda bolalar maktabgacha ta'lim jarayonidagi faoliyatlar, o'tilgan mavzular, shaxsiy va guruh tajribalari hamda o'z qiziqishlari bilan o'rtoqlashadilar, kun tartibini muhokama qiladilar va guruh qoidalarini belgilaydilar. Bu vaqt kunlik faoliyatni birgalikda rejalashtirish va tahlil qilish uchun ham ajratiladi. Kechki yig'in esa kun yakunida o'tkazilib, unda bolalar kun davomida bajarilgan faoliyatlarni tahlil qiladilar, o'z taassurotlari va his-tuyg'ularini baham ko'radilar hamda keyingi faoliyatlar uchun xulosalar chiqaradilar.

Kechki davra/refleksiya – kun yakunida o'tkaziladigan guruh uchrashuvi bo'lib, unda bolalar kun davomida sodir bo'lgan voqealarni esga oladilar, nimalarni o'rganganliklarini muhokama qiladilar hamda keyingi kun uchun rejalar tuzadilar.

Qadriyatlar – bu shaxslar va guruhlar tomonidan birgalikda e'tirof etiladigan, munosabatlar, tanlovlar va xulq-atvorni yo'naltiradigan hamda rag'batlantiradigan, ijtimoiy hayot uchun umumiy mezon bo'lib xizmat qiladigan, madaniy jihatdan shakllangan tamoyillar va asosiy e'tiqodlardir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida" Qonuni // 2019-yil 16-dekabr O'RQ-595-son // www.lex.uz
2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida" Qonuni // 2020-yil 23-sentabr O'RQ-637-son // www.lex.uz
3. Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiya // BMT Bosh Assambleyasining 1989-yil 20-noyabrdagi 44/25-sonli Rezolyutsiyasi bilan qabul qilingan; O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1992-yil 9-dekabrdagi 757–XII-sonli qarori bilan qo'shilgan
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Maktabgacha ta'lim sifati va samaradorligini yanada oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2024-yil 30-sentabrdagi PF-152-son Farmoni // www.lex.uz
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Maktabgacha ta'lim va tarbiya tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2026-yil 5-fevraldagi PF-19-son Farmoni // www.lex.uz
6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Davlat ta'lim standartlari va davlat ta'lim talablarini ishlab chiqish hamda joriy etish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2024-yil 27-martdagi 157-son qarori // www.lex.uz
7. YUNESKO statistika instituti. – Kanada: 2013. – 79 s.
https://uis.unesco.org/sites/default/files/documents/international-standard-classification-of-education-isced-2011-ru_0.pdf
8. Assessment in Early Childhood Education, UNESCO, 2020
9. Early Childhood Development, UNICEF, Vision for Every Child (2023)
10. Early Childhood Development Index, ECDI 2030 (2023), UNICEF
11. Early Childhood Education and Family Involvement, UNESCO, Policy Brief, 2018
12. IBE-UNESCO, Competency-based Curriculum Framework, 2017
13. Education 2030: Incheon Declaration and Framework for Action, 2015
14. 21st-century skills, UNESCO, Position Paper on Early Childhood Care and Education, 2020
15. Vygotsky L.S. (1978). Mind in society: The development of higher psychological processes. (M. Cole, V. Jolm-Steiner, S. Scribner, & E. Souberman. (Eds.) Cambridge, MA: Harvard University Press.

Internet WEB sayt materiallari

16. <https://www.unicef.org/parenting/>
17. <https://www.moe.gov.sg/education-in-sg/21st-century-competencies>
18. https://www.adek.gov.ae/-/media/Project/TAMM/ADEK/Policies/School-Policies/Governance-and-Operations/ADEK_S_Values-and-Ethics-Policy_EN.pdf
19. <https://www.cambridgeinternational.org/Images/635230-2024-2026-syllabus.pdf>

ILOVALAR

1-ilova Maktabgacha ta'lim tashkiloti ishchi o'quv dasturini yaratish bo'yicha tavsiyalar

Ishchi o'quv dasturi (keyingi o'rinlarda – dastur) – maktabgacha ta'lim tashkilotlarida Milliy o'quv dasturiga asoslangan holda muayyan yosh guruhi uchun ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish va amalga oshirishga xizmat qiluvchi me'yoriy-metodik hujjat bo'lib, u maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishi va ta'lim olishiga qo'yiladigan talablarga muvofiq kutilayotgan natijalarga erishishni ta'minlashi lozim.

Dastur – pedagoglar tomonidan maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishi va ta'lim olishiga qo'yiladigan talablarga muvofiq ravishda muayyan yosh guruhidagi bolalar uchun ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishning eng maqbul va samarali shakllari, metodlari hamda usullarini belgilash va ularni amaliyotda qo'llashga xizmat qiluvchi muhim vositadir.

Dastur majburiy qism hamda ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilari tomonidan shakllantiriladigan ixtiyoriy (moslashuvchan) qismdan iborat.

Har ikki qism bolalar rivojlanishi va ta'lim olishiga qo'yiladigan talablarni amalga oshirish nuqtayi nazaridan o'zaro bir-birini to'ldiruvchi muhim tarkibiy qismlar hisoblanadi.

Dasturning majburiy qismi – bolalarning har tomonlama rivojlanishini ta'minlash maqsadida quyidagi beshta asosiy rivojlanish sohasini: jismoniy rivojlanish va sog'lom turmush tarzi, nutq, muloqot, o'qish va yozish ko'nikmalari, bilish jarayonlarining rivojlanishi, ijtimoiy-hissiy rivojlanish hamda ijodiy rivojlanishni qamrab oluvchi kompleks yondashuvni nazarda tutadi.

Dastur pedagog tomonidan bolalarning aniq sharoitlari, ta'limga bo'lgan ehtiyojlari va rivojlanish xususiyatlarini inobatga olgan holda, maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishi va ta'lim olishiga qo'yiladigan talablarga asoslangan individual pedagogik ta'lim modelini qanday shakllantirishni aks ettirishi lozim.

Dastur uchta asosiy bo'limni qamrab oladi:

1. Maqsadli – tushuntirish xati hamda Dastur o'zlashtirilishi natijasida erishilishi rejalashtirilayotgan natijalarni o'z ichiga oluvchi bo'lim.

2. Mazmunli – dastur mazmunini ifodalovchi hamda bolalar shaxsining har tomonlama rivojlanishini ta'minlovchi bo'lim.

3. Tashkiliy – dasturning moddiy-texnik ta'minoti tavsifini, ta'lim-tarbiya jarayonining metodik materiallar va vositalar bilan ta'minlanganligini, kun tartibini, shuningdek, tadbirlar, bayramlar va rivojlantiruvchi muhitni o'z ichiga oluvchi bo'lim.

Dastur maktabgacha ta'lim tashkilotining pedagogik kengashida muhokama qilinadi va direktorning buyrug'i bilan tasdiqlanadi.

ISHCHI O'QUV DASTURINING NAMUNAVIY TUZILMAVIY ELEMENTLARI:

1.	Titul varag'i	dastur qachon va kim tomonidan tasdiqlangani, shuningdek, kimlar bilan kelishilgani to'g'risidagi ma'lumot; dastur nomi (to'liq nomi ko'rsatilgan holda) hamda maktabgacha ta'lim tashkilotining turi; mualliflarning familiyasi, ismi, otasining ismi hamda lavozimi; hudud, tuman (shahar) nomi, ishlab chiqilgan yili hamda dastur turi (mualliflik, moslashtirilgan yoki variativ); dastur maktabgacha ta'lim tashkilotining muhri bilan tasdiqlanganligi to'g'risidagi ma'lumot.
TAVSIYALAR		
<i>Ishchi o'quv dasturining titul varag'ida quyidagi ma'lumotlarni ko'rsatish tavsiya etiladi:</i> varaqlarning yuqori o'ng burchagida dastur qachon va kim tomonidan tasdiqlangani haqidagi ma'lumot ko'rsatiladi (masalan: "Pedagogik kengash qaroriga asosan, __ sana, oy, yil __ da tasdiqlangan"); maktabgacha ta'lim tashkiloti direktorining muhri bilan tasdiqlanadi; titul varag'ining markaziy qismida, qoida tariqasida, maktabgacha ta'lim tashkilotining to'liq nomi va turi ko'rsatiladi (masalan: "Qoraqalpog'iston Respublikasi To'rtko'l tumani 10-sonli davlat maktabgacha ta'lim tashkilotining Ishchi o'quv dasturi"); maktabgacha ta'lim tashkiloti nomi ostida dastur mualliflari (MTT direktori, direktor o'rinbosari, psixolog, logoped-defektolog va pedagoglar) yoki ijodiy jamoa, shu jumladan, boshqa ta'lim tashkilotlari mutaxassislari (ilmiy rahbar, tuman maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi mutaxassisi) ko'rsatiladi; titul varag'ining pastki qismida maktabgacha ta'lim tashkiloti joylashgan hudud, tuman (shahar) nomi hamda dastur ishlab chiqilgan sana ko'rsatiladi; titul varag'ida boshqa ma'lumotlar ham bo'lishi mumkin. Masalan, dastur hududiy maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi tomonidan kelishilgan bo'lsa, bu haqdagi ma'lumotlar titul varag'ining yuqori chap qismiga joylashtiriladi.		
Pedagogik kengash tomonidan qabul qilindi: Bayon №__sana: " __ " _____ 20__-yil TASDIQLAYMAN № _____ MTT direktori <i>tashkilot raqami yoki nomi</i> _____ <i>F.I.Sh</i> " __ " _____ 20 __-yil _____ -sonli maktabgacha ta'lim tashkiloti ISHCHI O'QUV DASTURI Tuzuvchi: F.I.SH _____ Malaka toifasi _____ Pedagogik staji _____ Lavozimi _____ 20 __ -yil.		

2.	Mundarija	Sahifalari ko'rsatilgan holda Dasturning barcha qismlari, jumladan, paragraflar, bo'limlar nomlari, adabiyotlar ro'yxati, ilovalar hamda matnda mavjud bo'lgan barcha sarlavhalarni o'z ichiga oladi. Ularning nomlari ish mazmuniga to'liq mos kelishi, qisqa, aniq va izchil bo'lishi hamda hujjatning ichki mantiqiy tuzilishini aniq ifodalashi lozim
3.	Maqsadli bo'lim	
TAVSIYALAR		
Maqsadli bo'lim "Umumiy qoidalar"ni o'z ichiga oladi, unda tushuntirish xati, MTT faoliyatidagi muammolar tahlili, shuningdek, maktabgacha ta'lim tashkiloti to'g'risidagi umumiy ma'lumotlar, uning faoliyat yo'nalishi hamda pedagoglarning oldingi davrdagi (odatda so'nggi 3 yildagi) faoliyatining asosiy natijalari tavsifi keltiriladi.		
3.1.	Tushuntirish xati	Maktabgacha ta'lim tashkiloti guruhleri faoliyatining yo'nalishi; dasturni ishlab chiqishning asosiy konseptual yondashuvlari tavsifi; dasturni ishlab chiqishga asos bo'lgan normativ-huquqiy hujjatlar ro'yxati; ta'limning amalga oshirilishi zarur bo'lgan maqsadlari va qadriyatlari; dasturning kimlarga qaratilganligi; dasturni amalga oshirish muddati.
3.2.	Taklif etilayotgan dasturning dolzarbligi	Dastur yaratish (tanlash) zarurligini asoslash. Maktabgacha ta'lim tashkilotida ta'lim dasturining muayyan turini ishlab chiqish yoki tanlash quyidagi omillar bilan asoslanadi: maktabgacha ta'lim tashkilotidagi bolalar kontingentining rivojlanish darajasi va ehtiyojlari; ota-onalar, mahalla hamjamiyati va jamoatchilik tomonidan bildirilgan ijtimoiy buyurtma; hududning madaniy-ma'rifiy xususiyatlari hamda an'anaviy qadriyatlari; MTT mutaxassislarining kasbiy salohiyati va malaka darajasi, bu esa pedagoglar tomonidan ishlab chiqilgan mualliflik metodik ta'minoti asosida ta'lim mazmunini kengaytirish imkonini beradi. Ushbu omillar dasturning mazmunini moslashtirish hamda MTT sharoitlaridan kelib chiqib innovatsion, amaliy va lokal ehtiyojlarga mos ta'lim modelini yaratishga xizmat qiladi.
3.3.	*Dasturning maqsadi, **qadriyatlari va vazifalari	Masalan: bolalar bilan olib boriladigan pedagogik ishlarni insonparvarlik (gumanistik) tamoyillari asosida tashkil etish; kattalar va bolalar o'rtasidagi munosabatlarda insonparvarlikka asoslangan yondashuvni ta'minlash; o'yinni bolalar hayotini tashkil etishning asosiy shakli sifatida qo'llash; bolalarning kognitiv-nutqiy, ijtimoiy-shaxsiy rivojlanishi, shuningdek, ularning ijodiy va badiiy qobiliyatlarini namoyon

		etish va rivojlantirish uchun turli sharoitlar yaratish; bolaning hayoti va rivojlanish sharoitlarini maqsadga muvofiq tashkil etish; “oila – MTT – maktab” o‘rtasidagi uzviylikni ta’minlash.
3.4.	Muammolarni tahlil qilishga yo‘naltirilgan faoliyat	Ta’limga bo‘lgan ijtimoiy buyurtmaning tavsifi; pedagogik jamoaning asosiy yutuqlari va muammolari tahlili, jumladan, bolalarni sog‘lomlashtirish, ta’lim berish, tarbiyalash va rivojlantirishning individual natijalarini baholash.
4.	Mazmunli bo‘lim	Bola rivojlanishining asosiy yo‘nalishlariga, ta’lim-tarbiya jarayonining mazmuni va natijalariga, hududiy (mintaqaviy) komponentga hamda uni amalga oshirish uchun ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etish shakllariga muvofiq ta’lim-tarbiya jarayonining tavsifini o‘z ichiga oladi
4.1.	Dasturiy-uslubiy majmua	Joriy etilayotgan ta’lim dasturlari (asosiy va qo‘shimcha dasturlar); ta’lim jarayonida qo‘llaniladigan pedagogik (ta’limiy) texnologiyalar.
TAVSIYALAR		
<i>“Dastur-uslubiy majmua” bo‘limida maktabgacha ta’lim tashkiloti pedagoglari tomonidan joriy etilishi rejalashtirilgan ta’lim texnologiyalari ko‘rsatilishi lozim. Odatda, texnologiyalar bolani rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari (sohalari) bo‘yicha tartiblanadi hamda barcha bolalar bilan ishlash jarayonida qo‘llaniladigan usullar sanab o‘tiladi:</i> <i>Masalan:</i>		
T/r	Rivojlanish sohalari	Ta’lim texnologiyalari (misollar)
1.	Jismoniy rivojlanish va sog‘lom turmush tarzi	Raqs va ritmik gimnastika – o‘yinli gimnastika hamda raqs-o‘yin shaklidagi harakatlar. Noan’anaviy mashqlar turlari – barmoq gimnastikasi, musiqiy-harakatli o‘yinlar, gimnastik o‘yinlar, sayohat-sarguzasht ko‘rinishidagi o‘yinlar va boshqalar.
2.	Ijtimoiy-hissiy rivojlanish	Musiqiy terapiya, ritmik improvizatsiyalar, art-terapiya (san’at terapiyasi), ertakterapiya va boshqa shu kabi usullar.
3.	Nutq, muloqot, o‘qish va yozish ko‘nikmalari	O‘yinli almashtirish usuli, tasviriy hikoyalar tuzish, qayta hikoya qilish, o‘yinli mashqlar, ertak tuzish, metaforalar yaratish, rasm asosida ijodiy hikoya tuzish, mnemonik usullar (mnemotexnika) va shu kabi faoliyat turlari.
4.	Bilish jarayonlarining rivojlanishi	Loyiha usuli, tadqiqotga asoslangan ijodiy loyihalar, rolli o‘yinli loyihalar va boshqa shu kabi metodlar.
5.	Ijodiy rivojlanish	Noan’anaviy rasm chizish, yasash (loy ishi), yopishtirish (applikatsiya) texnikalari. Ixtiro va masalalarni yechish nazariyasi (IMYN) va boshqa shu kabi ijodiy metodlar.
Shuni inobatga olish lozimki, ma’lum yo‘nalishda ustuvor faoliyat olib boradigan maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ushbu yo‘nalish profili tegishli qisqa (parsial) dasturlar va texnologiyalar bilan asoslanishi zarur. Masalan, ekologik yo‘nalishdagi MTTlarda san’at va ijodiy faoliyatga nisbatan ekologik mazmunga ega bo‘lgan dasturlar va texnologiyalar ustuvorlik qiladi.		

Bola rivojlanishining asosiy sohalariga muvofiq ta'lim va tarbiya jarayonining tavsifi:
jismaniy rivojlanish va sog'lom turmush tarzi;
ijtimoiy va hissiy rivojlanish;
nutq, muloqot, o'qish va yozish ko'nikmalari;
bilish jarayonlarining rivojlanishi;
ijodiy rivojlanish.

Shuningdek, dasturda o'yinga asoslangan ta'lim va tarbiya jarayonini amalga oshirishda qo'llaniladigan o'zgaruvchan shakllar, usullar, metodlar va vositalarning tavsifi ham keltirilishi lozim. Bunda bolalarning yoshi va individual-psixologik xususiyatlari, ta'limga bo'lgan ehtiyojlari, motivatsiyasi hamda qiziqishlari inobatga olinadi.

Dastur doirasida alohida ta'lim olish ehtiyojlari bo'lgan bolalar bilan olib boriladigan korreksion-rivojlantiruvchi ishlarning moslashtirilgan dasturi ham taqdim etilishi mumkin. Ushbu bo'lim bolalarda rivojlanishdagi buzilishlarni bartaraf etish va korreksiya qilish bo'yicha mutaxassislar ishtirokida olib boriladigan ta'limiy faoliyat mazmunini o'z ichiga oladi.

Dastur bolalarning yosh va individual xususiyatlarini inobatga olgan holda rivojlanish sohalarining taxminiy mazmunini turli faoliyat turlarida belgilaydi. Jumladan:

- o'yin faoliyati: syujetli-rolli o'yinlar, qoidali o'yinlar va boshqa o'yin turlari;
- kommunikativ faoliyat: bolalar va kattalar bilan muloqot va o'zaro ta'sir;
- bilish-tadqiqot faoliyati: tabiat va ijtimoiy muhitni kuzatish hamda ular bilan bevosita o'zaro ta'sir orqali o'rganish jarayoni.

Shu bilan birga, bolalarning quyidagi faoliyat shakllari ham jalb etiladi:

- badiiy adabiyot va xalq og'zaki ijodi asarlarini qabul qilish va idrok etish;
- o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish va oddiy mehnat faoliyati (binoda va ochiq havoda);
- turli materiallardan, jumladan konstruktordan, modullardan, qog'ozdan, tabiiy va boshqa materiallardan foydalangan holda konstruktiv faoliyat;
- tasviriy san'at faoliyati (rasm chizish, loydan buyum yasash, yopishtirish);
- musiqa faoliyati (musiqa asarlarini tinglash va mazmunini anglash, qo'shiq aytish, musiqiy-ritmik harakatlar, bolalar musiqa asboblarida ijro etish);
- harakatli faoliyat (asosiy harakat ko'nikmalarini egallash).

Maktabgacha ta'lim tashkilotining faoliyat yo'nalishidan kelib chiqib, quyidagilar ham Dastur tarkibiga kiritilishi mumkin:

- bolalarning individual rivojlanish xususiyatlarini inobatga olgan holda ishlab chiqilgan variativ ta'lim yo'nalishlari (MTTda bo'lishning muqobil kun tartiblari, jismoniy faollik tartiblari, o'quv jarayonining moslashtirilgan shakllari);

- bolalarning individual rivojlanishiga ko'maklashish maqsadida mutaxassislar o'rtasidagi hamkorlik va muvofiqlashtirish mexanizmlari;

- agar maktabgacha ta'lim tashkiloti sog'lomlashtirish yo'nalishiga ega bo'lsa, sog'lomlashtirish ishlarining tizimi, profilaktik tadbirlar dasturi hamda ularning sog'liq holati va tashxisiga qarab differensial yondashuv asosida tashkil etilishi;

- guruhlarda amalga oshiriladigan ta'limiy, sog'lomlashtirish, korreksion-rivojlantiruvchi va natijalarni diagnostika qilish faoliyatlarida MTT mutaxassislarining o'zaro hamkorligi to'g'risida ma'lumot.

Shuni ta'kidlash lozimki, muayyan ixtisoslashgan yoki kombinatsiyalashgan maktabgacha ta'lim tashkilotlari, ya'ni faoliyatining ma'lum profili mavjud bo'lgan va ta'lim jarayonini individuallashtirishni ta'minlaydigan MTTlar uchun ushbu bo'limda quyidagilar ham ko'rsatilishi tavsiya etiladi:

- bolalar uchun ishlab chiqilgan individual ta'lim yo'nalishlari (o'quv, sog'lomlashtirish va korreksion-rivojlantiruvchi yo'nalishlar);

- bolalar bilan ishlashda qo'llaniladigan individuallashtirish vositalari: individual mashg'ulotlar, pedagogik kuzatuv kartalari, individual tashrif rejimlari, MTT mutaxassislari tomonidan ota-onalarga beriladigan individual maslahatlar va boshqalar.

Maktabgacha ta'lim tashkilotida bolalar bilan individual ish, odatda, bolalarning dasturiy bilimlarni o'zlashtirish darajasini aniqlashga qaratilgan diagnostika natijalari asosida tashkil etiladi va bu ishlar kalendar rejalashtirishda aks ettiriladi.		
5.	Tashkiliy bo'lim	Mazkur bo'limda kun tartibi, o'quv yili tuzilmasi, ta'lim va tarbiya jarayoni jadvali (amaldagi me'yoriy hujjatlarga muvofiq), yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda rivojlantiruvchi muhitni tashkil etish, bolalarning yoshi va individual psixologik xususiyatlari, ta'lim ehtiyojlari va qiziqishlarini inobatga olgan holda dasturni amalga oshirish bo'yicha turli shakl, usul va metodlarning qisqacha tavsifi beriladi. Bundan tashqari, ushbu bo'limda turli faoliyat turlari va madaniy-amaliy mashg'ulotlarda psixologik-pedagogik ishning xususiyatlari, shuningdek, bolalarning oilalari bilan o'zaro hamkorlik shakllari va yondashuvlari ham yoritilishi mumkin.
TAVSIYALAR		
5.1.	Bolalar bilan olib boriladigan ta'lim-tarbiya ishlari tizimi	Quyidagi tarkibiy qismlar taqdim etiladi: yosh guruhlari bo'yicha umumiy kun tartibi; ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish shakllari va metodlari; umumiy ta'limiy yuklama (mashg'ulotlar taqsimoti, rivojlantiruvchi markazlardagi faoliyatlar). Tashkil etilayotgan kun tartibi bolalarning guruhdagi kunlik faoliyatini SanQvaN talablariga muvofiq tarzda tashkil etishni ko'zda tutadi. Mazkur bo'limga bolalarning yoshi, guruh xususiyatlari, MTT sharoitlari va SanQvaN talablarini inobatga olgan holda ishlab chiqilgan batafsil kun tartibi ilova qilinadi. Qo'shimcha ravishda quyidagilar ilova qilinishi mumkin: harakat (jismoniy faollik) rejimi; korreksion mashg'ulotlar, to'garaklar va seksiyalar jadvali; bolalarni chiniqtirish (sog'lomlashtirish) sxemasi va boshqalar.
5.2.	Ota-onalar va ijtimoiy hamkorlar bilan hamkorlik shakllari	Ushbu bo'limda ota-onalar hamda ijtimoiy hamkorlar bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish imkonini beruvchi turli shakl va metodlar tavsiflanishi tavsiya etiladi. Jumladan: maktabgacha ta'lim tashkilotining sotsiomadaniy muhitiga tavsif; oilalar bilan hamkorlik shakllari va usullari; pedagoglar tomonidan amalga oshirilayotgan sotsiomadaniy loyihalar. Agar MTT muayyan yo'nalishda faoliyat olib borayotgan bo'lsa, ushbu bo'limda quyidagilar keng yoritilishi mumkin: pedagoglarning asosiy ijtimoiy hamkorlari bilan hamkorlikning batafsil sxemalari; sotsiomadaniy loyihalar, ular bolalarning ijtimoiylashuvi, ijtimoiy aloqalarni rivojlantirish, ta'limda uzviylik va uzluksizlikni ta'minlashga qaratilgan. Ushbu ma'lumotlar bilan kengroq "Oilalar va mahalliy hamjamiyat bilan hamkorlik" nomli metodik qo'llanmada tanishish mumkin. Ota-onalar va ijtimoiy hamkorlar bilan

		ishlash shakllarini jadval ko‘rinishida taqdim etish maqsadga muvofiqdir	
6.	Dastur ijrosini ta‘minlash shart-sharoitlari	Mazkur bo‘limda quyidagilarni taqdim etish tavsiya etiladi: moddiy-texnik ta‘minot holati hamda o‘quv-metodik ta‘minot (jumladan: amaldagi dasturlar, ta‘lim texnologiyalari, o‘quv qo‘llanmalar, ilmiy-uslubiy va o‘quv-uslubiy adabiyotlar, bolalar va ota-onalar uchun mo‘ljallangan adabiyotlar, internet manbalari, ta‘limiy videokontentlar, didaktik materiallar, zaruriy hujjatlar va metodik ko‘rsatmalar).	
TAVSIYALAR			
6.1.	Maktabgacha ta‘lim tashkilotining ta‘lim muhiti tavsifi	Ushbu bo‘lim quyidagi tarkibiy qismlarni o‘z ichiga oladi: rivojlanish muhitining shaxsga yo‘naltirilgan xususiyati (bunday muhitni ta‘minlash shart-sharoitlari); guruh xonasida rivojlanish markazlarini tashkil etish; asosiy jihozlar va vositalar; o‘quv-uslubiy ta‘minot; bolalarni rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlariga mos ravishda tanlangan asosiy didaktik va metodik qo‘llanmalar tavsifi.	
TAVSIYALAR			
Ishchi o‘quv dasturining mazkur bo‘limini to‘ldirishda quyidagilarni ko‘rsatish muhimdir: maktabgacha ta‘lim tashkilotining rivojlantiruvchi muhitiga kiruvchi asosiy komponentlar (masalan: guruh xonasi, suzish havzasi (ochiq va yopiq basseyn), tasviriy san‘at studiyasi, tabiat xonasi va boshqalar); MTT binosida va hududida joylashtirilgan asosiy foydalaniladigan jihozlar. Mazkur ma‘lumotlarni jadval ko‘rinishida taqdim etish tavsiya etiladi.			
T/r	MTT binosi va xonalari jihozlari	MTT yer maydonining jihozlari	
1.	Guruhlarda mavjud bo‘lgan barcha jihozlar ko‘rsatiladi	MTTning o‘yin va sport maydonchalarida mavjud bo‘lgan barcha jihozlar ko‘rsatiladi	
...			
Jihozlar ro‘yxatidan tashqari, ushbu bo‘limning muhim tarkibiy qismlaridan biri foydalanilayotgan metodik va didaktik ta‘minot tavsifi hisoblanadi. Aynan ushbu ta‘minot ta‘lim-tarbiya jarayonining real mazmunini belgilaydi. Mavjud vositalarning to‘liq ro‘yxatini keltirish shart emas. Pedagoglarga bolalarning rivojlanishining asosiy yo‘nalishlariga muvofiq, maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishi va ta‘lim olishiga qo‘yiladigan talablarga asoslangan eng muhim, samarali va dolzarb vositalarni ko‘rsatish tavsiya etiladi. Mazkur ma‘lumotlar jadval ko‘rinishida taqdim etilishi mumkin.			
T/r	Rivojlanish sohalari	Asosiy metodik qo‘llanmalar	Asosiy didaktik ta‘minot
1.	Jismoniy rivojlanish va sog‘lom turmush tarzi	Pedagoglar foydalanadigan uslubiy qo‘llanmalar ko‘rsatiladi	Tarbiyalanuvchilar bilan ishlashda qo‘llaniladigan asosiy didaktik materiallar, o‘yinlar ko‘rsatiladi
2.	Ijtimoiy-hissiy rivojlanish		
3.	Nutq, muloqot, o‘qish va yozish ko‘nikmalari		
4.	Bilish jarayonlarining rivojlanishi		
5.	Ijodiy rivojlanish		

6.2.	Dasturni amalga oshirish shartlari	dasturning qaysi normativ-huquqiy hujjatlarga asoslanishini ko'rsatish; dasturni amalga oshirish maqsadlarining bajarilish sifati; bolalarni sog'lomlashtirish, ta'lim va tarbiya berish, rivojlantirish hamda korrektsiyalashning individual natijalarini monitoring qilish; pedagoglarning kasbiy o'sishi va individual yutuqlari dinamikasi; innovatsion ishlarning (agar mavjud bo'lsa) reja-xaritasi hamda innovatsion loyihalarni amalga oshirishning asosiy natijalari.
7.	Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati	Ishni tayyorlashda foydalanilgan manbalar haqidagi bibliografik ma'lumotlar kiritiladi
TAVSIYALAR		
Ro'yxatda dastur ishlab chiqilishi jarayonida foydalanilgan adabiyotlar ko'rsatiladi. Har bir kitob yoki maqola haqida qisqacha bibliografik yozuv keltiriladi, u quyidagi asosiy ma'lumotlarni o'z ichiga oladi: muallifning familiyasi, ismi va sharifining bosh harflari; asarning nomi (sarlavhasi); nashr joyi, nashriyot nomi, nashr yili; sahifalar soni.		
8.	Dasturdagi ilovalar	Ushbu bo'limda dasturga biriktirilgan ilovalar ko'rsatiladi. Mazkur ilovalar nazariy materialni batafsil tushuntirishga yoki amaliy jihatdan asoslashga xizmat qilishi mumkin.
TAVSIYALAR		
Mazkur bo'limda quyidagi turdagi materiallar ilova sifatida taqdim etilishi mumkin: mashg'ulot ishlanmalari, bayram va ko'ngilochar tadbirlar ssenariylari va boshqalar; pedagoglarning (tarbiyachi, logoped/defektolog, psixolog, musiqa rahbari, jismoniy tarbiya yo'riqchisi va boshqalar) keng qamrovli faoliyatini aks ettiruvchi ishchi dasturlar; o'yinlar va o'yin mashqlari tavsifi; pedagoglar va ota-onalar uchun mo'ljallangan mahorat darslari (master-klass) ssenariylari; bolalarning oilalari bilan hamkorlikning turli shakllariga oid ssenariylar (masalan: maslahatlar, davra suhbatlari, treninglar, amaliy mashg'ulotlar, seminarlar).		

*Ta'lim dasturi orqali amalga oshiriladigan maqsadlar maktabgacha ta'limning asosiy maqsadlarining aniq ifodasidan iborat bo'lib, ular turli shakllarda ifodalanishi mumkin. Biroq dastur qaysi variantda bo'lishidan qat'i nazar, bolalarni ta'lim berish, tarbiyalash, rivojlantirish va sog'lomlashtirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishga yo'naltirilgan bo'ladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotining maqsad va vazifalari uning Nizomi, shuningdek, unda amalga oshirilayotgan dasturlar va ta'lim texnologiyalariga muvofiq belgilanadi.

**Qadriyatlar, odatda, ta'limning umumiy mafkuraviy yo'nalishlariga mos bo'ladi. Ular quyidagilarni o'z ichiga oladi: bolani har tomonlama rivojlantirish, axloqiy ong va xulq-atvorni shakllantirish, sog'lom turmush tarzini targ'ib etish, shaxsning umumiy madaniyatini rivojlantirish va boshqalar.

2-ilova MTT guruhlarining namunaviy kun tartibi

Bolalar 9 soat davomida bo'ladigan guruhning namunaviy kun tartibi

T/r	Kun tartibi	Vaqtning taxminiy taqsimoti	Vaqt (minutda)
1.	Qabul Erkin o'yin faoliyati Ertalabki badantarbiya	7:30-8:20	50
2.	Nonushtaga tayyorgarlik, nonushta	8:20-8:45	25
3.	Ertalabki doira	8:45-9:00	15
4.	O'yinga asoslangan ta'lim-tarbiya jarayoni (katta va kichik quruhlarda)	9:00-9:40	40 Har bir faoliyat va erkin o'yin faoliyati davomiyligi 15-20 daqiqa
5.	Rivojlantirish markazlarida erkin o'yin faoliyati	9:40-10:30	50
6.	Birinchi sayr (kuzatuv, mehnat faoliyati, harakatli o'yinlar, mustaqil va yakka tartibdagi o'yin faoliyatlari)	10:30-11:30	60
7.	Sayrdan qaytish (kiyim almashtirish, gigiyenik jarayonlar, yakka tartibdagi faoliyat (zarurat bo'yicha logoped/defektolog, psixolog, musiqa rahbari, jismoniy tarbiya yo'riqchisi)	11:30-12:00	30
8.	Tushlikka tayyorgarlik, tushlik	12:00-12:30	30
9.	Guruhda erkin o'yin faoliyati	12:30-12:50	20
10.	Uyquga tayyorgarlik, uyqu <i>Uyqu bo'lmagan guruhlar uchun: tinch erkin o'yin faoliyati, yakka tartibdagi faoliyat, badiiy kitoblarni o'qish</i>	12:50-14:50	120
11.	Tetiklashtiruvchi gimnastika, havo va suv muolajalari	14:50-15:00	10
12.	Ikkinchi tushlikka tayyorgarlik, ikkinchi tushlik	15:00-15:20	20
13.	O'yinga asoslangan ta'lim-tarbiya jarayoni	15:20-15:50	30 Har bir faoliyat turining davomiyligi 15 daqiqa
14.	Erkin o'yin faoliyati	15:50-16:10	30
15.	Kechki doira/o'tgan kun refleksiyasi Ikkinchi sayr, erkin o'yin faoliyati Ota-onalar bilan ishlash va uyga ketish	16:10-16:30	20
16.	Ota-onalar so'roviga ko'ra qo'shimcha pullik ta'lim xizmatlar (to'garaklar) va bolalar bilan yakka tartibdagi faoliyat	16:30-17:00	30

Bolalar 10,5 soat davomida bo'ladigan guruhning namunaviy kun tartibi

T/r	Kun tartibi	Vaqtning taxminiy taqsimoti	Vaqt (minutda)
1.	Qabul Erkin o'yin faoliyati Ertalabki badantarbiya	7:30-8:20	50
2.	Nonushtaga tayyorgarlik, nonushta	8:20-8:45	25
3.	Ertalabki doira	8:45-9:00	15
4.	O'yinga asoslangan ta'lim-tarbiya jarayoni (katta va kichik quruhlarda)	9:00-9:40	40 Har bir faoliyati turining davomliligi 15 dan 20 daqiqagacha
5.	Rivojlantirish markazlarida erkin o'yin faoliyati	9:40-10:30	50
6.	Birinchi sayr (kuzatuv, mehnat faoliyati, harakatli o'yinlar, mustaqil va yakka tartibdagi o'yin faoliyatlari)	10:30-11:30	60
7.	Sayrdan qaytish (kiyim almashtirish, gigiyenik muolajalar, yakka tartibdagi faoliyat (zarurat bo'yicha logoped/defektolog, psixolog, musiqa rahbari, jismoniy tarbiya yo'riqchisi)	11:30-12:00	30
8.	Tushlikka tayyorgarlik, tushlik	12:00-12:30	30
9.	Guruhda erkin o'yin faoliyati	12:30-13:00	30
10.	Uyquga tayyorgarlik, uyqu <i>Uyqu bo'lmagan guruhlar uchun: tinch erkin o'yin faoliyati, yakka tartibdagi faoliyat, badiiy kitoblarni o'qish</i>	13:00-15:00	120
11.	Tetiklashtiruvchi gimnastika, havo va suv muolajalari	15:00-15:10	10
12.	Ikkinchi tushlikka tayyorgarlik, ikkinchi tushlik	15:10-15:30	20
13.	O'yinga asoslangan ta'lim-tarbiya jarayoni	15:30-16:10	40 har bir faoliyati turining davomliligi 15 dan 20 minutgacha
14.	Erkin o'yin faoliyati	16:10-16:50	40
15.	Kechki doira/o'tgan kun refleksiyasi	16:50-17:10	20
16.	Ikkinchi sayr, erkin o'yin faoliyati	17:10-17:55	45
17.	Ota-onalar bilan ishlash va uyga ketish	17:30-18:00	30
18.	Ota-onalar so'roviga ko'ra qo'shimcha pullik ta'lim xizmatlar (to'garaklar) va bolalar bilan yakka tartibdagi faoliyat	18:00-18:30	30

Eslatma: pedagog o'yinga asoslangan ta'lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etadi va o'zi kuzatuvchi sifatida ishtirok etadi. Bolalarning MTTda bo'lish vaqtiga qarab hamda O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tashkilotlarining ish mazmuni, joylashuvi va ish tartibini tashkil

etishga qo'yiladigan sanitariya-gigiyena talablariga muvofiq o'zining kunlik ish tartibini ishlab chiqishi mumkin.

Shuni esda tutish kerakki, pedagog ota-onalarni bolaning rivojlanishi to'g'risida muntazam ravishda xabardor qilib borishi tavsiya etiladi.

Ertalabki davra suhbat – kunning boshlanishida bolalarning yangi kundan zavqlanishi, o'z taassurotlari bilan o'rtoqlashishi, yangiliklarni muhokama qilishi (bugun nima qilishlari), birgalikdagi rejalar, muammolar va qoidalarni kelishish uchun o'tkaziladigan yig'ilishdir.

Kechki davra suhbat / o'tgan kun refleksiyasi – bolalar bilan kun davomida eng esda qolarli va qiziqarli voqealarni eslash, amalga oshirilgan ishlarni muhokama qilish va umumlashtirish, shuningdek, ertangi kun faoliyatini rejalashtirish jarayonidir.

Bolalar uchun ochiq havoda sayrning kunlik davomiyligi kamida 3-4 soatni tashkil etadi. Bu faoliyat kuniga 2 marta tashkil etiladi: kunning birinchi yarmida – tushlikdan oldin va kunning ikkinchi yarmida – kunduzgi uyqudan keyin yoki bolalar uyga ketishidan oldin.

Birinchi sayr pedagog tomonidan tashkil etiladi va u asosiy faoliyat turlarini (kuzatish, mehnat faoliyati, harakatli o'yin, mustahkamlash va erkin faoliyat) o'z ichiga oladi hamda hafta mavzusiga mos bo'ladi.

Ikkinchi sayr iqlim sharoitiga qarab (ochiq havoda yoki resurslarga ega rivojlanish markazlarida) bolalarning tanlovi asosida erkin o'yin faoliyati sifatida tashkil etiladi.

Qo'shimcha pullik ta'lim xizmatlari ota-onalarning iltimosiga binoan asosiy ta'lim va tarbiya jarayonidan tashqari vaqtda amalga oshiriladi. Ko'rsatilgan soatlar guruh tarbiyachisining asosiy ta'limiy faoliyatiga kiritilmaydi va uning asosiy yuklamasidan tashqari bajariladi.

Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning muqobil shakllari (4 soat) uchun namunaviy kun tartibi

T/r	Kun tartibi	Vaqtning taxminiy taqsimoti	Vaqt (daqiqada)
1-smena 8:00-12:00 (4 soat)			
1.	Bolalarni qabul qilish, ertalabki ko'rik, ertalabki badantarbiya	8:00-8:40	40
2.	Ertalabki davra suhbat	8:40-9:00	20
3.	Nonushta	9:00-9:20	20
4.	O'yinga asoslangan ta'lim-tarbiya jarayoni	9:20-10:00	40 Har bir faoliyat va erkin o'yin faoliyati 20 daqiqa
5.	Rivojlantirish markazlarida erkin o'yin faoliyati	10:00-10:40	40
6.	Sayr (kuzatish, mehnat faoliyati, harakatli o'yinlar, mustaqil va individual o'yin faoliyatlari)	10:40-11:10	30
7.	Kun refleksiyasi	11:10-11:30	20
8.	Ota-onalar bilan ishlash va bolalarning uyga ketishi	11:30-12:00	30
9.	Pedagoglar uchun tushlik tanaffus va ikkinchi smena mashg'ulotlariga tayyorgarlik	12:00-13:00	60
2-smena 13:00-17:00 (4 soat)			
1.	Bolalarni qabul qilish, ko'rikdan o'tkazish, badantarbiya mashqlari	13:00-13:40	40
2.	Umumiy davra suhbat	13:40-14:00	20
3.	O'yinga asoslangan ta'lim-tarbiya jarayoni	14:00-14:40	40 Har bir faoliyat va erkin o'yin faoliyati 20 daqiqa
4.	Rivojlantirish markazlarida erkin o'yin faoliyati	14:40-15:20	40
5.	Yengil tamaddi	15:20-15:40	20
6.	Sayr (kuzatish, mehnat faoliyati, harakatli o'yinlar, mustaqil va individual faoliyat)	15:40-16:10	30
7.	Kun refleksiyasi	16:10-16:30	20
8.	Ota-onalar bilan ishlash va bolalarning uyga ketishi	16:30-17:00	30

Eslatma: maktabgacha ta'lim va tarbiyaning muqobil shakllariga maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi qisqa muddatli guruhlar, mobil guruhlar, qayerda faoliyat yuritishidan qat'i nazar, 6-7 yoshdagi bolalarni boshlang'ich ta'limga majburiy bir yillik tayyorlash guruhlari kiradi.

3-ilova Namunaviy o'quv reja

3 yoshdan 4 yoshgacha kichik guruhdagi bolalar faoliyati turlarining taxminiy miqdori

T/r	Bolalar faoliyati turi	O‘quv yili mobaynida			Sog‘lomlashtirish davri mobaynida		
		bir hafta ichida	bir oy ichida	o‘quv yili davomida	bir hafta ichida	bir oy ichida	sog‘lomlashtirish davrida
1.	Jismoniy tarbiya	1	4	36	Sport va ko‘ngilochar o‘yinlar – 1	1	3
	Sayrda	1	4	36		4	12
2.	Musiqqa	2	8	72	Ko‘nilochar o‘yinlar	1	3
3.	Tasviriy faoliyat	1	4	36	1	4	12
4.	Konstruksiya tuzish/ applikasiya (navbatma-navbat)	1/1	2/2	18/18	1/1	2/2	6/6
5.	Loydan (plastilin, xamirdan) yasash	1	4	36	1	4	12
6.	Sensor tarbiya	1	4	36	Mantiqiy o‘yinlar	1	3
7.	Elementar matematika	1	4	36	Mantiqiy o‘yinlar	1	3
8.	Tabiatshunoslik va ekologiya asoslari	1	4	36	Tajribalar, o‘yinlar, viktorinalar – 1	4	12
9.	Nutq, o‘qish va yozish malakalarini rivojlantirish	1	4	36	1	4	12
10.	Badiiy adabiyot	1	4	36	O‘yinlar, viktorinalar – 1	4	12
		Kunduzgi uyqu ko‘zda tutilmaganda uyqudan oldin o‘qiladigan badiiy asarlarni sayr paytida o‘qish tavsiya etiladi.					
Hududiy tarkibiy qism		Hududning tabiiy-geografik va madaniy-tarixiy o‘ziga xosligini hisobga olgan holda, o‘quv rejasini 20% gacha MTT komponenti bilan shakllantirish tavsiya etiladi, MTT ixtiyoriga ko‘ra faoliyat turlaridan birini almashtirish ko‘zda tutilgan.					
Jami:		12	48	432	7	32	96

Izoh: “Atrof-muhit va tabiat bilan tanishtirish” bo‘limi o‘rniga “Tabiatshunoslik va ekologiya asoslari” kiritildi. Bu o‘zgarish boshlang‘ich ta‘lim bilan uzviylikni ta‘minlash hamda xalqaro tajribani hisobga olish maqsadida amalga oshirildi. Chunki tabiiy fanlar (tabiatshunoslik) tabiatdagi obyektlar, hodisalar va jarayonlar haqidagi tizimli bilimlar majmuasini ifodalaydi.

4 yoshdan 5 yoshgacha oʻrta guruhdagi bolalar faoliyati turlarining taxminiy miqdori

T/r	Bolalar faoliyati turlari	O‘quv yili mobaynida			Sog‘lomlashtirish davri mobaynida		
		bir hafta ichida	bir oy ichida	o‘quv yili davomida	bir hafta ichida	bir oy ichida	sog‘lomlashtirish davrida
1.	Jismoniy tarbiya	1	4	36	Sport va ko‘ngilochar o‘yinlar – 1	1	3
	Sayrda	1	4	36		4	12
2.	Musiq	2	8	72	Ko‘ngilochar o‘yinlar	1	3
3.	Tasviriy faoliyat	1	4	36	1	4	12
4.	Konstruksiyalar tuzish/ applikatsiya (navbatma-navbat)	1/1	2/2	18/18	1/1	2/2	6/6
5.	Loydan (plastilin, xamirdan) yasash	1	4	36	1	4	12
6.	Elementar matematika	1	4	36	Mantiqiy o‘yinlar	1	3
7.	Tabiatshunoslik va ekologiya asoslari	1	4	36	Tajribalar, o‘yinlar, viktorinalar – 1	4	12
8.	Nutq, o‘qish va yozish malakalarini rivojlantirish	2	8	72	1	4	12
9.	Badiiy adabiyot	2	8	72	O‘yinlar, viktorinalar – 1	4	12
		Kunduzgi uyqu ko‘zda tutilmaganda uyqudan oldin o‘qiladigan badiiy asarlarni sayr paytida o‘qish tavsiya etiladi.					
Hududiy tarkibiy qism		Hududning tabiiy-geografik va madaniy-tarixiy o‘ziga xosligini hisobga olgan holda, o‘quv rejasini 20% gacha MTT komponenti bilan shakllantirish tavsiya etiladi, MTT ixtiyoriga ko‘ra faoliyat turlaridan birini almashtirish ko‘zda tutilgan.					
Jami:		13	52	468	7	31	93

**5 yoshdan 6 yoshgacha katta guruhdagi bolalar faoliyati turlarining
taxminiy miqdori**

T/r	Bolalar faoliyati turlari	O‘quv yili mobaynida			Sog‘lomlashtirish davri mobaynida		
		bir hafta ichida	bir oy ichida	o‘quv yili davomida	bir hafta ichida	bir oy ichida	sog‘lomlashtirish davrida
1.	Jismoniy tarbiya	1	4	36	Sport va ko‘ngilochar o‘yinlar – 1	1	3
	Sayrda	1	4	36		4	12
2.	Musiq	2	8	72	Ko‘nilochar o‘yinlar	1	3
3.	Tasviriy faoliyat	1	4	36	1	4	12
4.	Konstruksiyalar tuzish/ applikasiya (navbatma-navbat)	1/1	2/2	18/18	1/1	2/2	6/6
5.	Loydan (plastilin, xamirdan) yasash	1	4	36	1	4	12
6.	Elementar matematika	2	8	72	Mantiqiy o‘yinlar	1	3
7.	Tabiatshunoslik va ekologiya asoslari	1	4	36	Tajribalar, o‘yinlar, viktorinalar – 1	4	12
8.	Nutq, o‘qish va yozish malakalarini rivojlantirish	2	8	72	1	4	12
9.	Savodxonlikka tayyorlash	1	4	36	1	4	12
10.	Xorijiy til	2	8	72	1	4	12
11.	Badiiy adabiyot	1	4	36	O‘yinlar, viktorinalar – 1	4	12
		Kunduzgi uyqu ko‘zda tutilmaganda uyqudan oldin o‘qiladigan badiiy asarlarni sayr paytida o‘qish tavsiya etiladi.					
Hududiy tarkibiy qism		Hududning tabiiy-geografik va madaniy-tarixiy o‘ziga xosligini hisobga olgan holda, o‘quv rejasini 20% gacha MTT komponenti bilan shakllantirish tavsiya etiladi, MTT ixtiyoriga ko‘ra faoliyat turlaridan birini almashtirish ko‘zda tutilgan.					
Jami:		16	64	576	9	39	117

**6 yoshdan 7 yoshgacha maktabga tayyorlov guruhdagi bolalar faoliyati
turlarining taxminiy miqdori**

T/r	Bolalar faoliyati turlari	O‘quv yili mobaynida			Sog‘lomlashtirish davri mobaynida		
		bir hafta ichida	bir oy ichida	o‘quv yili davomida	bir hafta ichida	bir oy ichida	sog‘lom- lashtirish davrida
1.	Jismoniy tarbiya	1	4	36	Sport va ko‘ngilochar o‘yinlar – 1	1	3
	Sayrda	1	4	36		4	12
2.	Musiqqa	2	8	72	Ko‘nilochar o‘yinlar	2	6
3.	Tasviriy faoliyat	1	4	36	1	4	12
4.	Konstruksiyalar tuzish/ applikasiya (navbatma- navbat)	1/1	2/2	18/18	1/1	2/2	6/6
5.	Loydan (plastilin, xamirdan) yasash	1	4	36	1	4	12
6.	Elementar matematika	2	8	72	Mantiqiy o‘yinlar	1	3
7.	Tabiatshunoslik va ekologiya asoslari	1	4	36	Tajribalar, o‘yinlar, viktorinalar – 1	4	12
8.	Nutq, o‘qish va yozish malakalarini rivojlantirish	2	8	72	2	8	24
9.	Savodxonlikka tayyorlash	2	8	72	1	4	12
10.	Xorijiy til	2	8	72	1	4	12
11.	Badiiy adabiyot	1	4	36	O‘yinlar, viktorinalar – 1	4	12
		Kunduzgi uyqu ko‘zda tutilmaganda uyqudan oldin o‘qiladigan badiiy asarlarni sayr paytida o‘qish tavsiya etiladi.					
Hududiy tarkibiy qism		Hududning tabiiy-geografik va madaniy-tarixiy o‘ziga xosligini hisobga olgan holda, o‘quv rejasini 20% gacha MTT komponenti bilan shakllantirish tavsiya etiladi, MTT ixtiyoriga ko‘ra faoliyat turlaridan birini almashtirish ko‘zda tutilgan.					
Jami:		17	68	612	10	44	132

Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning muqobil shakllari guruhlarida amalga oshiriladigan (4 soat) bolalar faoliyati turlarining taxminiy miqdori

T/r	Faoliyat turlari	O'tkazish davriyligi
1.	Tasviriy faoliyat	Haftada 1 marta
2.	Konstruksiylar tuzish/applikatsiya (navbatma-navbat)	Haftada 1 marta
3.	Tabiatshunoslik va ekologiya asoslari	Haftada 1 marta
4.	Elementar matematika va mantiqiy fikrlash	Haftada 2 marta
5.	Musiqqa	Haftada 2 marta
6.	Jismoniy tarbiya	Haftada 2 marta
7.	Nutq o'qirish, o'qish va yozish malakalari	Haftada 2 marta
8.	Savodxonlikka tayyorlash	Haftada 2 marta
9.	Badiiy adabiyot	Haftada 2 marta
Jami:		15

4-ilova Namunaviy yillik mavzuli reja

Oy	Oy mavzusi	Oy haftalari	Hafta mavzulari/Yosh guruhlar			
			3-4 yosh	4-5 yosh	5-6 yosh	6-7 yosh
Sentabr	O'zbekiston – mening Vatanim	1-hafta	O'zbekiston–mening Vatanim	O'zbekiston ramzlari	O'zbekiston – faxrimiz va g'ururimiz	Yangi O'zbekiston – tinchlik va do'stlik mamlakati
		2-hafta	Mening bog'cham	Bizning bog'chamiz hayoti	Bizning bog'chamiz va mening do'stlarim	Bolalar bog'chasi – mening ikkinchi oilam
		3-hafta	Men va mening oilam	Bizning ahil oilamiz	Bizning katta oilamiz	Oilamiz an'analari va bayrlari
		4-hafta	Mening sevimli uyim	Mening ko'cham, mening mahallam	Mening shahrim/qishlog'im	Ona yurtim tarixi va diqqatga sazovor joylari
Oktabr	Kuz bo'yoqlari	1-hafta	Kuz bo'yoqlari	Oltin kuz	Tabiatdagi kuzgi o'zgarishlar	Bizning yurtimizda kuz
		2-hafta	Meva va sabzavotlar	Tomorqa, bog', dala	Oltin kuz ne'matlari	Kuzgi hosil – dehqon mehnati
		3-hafta	Non haqida tushuncha	Non va non mahsulotlari	Non qanday tayyorlanadi?	Nonning qadri va an'analari
		4-hafta	Paxta haqida tushuncha	Mening yurtim tabiiy boyliklari	O'zbekistonning tabiiy boyliklari	O'zbekistonning yer osti va yerusti tabiiy boyliklari
Noyabr	Transport va xavfsizlik	1-hafta	Transport bilan tanishish	Yer usti, havo va suv transporti	Maxsus transport – insonlar yordamchisi	Transport tarixi
		2-hafta	Kichik yo'lovchi	Transport sohasidagi kasblar	Transport va ekologiya	Yashil transport–kelajak transporti
		3-hafta	Sветофор	Sветофор va yo'l qoidalari	Yo'ldagi yordamchilarimiz	Ehtiyotkor piyoda
		4-hafta	Tez tibbiy yordam va yong'in xavfsizligi xizmatlari	Tez tibbiy yordam, yong'in xavfsizligi va ichki ishlar xizmatlari	Favqulodda vaziyatlar xizmatlari	Xavfsizlik alifbosi
Dekabr	Sehrlı qish	1-hafta	Qish keldi	Oppoq qish	Tabiatdagi qishki o'zgarishlar	O'lkamizda qish
		2-hafta	Mening huquqlarim	Mening huquqlarim va majburiyatlarim	Men O'zbekiston fuqarosiman	Konstitutsiya – O'zbekistonning asosiy Qonuni

		3-hafta	Kiyim-kechaklar	Kiyim-kechak va oyoq kiyimlar	Mavsumga mos kiyim-kechak va oyoq kiyimlar	Mavsumga mos kiyim-kechak, oyoq va bosh kiyimlari
		4-hafta	Archa bog‘chamizga mehmonga keldi	Yangi yil–quvonch bayrami	Yangi yilni qarshi olamiz	Boshqa mamlakatlarda Yangi yil bayrami
<u>Yanvar</u>	Men o‘zimni anglayman va sog‘ligim haqida g‘amxo‘rlik qilaman	1-hafta	Men va mening tanam	Insonning tana a‘zolari	Bizning tanamiz qanday tuzilgan?	Inson tanasining ajoyib xususiyatlari
		2-hafta	Bizning himoyachilarimiz	Vatanimiz himoyachilari	Vatanimiz posbonlari	Vatan biz uchun muqaddas, uni himoya qilish – sharaftir!
		3-hafta	Tozalik – sog‘liq garovidir	Shaxsiy gigiyena	Kundalik hayotdagi gigiyena	Gigiyena–sog‘ligimiz
		4-hafta	Agar sog‘lom bo‘lishni istasang	Men va mening sog‘ligim	Salomatlik alifbosi	Sog‘lom tanda – sog‘lom ruh
<u>Fevral</u>	Ajoyib olam	1-hafta	Mening birinchi kitobcham	Kitob-bolalarning do‘sti	Kitob dunyosi	Kitob tarixi
		2-hafta	O‘zbek xalq ertaklari	Sharqning buyuk mutafakkirlari va shoirlari (Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur va boshqalar)	Buyuk mutafakkirlarimiz merosidan faxrlanamiz (Alisher. Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur va boshqalar)	O‘zbekistonning tarixiy va zamonaviy buyuk shaxslari
		3-hafta	Men va mening do‘stlarim	Do‘stlik va bag‘rikenglik	Qo‘shni mamlakatlar	Dunyo mamlakatlari
		4-hafta	Mening uy hayvonlarim	Uy hayvonlari va parrandalar	Yovvoyi hayvonlar va qushlar	Yurtimizdagi hayvonlar va qushlarni muhofaza qilish
<u>Mart</u>	Bahor keldi, Navro‘z keldi	1-hafta	Bahor keldi	Go‘zal bahor	Tabiatdagi bahorgi o‘zgarishlar	O‘lkamizda bahor
		2-hafta	Mening sevimli onam	Oilamizdagi ayollar	Mamlakatimiz ayollari	8-mart – Xalqaro xotin-qizlar kuni
		3-hafta	Navro‘z muborak!	Navro‘z – bahor bayrami	Navro‘z – milliy an‘anal, qadriyatlar bayrami	Navro‘z butun sayyoramizda nishonlanmoqda
		4-hafta	Hasharotlar	Qiziqarli hasharotlar	O‘lkamizdagi hasharotlar	Hasharotlar inson hayotida

<u>Apr</u>	Yer sayyorasi, ekologiya va koinot	1-hafta	Yer nima?	Yer – bizning sayyoramiz	Biz Yer sayyorasida yashaymiz	Yer – umumiy uyimiz
		2-hafta	Quyosh va oy	Atrofimizdagi koinot	Quyosh tizimidagi sayyoralar	Koinotni zabt etgan inson
		3-hafta	Atrofimizdagi o'simliklar	Daraxtlar, butalar va gullar	Yurtimizning ajoyib o'simliklar dunyosi	O'zbekiston ekologiyasi va o'simlik dunyosini muhofaza qilish
		4-hafta	Men va tabiat	Suvni asrash – tabiatni asrash	Inson va tabiat, tabiiy resurslarni muhofaza qilish	Inson va tabiatni muhofaza qilish, ekologik xavfsizlik
<u>May</u>	Asbob-uskunalar va jihozlar	1-hafta	Atrofimizdagi qahramonlar	Hududimiz qahramonlari	O'zbekiston qahramonlari	9-may – Xotira va qadrlash kuni
		2-hafta	Mening uyimdagi mebel va idish-tovoqlar	Mebel va idish-tovoqlar	Mening yurtimning milliy mebel va idish-tovoqlari	O'zbekistonning milliy hunarmandchiligi va me'morchiligi
		3-hafta	Mening uyimdagi elektr jihozlari	Elektr jihozlari – bizning yordamchilarimiz	Elektr jihozlari inson hayotida	Elektr jihozlari va ulardan xavfsiz foydalanish
		4-hafta	Axborot texnologiya qurilmalari bilan tanishamiz	Mening Axborot texnologiya qurilmalarim	Axborot texnologiya qurilmalari–mening hayotimda	Axborot texnologiya qurilmalari – inson xizmatida

Izoh: Bolalar faoliyatining turli shakllarini tashkil etishda pedagog o'yin faoliyati, kuzatuvlar va sayrlar, suhbatlar va hikoyalar, ijodiy topshiriqlar, musiqiy-badiiy faoliyat, shuningdek, ota-onalar ishtirokidagi ertalabki tadbirlar hamda bayramlardan samarali foydalanadi.

Shuningdek, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llaydi: o'yin texnologiyalari, loyiha asosidagi yondashuv, AKT (axborot-kommunikatsiya texnologiyalari), tadqiqotga asoslangan metodlar hamda STEM-ta'lim elementlari (fan, texnologiya, muhandislik va matematika).

Mazkur texnologiyalar bolalarning bilishga bo'lgan qiziqishini oshirish, atrof-olamni o'rganishga bo'lgan qiziqishni shakllantirish, mantiqiy va tanqidiy fikrlashni, ijodiy tafakkurni hamda jamoaviy hamkorlik ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Yozgi sog'lomlashtirish davriga mo'ljallangan namunaviy mavzuli reja

Yozgi sog'lomlashtirish davrida ishlarni rejalashtirish bolalar salomatligini tizimli mustahkamlash va ularning to'laqonli faoliyatini tashkil etishda muhim ahamiyatga ega. Ushbu davrda quyosh, havo va suv kabi tabiiy omillardan foydalanilgan holda sog'lomlashtirish mashg'ulotlari o'tkaziladi, bu esa bolalarning immunitetini mustahkamlash hamda organizmining rivojlanishiga yordam beradi.

Bundan tashqari, jismoniy ko'nikmalar va jamoaviy hamkorlikni rivojlantirish maqsadida turli xil ko'ngilochar va sport o'yinlari tashkil etiladi. Yozgi davr, shuningdek, o'quv materiallarini mustahkamlash hamda individual mashg'ulotlar o'tkazish uchun ham imkon yaratadi. Bu esa bolalarni yangi o'quv yiliga tayyorlashga yordam beradi. Rejalashtirish yozgi vaqtni bolalarning uyg'un rivojlanishi va sog'lig'ini mustahkamlashga samarali yo'naltirish imkonini beradi.

Oy	Oy mavzusi	Oy haftalari	Hafta mavzulari/Yosh guruhlar			
			3-4 yosh	4-5 yosh	5-6 yosh	6-7 yosh
Iyun	Yoz va salomatlik	1-hafta	Yoz va quyosh: salomatlik va o'yinlar	Havo va suv – bizning do'stlarimiz	Yozgi sog'lomlashtirish muolajalari	“Yoz – bolalar salomatligi va jismoniy faolligini rivojlantiruvchi fasl”
		2-hafta	Ochiq havoda o'yinlar va ko'ngilochar mashqlar	Chiniqish va organizmni mustahkamlash	Yozda sport va salomatlik	Yozgi sport musobaqalari
		3-hafta	Yozning tabiiy mo'jizalari	Yozda hayvonlar va o'simliklar	Yozda xavfsizlik	Quyosh va suvning sog'liqqa ta'siri
		4-hafta	Yozgi ko'ngilochar o'yinlar	Yozgi asbob-uskunalar va ularning hayotdagi o'rni	Yozgi o'yinlar va salomatlik	Yozning sog'liq uchun ahamiyati
Iyul	Yoz o'tmoqda soz	1-hafta	Ochiq havodagi harakatli o'yinlar	Ertalabki badantarbiya va jismoniy mashqlar	Sport o'yinlari va mashqlar	Yozgi estafeta va musobaqalar
		2-hafta	Yozda tabiatni o'rganamiz	O'simliklar va hayvonlarni kuzatish	Ekologik o'yinlar va tajribalar	Ekologiya va tabiatni muhofaza qilish
		3-hafta	Suv – hayot manbai	Toza suv – sog'lom hayot garovi	Yozda suv ichish tartibi va gigiyena	Suvni muhofaza qilish va suv xavfsizligi
		4-hafta	Yozgi sarguzashtlar	Yozgi o'yinlar va kashfiyotlar	Sport va salomatlik	O'zimizga va tabiatga g'amxo'rlik
		1-hafta	Yoz bilan xayrlashuv	Tabiatda kuzga xos o'zgarishlar	Hosil yig'imi va kuzatishlar	Kuzda tabiatdagi o'zgarishlar

<u>Avgust</u>	Xayr, yoz!	2-hafta	Suv, havo va quyosh – bizning yordamchilarimiz	Yoz va kuzda sog‘liqni qanday saqlash kerak?	Yozgi sog‘lomlashtirish davri yakunlari	Gigiyena qoidalari va sog‘lom turmush tarzi
		3-hafta	Ochiq havoda o‘yinlar	Yangi o‘quv yiliga tayyorgarlik	Motorika va e’tiborni rivojlantirish	Kun tartibi va o‘quv ko‘nikmalarini shakllantirish
		4-hafta	Yozda chiniqamiz	Sport va sog‘liq – yozda	Yozgi sog‘lomlashtirish davri yakunlari	Kuzga tayyorgarlik: sog‘liqni asraymiz

5-ilova MTTda o'tkazilishi belgilab qo'yilgan bayram tadbirlari ro'yxati

MTTlarda an'anaga ko'ra turli bayramlar va tadbirlar o'tkaziladi. O'zbekiston Respublikasining asosiy milliy bayramlari yagona madaniy muhitni yaratadi. Shuningdek, milliy bayramlar do'stlik, xayriya va o'zaro hurmatga tayangan o'zbek xalqining orzu-umidlarini namoyon etadi.

Milliy o'quv dasturida o'tkazilishi qat'iy tavsiya etilgan milliy bayramlar ro'yxati keltirilgan. Har bir MTT taklif qilingan ro'yxatni hududiy xususiyatlariga ko'ra va o'z tadbirlari bilan to'ldirishi mumkin.

T/r	3-4 yosh	4-5 yosh	5-6 yosh	6-7 yosh
1.	1-sentabr "O'zbekiston Respublikasining Mustaqillik kuni" bayram tadbirlari			
2.	1-oktabr – "O'qiyuvchi va murabbiylar kuni"			
3.	8-dekabr – "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi kuni"			
4.	"Yangi yil bayrami" tadbirlari			
5.	14-yanvar – "Vatan himoyachilari kuni"			
6.	8-mart – "Xalqaro xotin-qizlar kuni" bayram tadbirlari			
7.	21-mart – "Navro'z umumxalq bayrami" tadbirlari va sayllar			
8.	9-may – "Xotira va qadrlash kuni" ochiq faoliyat			

MTTlarda tavsiya etilgan tadbirlar

MTTlarda bayramlar bolalarni rivojlantirish va tarbiyalashning eng samarali vositalaridan biridir. Muhim voqealar munosabati bilan bayram va tadbirlarni tashkil etishda quyidagi zamonaviy shakllardan foydalanish tavsiya etiladi: konsert, kvest, loyiha, ta'limiy tadbirlar, musobaqa, sahna ko'rinishi (spektakl), viktorina, festival, yarmarka va boshqalar.

Ota-onalarning faol ishtiroki, shuningdek, bolalarning bayramlarni tashkil etish va modellashtirishdagi faol ishtiroki ijobiy baholanadi.

T/r	3-4 yosh	4-5 yosh	5-6 yosh	6-7 yosh
1.	21-oktabr – "O'zbek tili bayrami kuni"			
2.	Mehrjon – hosil bayrami			
3.	18-noyabr – "O'zbekiston Respublikasining davlat bayrog'i to'g'risida"gi Qonun qabul qilingan kun			
4.	10-dekabr – "O'zbekiston Respublikasining davlat madhiyasi to'g'risida"gi Qonun qabul qilingan kun			
5.	14-yanvar – Vatan himoyachilari kuni			
6.	Buyuk mutafakkir Alisher Navoiy tavallud topgan kun			
7.	Shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Bobur tavallud topgan kun			
8.	9-aprel – Amir Temur tavallud topgan kun			
9.	"Xayr bog'cham, salom maktab" tadbiri			
10.	1-iyun – Xalqaro bolalarni himoya qilish kuni bayram tadbirlari			
11.	2-iyul – "O'zbekiston Respublikasi davlat gerbi to'g'risida"gi Qonun qabul qilingan kun			

6-ilova Bolaning rivojlanish xaritasi

Bolaning rivojlanish xaritasi – bolalar rivojlanishini hujjatlashtirishning asosiy shaklidir. Bolaning rivojlanish xaritasini to'ldirish uchun kuzatuvlar o'tkaziladi. Ular uch bosqichdan iborat: dastlabki bosqich – o'quv yili boshida; oraliq bosqich – o'quv yili o'rtasida; yakuniy bosqich – o'quv yili oxirida.

Dastlabki kuzatuv o'quv yilining boshida (sentabrda) o'tkaziladi. Bu bosqichda har bir bolaning asosiy imkoniyatlari aniqlanadi (boshlang'ich bosqich, asosiy holat, ayni paytdagi rivojlanish darajasi). Shuningdek, bolaning erishgan yutuqlari, kuchli va zaif tomonlari (muammolari) hamda rivojlanishga ehtiyojlari aniqlanadi. Ushbu ehtiyojlarni qondirish uchun pedagogning ko'magi zarur bo'ladi.

Pedagog bolaning rivojlanish xaritasini to'ldiradi. Unda erishilgan natijalar (✓) belgisi bilan qayd etib boriladi. Kuzatuv barcha rivojlanish sohalari bo'yicha o'tkaziladi. Agar muayyan rivojlanish sohasida kutilayotgan natija (indikator) kuzatilmasa yoki faqat ba'zan kuzatilsa, pedagog "Pedagog izohi" ustuniga tegishli izohlarni kiritishi zarur.

"Pedagog izohi" ustunida bolaning rivojlanishidagi o'zgarishlar qayd etilishi kerak, ayniqsa ilgari namoyon qilingan ko'nikma zaiflashgan yoki rivojlanishda sekinlashuv yuzaga kelgan bo'lsa. Bunday holatlarda rivojlanishdagi o'zgarishlarning sabablari (stress, kasallik, MTTga uzoq vaqt kelmaslik va h.k.) ko'rsatilishi zarur. Bunday izohlar juda muhim. Ular rivojlanish dinamikasini kuzatishga, bolaning individual xususiyatlarini hisobga olishga hamda pedagogik qarorlarni asosli ravishda qabul qilishga yordam beradi.

Boladagi rivojlanish darajasi quyidagi mezonlar asosida baholanadi:

K – kuzatilmaydi (bola asosiy ko'nikma va xatti-harakatlarni umuman namoyon qilmaydi).

B – ba'zida kuzatiladi (bola muayyan holatlarda yoki tasodifan asosiy ko'nikma va xatti-harakatlarni namoyon etadi).

T – tez-tez kuzatiladi (bola tegishli holatlarda asosiy ko'nikma va xatti-harakatlarni tez-tez namoyon etadi).

D – doimiy kuzatiladi (bola asosiy ko'nikma va xatti-harakatlarni talab darajasida, muntazam hamda mustaqil ravishda namoyon etadi).

Oraliq kuzatuv ham xuddi shu tamoyil asosida o'tkaziladi. Bu kuzatuv o'quv yilining birinchi yarmining oxirida (dekabr-yanvar oylarida) amalga oshiriladi. Ushbu kuzatuvning asosiy maqsadi bolaga nisbatan tanlangan metodikaning samaradorligini aniqlash hamda uning rivojlanish dinamikasini tahlil qilishdan iborat. Natijalar asosida pedagog tegishli mutaxassislar bilan hamkorlikda ta'lim jarayoniga zarur o'zgartirishlar kiritadi.

Yakuniy kuzatuv pedagog tomonidan o'quv yilining oxirida (may oyida) o'tkaziladi. Ushbu kuzatuv asosida quyidagilar baholanadi: belgilangan ta'limiy maqsadlarning qay darajada amalga oshirilgani; bolaning rivojlanishida erishilgan natijalar va yuz bergan o'zgarishlar; kelgusi pedagogik jarayon uchun bola rivojlanishining yangi kutilmalarini hisobga olgan holda yangi maqsadlarning belgilanishi.

Kuzatuv o'tkazishda pedagog quyidagi tamoyillarga amal qilishi zarur:

kuzatuv bolaga tanish bo'lgan muhitda amalga oshiriladi va uning qo'llab-quvvatlanishiga qaratilgan bo'lishi kerak;

bolaning rivojlanishi haqida obyektiv tasavvurga ega bo'lish uchun kuzatuv kamida ikki hafta (yoki bir oy) davomida olib borilishi zarur;

bola haqida qo'shimcha ma'lumotlar ota-onalar va/yoki MTTning (maktabgacha ta'lim tashkilotining) boshqa xodimlari bilan suhbatlar orqali olinishi mumkin;

bolaning qiziqishlari, moyilliklari, muloqotdagi va idrokda xususiyatlariga alohida e'tibor qaratilishi kerak.

3-6 yoshdagi bolalarga nisbatan dastlabki, oraliq va yakuniy kuzatuvlar natijasida kelgusidagi pedagogik jarayonning maqsadlari aniqlanadi. Bu maqsadlar bolaning rivojlanish sohalariga muvofiq kutilayotgan natijalarni hisobga olgan holda belgilanadi. 6-7 yoshdagi bolalar

(MTT bitiruvchilari) uchun faqat dastlabki va oraliq kuzatuvlar asosida pedagogik maqsadlar belgilanadi, yakuniy bosqichda esa bolaning maktabga tayyorgarlik xaritasi to'ldiriladi.

Bolaning rivojlanish xaritasida har bir kuzatuv siklidan so'ng (dastlabki, oraliq va yakuniy) pedagog bolaning rivojlanish dinamikasini yoshga oid kutilayotgan natijalar hamda individual xususiyatlariga muvofiq ravishda tahlil qiladi. Ushbu tahlil natijalari asosida pedagog "Maqsadlar" bo'limini shakllantiradi va uni to'ldiradi. Mazkur bo'limda bolaning yaqin davrda qo'llab-quvvatlanishi, rag'batlantirilishi yoki rivojlanishida zarur bo'lgan tuzatishlar aks ettiriladi.

Maqsadlar aniq, erishilishi mumkin bo'lgan va bolaning yaqin rivojlanish zonasiga mos bo'lishi zarur.

Maqsadlar bolaga ko'mak zarur bo'lgan rivojlanish sohalarini, shuningdek, aniq ko'nikma va malakalarni shakllantirishga qaratilgan bo'lishi mumkin.

Maqsadlar bolaga emas, balki pedagog uchun belgilanadi. Masalan, maqsad bolaning kommunikativ ko'nikmalarini rivojlantirishga ko'maklashish, uni muloqotga faol jalb etish, lug'at boyligini kengaytirish hamda jamoaviy o'yinlarda faol ishtirok etishini rag'batlantirishdan iborat bo'lishi mumkin.

3-4 yoshli bolaning rivojlanish xaritasi

Bolaning ismi: _____ Bolaning yoshi: _____

Tug'ilgan sanasi: _____ Jinsi: (qiz bola/o'g'il bola) _____

Pedagog: _____

Dastlabki kuzatuvni to'ldirish sanasi: _____

Oraliq kuzatuvni to'ldirish sanasi: _____

Yakuniy kuzatuvni to'ldirish sanasi: _____

Kod	Rivojlanish sohasi/kichik soha Kutilayotgan natija	Dastlabki				Oraliq				Yakuniy				Pedagog izohi
		K	B	T	D	K	B	T	D	K	B	T	D	
1.	Jismoniy rivojlanish va sog'lom turmush tarzi													
1.	Kichik soha: Yirik motorika													
1.1.1.a.	Mustaqil ravishda oyoq uchida muvozanatni saqlagan holda yurish													
1.1.2.a.	Kattalarning yordamida 5-10 sm balandlikdagi to'siqlardan qadam tashlab o'tish													
1.1.4.a.	Bittadan va juft bo'lib, qo'l ushlashib, safda yurish													
1.1.5.a.	Oldinga, orqaga muvozanat saqlagan holda yugurish													
1.1.6.a.	Kattalar yordamida gimnastika taxtasi yoki boshqa sport o'yin jihozlari bo'ylab tirmashib chiqish													
1.1.7.a.	Kattalar yordamida tutqichni ushlab, zinadan ko'tarilish													
1.1.8.a.	Joyida va/yoki oldinga harakatlanib, ikki oyoqda sakrash													
2.	Kichik soha: Mayda motorika													
1.2.1.a.	Qog'ozni turli o'lchamdagi bo'laklarga bo'lib yirtish													
1.2.2.a.	Kattalar yordamida tugmalarni qadash va katta o'lchamdagi mahkamlagichlarni (zamoglarni) ochib-yopish													
1.2.4.a.	Kattalar yordamida qog'ozni qaychida ma'lum shakllarsiz bo'laklarga qirqish													
1.2.5.a.	Ko'rish va harakatni muvofiqlashtirgan holda katta to'p bilan ishlash: ikki qo'l yordamida o'tirgan va turgan holatda to'pni tutish hamda belgilangan yo'nalishda dumalatish													
1.2.6.a.	Qo'l harakatlari va ko'rishni muvofiqlashtirish: yirik o'lchamdagi pazllarni (kubiklar, piramida, lego) 6 tagacha bo'lgan qismlardan yig'ish va joylashtirish													
1.2.7.a.	Buyumlarni paypaslab zichligiga ko'ra farqlash (yumshoq, qattiq)													
3.	Kichik soha: Sog'lom turmush tarzi va xavfsizlik													

Kod	Rivojlanish sohasi/kichik soha Kutilayotgan natija	Dastlabki				Oraliq				Yakuniy				Pedagog izohi
		K	B	T	D	K	B	T	D	K	B	T	D	
1.3.1.a.	Shaxsiy gigiyenaning boshlang'ich qoidalariga rioya qilish (qo'l va yuzni yuvish, tishlarni tozalash, shaxsiy sochiqdan foydalanish), kattalar yordami bilan hojatxonadan foydalanish													
1.3.2.a.	MTT guruhida tozalikni saqlashda qatnashish, kattalar yordamida o'zidan keyin o'yinchoqlarni yig'ishtirish													
1.3.3.a.	Kattalar yordamida ba'zi foydali va zararli ovqatlarni (konfet, gazlangan ichimliklar) farqlash													
1.3.4.a.	O'zini noqulay his qilayotgani yoki salomatligi yomonlashganligi ("qornim og'riyapti", "sovqotyapman" kabi) haqida kattalarga xabar berish													
1.3.5.a.	Kattalarning eslatmasi bilan xavfli narsalar haqida asosiy bilimlarga ega bo'lish ("dorilarga tegmaslik", "gugurt, sanchqi va pichoq kabi kesuvchi narsalarni o'ynamaslik")													
1.3.6.a.	Yo'llarda o'ynayotganda harakatlanayotgan transport vositalarining xavfliligini tushunish													
1.3.7.a.	Ehtimoliy xavfli vaziyatlar haqida boshlang'ich bilimlarga ega bo'lish va bunday holatlarda tanish kattalarga xabar berish zarurligini tushunish (favqulodda vaziyatlar, bolaga zarar yetkazilgan holatlar yoki begona odamlar bilan aloqa qilish)													
2.	Ijtimoiy-hissiy rivojlanish													
1.	Kichik soha: "Men" konsepsiyasi													
2.1.1.a.	O'z ismini aytishi, jinsi va yoshini bilish													
2.1.2.a.	O'zini shaxs sifatida anglash (oynada o'zini tanish) va kattalarning o'z yoqtirgan narsalari haqidagi savollariga javob berish (masalan, "Men bu ertakni yaxshi ko'raman")													
2.1.3.a.	Oilasiga mehr ko'rsatish, yaqin oila a'zolarini fotosuratdan tanib olish (katta yoshli yaqinlari va bolalar bilan uchrashganda quvonish)													
2.1.4.a.	O'z mamlakati nomini bilish, kattalar ishtirokidagi milliy bayramlarda qatnashish													
2.1.5.a.	Yaxshi xatti-harakatlar va yomon xatti-harakatlarni farqlay olish													
2.	Kichik soha: Hissiy rivojlanish													
2.2.1.a.	Hayotiy vaziyatlar va rasmlar orqali o'zida va atrofida gildagi asosiy his-tuyg'ularni (xursandchilik, qayg'u, g'azab, qo'rquv) farqlay olishi													
2.2.2.a.	Turli hislar va kayfiyatlarni namoyon etish (sovg'alar, bayramlarda xursand, omadsizlik va o'yinni boy berganida hislarini jilovlay olmaydi)													

Kod	Rivojlanish sohasi/kichik soha Kutilayotgan natija	Dastlabki				Oraliq				Yakuniy				Pedagog izohi
		K	B	T	D	K	B	T	D	K	B	T	D	
2.2.3.a.	O'z hissiyotlarini oddiy iboralar orqali ifodalash ("men xursandman", "men xafaman"), real yoki o'yin vaziyatlarida ularni mimika va imo-ishoralar bilan namoyon etish													
2.2.4.a.	Boshqalarning hislariga do'stona munosabat bildirish ("ularga e'tibor qaratish", "yig'layotgan tengdoshini yupatish", "boshqalar bilan birga quvonish")													
3.	Kichik soha: Ijtimoiy rivojlanish													
2.3.1.a.	Yaqin-atrofdagi kattalar xatti-harakatlariga taqlid qilish ("o'zini o'qiyotgan qilib ko'rsatish, kattalar yonida ovqat tayyorlayotgan qilib ko'rsatish")													
2.3.2.a.	Yaqin atrofidagi kattalar (oilalar, tarbiyachilar) bilan ijobiy muloqot qilish													
2.3.3.a.	Bolalarning xatti-harakatlarini kuzatish va do'st tanlash ("o'zi ma'qul ko'rgani bilan o'yinchoqlarni almashish/bo'lishish")													
2.3.4.a.	Bolalar bilan muloqotda o'z xohish – istaklari, iltimoslarini so'z bilan ifodalash													
2.3.5.a.	Turli xil farqlarga nisbatan ijobiy munosabat bildirish (qizlar, o'g'il bolalar, alohida ehtiyojga ega bolalar)													
2.3.6.a.	Kattalar yordamida asosiy guruh qoidalariga rioya qilish (kitoblarni yirtmaslik, o'yinchoqlarni yig'ishtirish, salomlashish, rahmat aytish)													
2.3.7.a.	Guruh qarorlarini qabul qilishda ishtirok etish ("Qaysi kitobni o'qish kerak?", "Qaysi o'yinni o'ynash kerak?")													
2.3.8.a.	Kattalar tomonidan taklif qilinganida guruhdagi bolalarni qabul qilish va ularga yordam berish													
3.	Nutq, muloqot, o'qish va yozish ko'nikmalari													
1.	Kichik soha: Nutq va til													
3.1.1.a.	Qisqa ertak, hikoyalarni zavq bilan tinglash (kulish, chapak chalish, imo-ishora qilish)													
3.1.2.a.	Kattalar yordamida tinglangan ertak qahramonlarini ularning oddiy xarakterlari bilan aytib berish (Zumrad – mehribon, Qimmat – jahldor, buvijon – mehribon)													
3.1.3.a.	Kattalar yordamida qisqa she'r, qo'shiqlarni qaytarish													
3.1.4.a.	Ikkita bir-biriga bog'liq harakatdan iborat sodda va og'zaki ko'rsatmalarni ketma-ketlikda bajarish (masalan: "Kubikni shkafga qo'y va yonimga kel")													
3.1.5.a.	Kattalar va yaqin atrofidagilarning savollariga javob berish													
3.1.6.a.	So'zlar ma'nosini tushunish uchun sodda savollar berish ("Bu kim?", "Bu nima?")													

Kod	Rivojlanish sohasi/kichik soha Kutilayotgan natija	Dastlabki				Oraliq				Yakuniy				Pedagog izohi
		K	B	T	D	K	B	T	D	K	B	T	D	
3.1.7.a.	Kattalar yordamida yangi soʻzlarni qoʻllash													
3.1.9.a.	“Bir” va “koʻp” soʻzlarining maʼnosini tushunish													
3.1.10.a.	Nutqida 2-3 ta soʻzdan iborat sodda gaplardan foydalanish													
3.1.11.a.	Kattalar yordamida nutqda oʻtgan va hozirgi zamon feʼllarini qoʻllash (Dadam ishga ketdi. Onam koʻylak tikyapti.)													
3.1.12.a.	Multfilmlarni tomosha qilish orqali chet tiliga qiziqish bildirish													
2.	Kichik soha: Oʻqishga tayyorgarlik													
3.2.1.a.	Kitobdagi rang-barang tasvirlarni qiziqish bilan koʻrib chiqish, sevimli hikoyasini oʻqib berishni soʻrash													
3.2.3.a.	Kattalarga qarab oddiy soʻzlarni aniq talaffuz qilish, baland va past ovozli nutqni farqlash													
3.2.4.a.	Atrofidagi ayrim bosma harflarni taniy olish													
3.2.5.a.	Oʻyinlarda, mashgʻulotlarda kattalar orqasidan soʻzlarni boʻgʻinlarga ajratib takrorlash													
3.	Kichik soha: Yozuvga tayyorgarlik													
3.3.1.a.	Yozuv vositalarini (qalam, ruchka) butun kafti bilan ushlash (kam ushlash)													
3.3.2.a.	Yozishga qiziqish bildirish, uni qogʻozda turli xil belgilar bilan oʻyin sifatida qabul qilish													
3.3.3.a.	Asosiy grafik belgilarni (chizmalar, chiziqlar, doiralar) chizish													
4.	Bilish jarayonlarining rivojlanishi													
1.	Kichik soha: Mantiqiy fikrlash va muammolarni hal qilish													
4.1.1.a.	Qiziquvchanlikni namoyon etish, yangi narsa va hodisalar haqida sodda savollar berish (“Bu nima?”)													
4.1.2.a.	Buyumlarni oʻrganishga qiziqishni namoyon qilish (qarab koʻrish, paypaslash, taʼmini bilishga urinish, dumalatish, taqillatish, siqib koʻrish)													
4.1.3.a.	Tajribadan oʻtkazish va xatolar qilish orqali sodda yechimlar topish (masalan, minora qurish, toki u qulab tushmaguncha)													
4.1.4.a.	Ayrim sodda harakatlar oqibatlarini oldindan koʻra bilish (televizorni oʻchirsa, jimlik boʻladi, chiroqni oʻchirsa, qorongʻi boʻladi)													
4.1.5.a.	Kattalar yordamida tanish narsalarni bitta tashqi belgisiga (rangi, oʻlchami) koʻra ajratish													

Kod	Rivojlanish sohasi/kichik soha Kutilayotgan natija	Dastlabki				Oraliq				Yakuniy				Pedagog izohi
		K	B	T	D	K	B	T	D	K	B	T	D	
4.1.6.a.	Kattalar yordamida 2 ta elementning oddiy takrorlanuvchi ketma-ketliklarini tanib olish (rang, shakl)													
4.1.7.a.	Oddiy raqamli qurilmalarni (telefon, planshet, televizor, ularni yoqish/o'chirish) aniqlash va ulardan foydalanish													
4.1.8.a.	Oddiy grafik belgilarni ("quyosh" yoki "bulut" – ob-havo, kulgichlar (smaylik) – kayfiyat/hissiyotlar) farqlash													
4.1.9.a.	Tanish manbalardan (radio, televideniye, rasmlar, kitoblar) asosiy ma'lumotlarni tanib olish													
2.	Kichik soha: Elementar matematika													
4.2.1.a.	Turli amaliy vaziyatlarda 1 dan 5 gacha tartibli sanashdan foydalanish (rasmlardagi o'yinchoqlar, buyumlar sonini sanash)													
4.2.2.a.	O'yinchoqlar va ko'rgazmali materiallar yordamida to'plam tushunchalarini farqlash: "bitta", "ko'p"													
4.2.3.a.	Sonlarni harflardan farqlash, raqamlarni tanish va nomini aytish													
4.2.4.a.	Buyumlarni o'lchash, hajmiga qarab kichikdan kattagacha taqqoslash													
4.2.5.a.	Narsaning butun va yarim bo'lagi tushunchalarini farqlash (butun olma va olmaning bo'lagi)													
4.2.6.a.	Asosiy geometrik shakllarni farqlash (doira, kvadrat, uchburchak)													
4.2.7.a.	Buyumning o'ziga nisbatan joylashishini aniqlash (yaqin – uzoq, baland – past, oldinda – orqada)													
4.2.8.a.	Kun qismlarini farqlash (ertalab, kunduzi, kechqurun (oqshom), ularni kundalik harakatlar bilan nisbatlash (ertalab bolalar bog'chasiga boraman, kechqurun uxlashga yotaman)													
1.2.2.e.	Tugmalarni qadash va kichik o'lchamdagi mahkamlagichlarni (zamoglarni) ochib-yopish, poyabzalni mustaqil kiyish va ipini bog'lash													
1.2.4.e.	Ta'lim jarayonida qaychidan mustaqil foydalanish, turli tuzilishga ega materiallardan murakkab shakllarni qirqib olish													
1.2.5.e.	Turli o'lchamdagi to'plar bilan ulotirish va tutib olish, belgilangan nishonga aniq tepish jarayonida ko'rish va harakatni muvofiqlashtirish													
1.2.6.e.	Qo'l harakatlari va ko'rishni muvofiqlashtirish: mayda o'lchamdagi pazllarni (mozaika, lego) 25 tadan ortiq qismlardan yig'ish va joylashtirish, ko'rsatma asosida yoki o'z tasavvuriga ko'ra konstruksiyalar yaratish													
1.2.7.e.	Turli tuzilishga ega buyumlarni ko'rinishi va paypaslab sezish orqali ularning turli xususiyatlariga ko'ra taqqoslash													
3.	Kichik soha: Sog'lom turmush tarzi va xavfsizlik													
1.3.1.e.	Har kuni shaxsiy gigiyena va o'zini parvarishlash qoidalariga rioya qilish, ularning salomatlikni saqlash uchun muhimligini tushunish, hojatxonadan mustaqil foydalanish													
1.3.2.e.	Uyda, MTT guruhida va jamoat joylarida xulq-atvor hamda tozalik qoidalariga mustaqil rioya qilish, shuningdek xo'jalik-maishiy mehnatda ishtirok etish													
1.3.3.e.	Foydali va zararli oziq-ovqat mahsulotlarini farqlash, ularning salomatlikka ta'siri va oqibatlarini tushunish													
1.3.4.e.	O'zidagi noqulaylik alomatlarini aniqlash va ularga ehtimoliy sabablar bilan bog'lash ("zararli narsa yeb qo'yganim uchun qornim og'riyapti), o'z holatini batafsil ta'riflash ("ertalabdan isib ketyapman")													
1.3.5.e.	Zarur bo'lganda kattalar nazorati ostida xavfli buyumlar bilan muomala qilishning asosiy qoidalariga rioya qilish va ularni buzish oqibatlarini oldindan anglash (kuyish, jarohatlanish, zaharlanish va boshqalar)													
1.3.6.e.	Piyodalar uchun yo'l harakati xavfsizligining asosiy qoidalariga rioya qilish, piyodalar uchun mo'ljallangan yo'l belgilarining ma'nosini bilish (avtobus bekati, velosiped yo'lagi, piyodalar harakati taqiqlangan), yo'l harakati qoidalarini buzish oqibatlarini tushunish													
1.3.7.e.	Turli xil xavfli vaziyatlarda hayot xavfsizligining asosiy qoidalariga rioya qilish, kattalar va qutqaruv xizmatlaridan shoshilinch yordam so'rash													
2.	Ijtimoiy-hissiy rivojlanish													
1.	Kichik soha: "Men" konsepsiyasi													

Kod	Rivojlanish sohasi/kichik soha Kutilayotgan natija	Dastlabki				Oraliq				Yakuniy				Pedagog izohi
		K	B	T	D	K	B	T	D	K	B	T	D	
2.1.1.e.	O'zini tanishtirish (ismi, familiyasi, jinsi, yoshi, millati, ona tili, tug'ilgan sanasi va joyi (shahar/mintaqa nuqtai nazaridan), o'z qiziqishlari, afzalliklari, yutuqlari haqida gapirib berish													
2.1.2.e.	O'zini ijobiy inson sifatida qabul qilish kuchli va zaif tomonlarini hisobga olgan holda mustaqil qarorlar qabul qilish va asoslash													
2.1.3.e.	O'z oilasiga mansubligidan faxrlanish, yaqin va uzoq qarindoshlar ismini aytish, oila a'zolari va oilaviy an'analari haqida gapirib berish													
2.1.4.e.	O'z mamlakati va madaniyatiga mansubligidan faxrlanish, milliy ramzlarning ahamiyatini tushuntira olish, milliy bayramlarda ishtirok etish, Vatanining tarixiy o'tmishi va zamonaviy yutuqlariga qiziqish bildirish													
2.1.5.e.	O'z harakatlari uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olish, xatolarini anglash va ularni tuzatishga intilish (kimnidir ranjitgan bo'lsa, kechirim so'rash, o'z harakatlarini to'g'ri tan olish va ular uchun javob berish)													
2.	Kichik soha: Hissiy rivojlanish													
2.2.1.e.	O'z hislari, shuningdek, tengdoshlari va kattalar hislarining sabablarini tan olish va tushunish													
2.2.2.e.	Vaziyatga qarab his-tuyg'ularini ifoda etish, o'zi, boshqalar va jamoaning g'alabalaridan xursand bo'lish, muvaffaqiyatsizliklarga hamdard bo'lish													
2.2.3.e.	O'zi va boshqaning xulq-atvoriga nisbatan hislarini mustaqil boshqarish, ularning atrofdagilar kayfiyatiga ta'sirini oldindan ko'ra bilish													
2.2.4.e.	Zarur bo'lganda atrofdagilarga nisbatan hamdardlik va qo'llab-quvvatlash ko'rsatish, nizolarni oldini olish uchun o'z hissiyotlari va xulq-atvorini boshqara olish (so'z bilan taskin berish, yordam ko'rsatish)													
3.	Kichik soha: Ijtimoiy rivojlanish													
2.3.1.e.	Oila va jamiyatdagi ijtimoiy hayot va xulq-atvor shakllarining xilma-xilligini o'z tajribasiga asoslanib tushunish (rolli o'yinlarda do'kon, shifoxona, sataroshxonaga tashrif buyurish)													
2.3.2.e.	Tanish va notanish kattalar bilan ijobiy muloqot qilish, o'z fikrlarini bayon etish, kattalar bilan muloqot qilish tajribasi atrofdagi dunyoda muvaffaqiyatli ijtimoiylashuv uchun muhim ekanini tushunish													
2.3.3.e.	Muloqot jarayonida hurmat bilan munosabatda bo'lish, jamoaviy faoliyatda qaror qabul qilishda shaxsiy manfaatlarini guruh manfaatlariga moslashtira olish													

Kod	Rivojlanish sohasi/kichik soha Kutilayotgan natija	Dastlabki				Oraliq				Yakuniy				Pedagog izohi
		K	B	T	D	K	B	T	D	K	B	T	D	
	(tengdoshlar bilan o'yin va faoliyatni amalga oshirishda, jamoaviy qarorlar qabul qilish jarayonida)													
2.3.4.e.	Bolalar bilan ijobiy muloqot o'rnatish, tizimli qarorlar qabul qilish, tengdoshlari bilan muzokaralarni kelishuv orqali olib borish ("mana bunday qilib ko'rish mumkin, agar natija bo'lmasa, boshqacha qilib ko'ramiz")													
2.3.5.e.	Bolalar va kattalarning turli xil xususiyatlariga ko'ra xilma-xilligiga hurmat bilan munosabatda bo'lish, barcha insonlar teng hurmat va yaxshi munosabatga loyiq ekanini tushunish													
2.3.6.e.	Kun tartibiga, guruhdagi, MTTdagi va jamoat joylaridagi umumiy xulq-atvor qoidalariga rioya qilish													
2.3.7.e.	Natijalarga erishish uchun guruhning qo'shma qarorlarini qabul qilishda mas'uliyatni o'z zimmasiga olish													
2.3.8.e.	Guruhdagi muammoli vaziyatlarni oldini olish, so'z va ishontirish orqali tinch yo'l bilan hal qilish													
3.	Nutq, muloqot, o'qish va yozish ko'nikmalari													
1.	Kichik soha: Nutq va til													
3.1.1.e.	Turli badiiy adabiyot va axborot matnlarini qiziqib tinglash, eshitganini tahlil qilish va o'z fikrini bildirish													
3.1.2.e.	Eshitgan turli janrdagi badiiy asarlari mazmunini voqealarning mantiqiy ketma-ketligida qahramonlarning harakatlarini baholab, ifodali ravishda qayta hikoya qilish													
3.1.3.e.	She'r, masal, qo'shiqlar matnini yakka tartibda yoki guruhda ifodali yoddan o'qish, so'zlarga qofiya o'ylab topish													
3.1.4.e.	Ko'rsatmalarni ijodkorlik bilan bajarish, o'z harakatlarini tushuntirish va izohlash ("agar bunday qilib bo'lmasa, boshqacha qilib ko'rishga harakat qilaman")													
3.1.5.e.	Tengdoshlari va/yoki kattalar bilan suhbatda dialogik nutq yordamida fikr, g'oya va ma'lumot almashish va o'z g'oyalarini ilgari surish													
3.1.6.e.	Turli manbalardan eshitilgan ma'lumotlarni tahlil qilish va keyin uni kundalik hayotida qo'llash													
3.1.7.e.	Nutqda turli sohalarga taalluqli yangi atamalardan foydalanish (kasblar nomlari – hamshira, shifokor, muhandis, gadjetlar, asboblari, uskunalar va boshqalar)													
3.1.8.e.	Tegishli vaziyatlarda birlik va ko'plikdagi shaxs hamda egalik olmoshlarini to'g'ri qo'llash ("ular – ularning")													

Kod	Rivojlanish sohasi/kichik soha Kutilayotgan natija	Dastlabki				Oraliq				Yakuniy				Pedagog izohi
		K	B	T	D	K	B	T	D	K	B	T	D	
3.1.9.e.	Nutqning turli qismlarida birlik va ko'plik shakllaridan to'g'ri foydalanish (Qizcha bog'chaga keldi. Bolalar stollarga o'tirdilar)													
3.1.10.e.	Harakatlarni asoslash va aniqlashtirish uchun jumalarda murakkab nutq tuzilmalaridan foydalanish (so'zlardan foydalanish – chunki, qiz bola do'stlari uni kutayotganligi uchun bolalar bog'chasiga xursandchilik bilan boradi)													
3.1.11.e.	Nutqda turli voqealar vaqtiga qarab turli zamon fe'llaridan foydalanish (Kecha men uyda bir o'zim qo'g'irchoq bilan o'ynadim, ertaga esa qo'g'irchoqlarni dugonalarim bilan o'ynayman)													
3.1.12.e.	Tez-tez uchraydigan narsalarni xorijiy tilda nomlash, oddiy ko'rsatmalarga amal qilish (o'tiring, turing, bering), shablon yordamida savollarga javob berish (isingizni, yoshingizni, yashash joyingizni ayting), qisqa she'rlar yodlash													
2.	Kichik soha: O'qishga tayyorgarlik													
3.2.1.e.	Kitobni bilim va axborot manbai sifatida qadrlash va uning ahamiyatini tushunish, kitob tuzilishini (muqova, sahifa, matn, illyustratsiya) farqlay olish													
3.2.3.e.	Asosiy fonetik nutq ko'nikmalarini namoyon etish, tovushlarni aniq talaffuz qilish va ulardan so'zlarni o'qish uchun foydalanish, so'zlarning asosiy tovush tahlilini o'tkazish va nutqning balandligi, temp va intonatsiyasini tartibga solish													
3.2.4.e.	Alifbodagi katta bosma harflarni vizual ravishda ajrata olish va nomlash													
3.2.5.e.	Bosma harflar orqali so'zlarni bo'g'inlab o'qish, so'zlarni mustaqil ravishda bo'g'inlarga ajratish, so'zdagi birinchi va oxirgi bo'g'inni ajratib ko'rsatish													
3.	Kichik soha: Yozuvga tayyorgarlik													
3.3.1.e.	Mashg'ulotlarda yozuv vositalaridan uchta barmoqda ushlab foydalanish (qisib ushlab)													
3.3.2.e.	Yozuvni ma'lumot yoki xabarni yozma shaklda yetkazish vositasi sifatida anglash, undagi so'zlar o'z ma'nosi va mazmuniga ega ekanligini tushunish													
3.3.3.e.	So'zlar va oddiy gaplarni bosma harflar bilan yozish, yozish yo'nalishini saqlash (chapdan o'ngga, yuqoridan pastga, so'zlar orasida bo'sh joy qoldirish)													
4	Bilish jarayonlarining rivojlanishi													
1.	Kichik soha: Mantiqiy fikrlash va muammolarni hal qilish													
4.1.1.e.	Narsa va hodisalar o'rtasidagi sabab-oqibat munosabatlarini tahlil qilish ("Yomg'ir boshlandi, shuning uchun sayrga soyabon olib chiqamiz")													
4.1.2.e.	Shaxsiy tajribasiga, kuzatuvlar va tajribalarning kutilgan/kutilmagan natijalariga asoslangan oddiy gipotezalarni ilgari surish va natijalarni qayd etish (magnitlar													

Kod	Rivojlanish sohasi/kichik soha Kutilayotgan natija	Dastlabki				Oraliq				Yakuniy				Pedagog izohi
		K	B	T	D	K	B	T	D	K	B	T	D	
	tortishi va qaytarishi mumkin, o'zgarishlar, o'lchovlar va boshqalar natijalarini eslab qolish)													
4.1.3.e.	Egallangan tajriba asosida masalalar va muammolarga ijodiy yechim topish (minorani qurishda munosib va ijodiy yondashuv, konstruktorni sxemaga muvofiq yig'ish) va o'z xohishiga ko'ra qo'shimcha qismlarni qo'shish													
4.1.4.e.	Voqealarning sabab-oqibatlarini tushunish orqali uning rivojlanishi va natijalarini oldindan ko'rish (agar piyolani stol chetiga qo'ysa, tushib ketishi, sinishi va jarohatga olib kelishi mumkin)													
4.1.5.e.	Ta'lim jarayonida va kundalik hayotiy faoliyatda narsalarni ajratish bo'yicha ijodiy g'oyalar taklif etish													
4.1.6.e.	Aralash ketma-ketlikka ega mantiqiy masalalarni yechish (modellash, matematika, konstruktor yig'ish va boshqalar)													
4.1.7.e.	Raqamli qurilmalardan ta'lim jarayoni va kundalik hayotda maqsadli foydalanish, hamda raqamli xavfsizlik qoidalariga rioya qilish (shaxsiy ma'lumotlarni bermaslik va begona xabarlariga javob yozmaslik)													
4.1.8.e.	Turli vaziyatlarda funksional grafik belgilardan foydalanish (yo'l belgilari, jamoat joylaridagi piktogrammalar, axlat, hojatxona, kirish-chiqish)													
4.1.9.e.	Qabul qilingan va uzatilgan ma'lumotlarni xronologiya, ahamiyat va mavzu bo'yicha tanqidiy tahlil qilish, ulardan foydalanish va qayd etish (grafik diagrammalar, loyiha faoliyati)													
2.	Kichik soha: Elementar matematika													
4.2.1.e.	Turli amaliy vaziyatlarda 1 dan 20 gacha tartibli sanashdan foydalanish													
4.2.2.e.	Ko'rgazmali va amaliy mashqlar yordamida 10 soni ichidagi buyumlar sonini (4 ta buyum 2 tadan ko'p, lekin 6 tadan kam) taqqoslash bo'yicha mantiqiy masalalarni yechish													
4.2.3.e.	Amaliy resurslardan foydalanib, sonlar va ishoralar (+, -, =) yordamida 10 gacha bo'lgan sonlarni qo'shish va ayirish bilan bog'liq oddiy matematik masalalarni yechish													
4.2.4.e.	Tadqiqot va tajriba jarayonida suyuq, sochiluvchan va qattiq jismlarni o'lchash uchun o'lchov asboblari yoki shartli birliklardan maqsadli foydalanish va natijalarni qayd etish (uzunlikni lenta bilan, suyuqlik va sochiluvchan narsalarni stakan bilan o'lchash)													

Kod	Rivojlanish sohasi/kichik soha Kutilayotgan natija	Dastlabki				Oraliq				Yakuniy				Pedagog izohi
		K	B	T	D	K	B	T	D	K	B	T	D	
4.2.5.e.	Butun va qism nisbatlarini tahlil qilish, narsani teng va teng bo'lmagan bo'laklarga ongli ravishda bo'lish, xulosa qilish (bo'lak nima uchun butundan kichik ekanini tushuntirish)													
4.2.6.e.	Silliq va hajmli shakllarni farqlash (shar, kub, silindr, piramida), bir geometrik shaklni boshqasiga o'zgartirishni loyihalash, (buklash, qirqish yo'li bilan)													
4.2.7.e.	Yo'nalishlarni aniqlash va ifodalash (o'ngga-chapga, diagonal bo'ylab), ikki o'lchamli fazoda mo'ljal olish (quyoshni qog'ozning yuqori o'ng burchagida chizish, doirani qog'oz markazida joylashtirish) va uch o'lchamli fazoda mo'ljal olish (masalan, xona yoki hovli sxemasi bo'yicha yo'lni topish)													
4.2.8.e.	Vaqt munosabatlarini farqlash (o'tmish-hozir, oldin-keyin), yil fasllarini, hafta kunlarini, oylarni ketma-ketlikda aytib berish, soat va kalendarning ma'nosini tushunish													
3.	Kichik soha: Dunyoni anglash													
4.3.1.e.	Inson tanasining murakkab qismlarini (suyak, mushaklar), ichki a'zolarini nomlash va ularning vazifalarini ta'riflash (suyak va mushaklar tanani tutish va harakatlanishga yordam beradi, yurak qon aylanishni ta'minlaydi, o'pka tanani kislorod bilan ta'minlaydi)													
4.3.2.e.	Turli iqlim sharoitida yashaydigan hayvonlar, baliqlar, qushlar va hasharotlar hayotidagi mavsumiy o'zgarishlarni farqlash (qushlar issiq o'lkalarga uchib ketadi, quyonning rangi qishda oq rangga aylanadi), hayvonot olamini muhofaza qilishning muhimligini tushunish													
4.3.3.e.	Madaniy va yovvoyi o'simliklarni farqlay bilish, ularning foydasini, o'sish va parvarish shartlarini (sug'orish, yorug'lik) tushunish va ularga g'amxo'rlik qilish													
4.3.4.e.	Okean, qit'a, qutb, Quyosh tizimi sayyorolari, do'l, tuman, chaqmoq kabi tabiat obyektlari va hodisalarini farqlash, shuningdek globus, xarita va ob-havo kalendari bilan ishlashni tushunish													
4.3.5.e.	Tabiiy narsalar va hodisalarini farqlash: okean, qit'a, qutb, Quyosh tizimining sayyorolari, do'l, tuman, chaqmoq, shuningdek, globus va xarita, ob-havo taqvimini bilan ishlashni tushunish													
4.3.6.e.	Ekologik mas'uliyatni ko'rsatish va atrof-olamni muhofaza qilishda ishtirok etish, tabiiy resurslarni tejash (daraxt va gullar ekish, chiqindilarni qayta ishlash, tashlandiq va tabiiy materiallardan buyumlar yasash)													

Kod	Rivojlanish sohasi/kichik soha Kutilayotgan natija	Dastlabki				Oraliq				Yakuniy				Pedagog izohi
		K	B	T	D	K	B	T	D	K	B	T	D	
4.3.7.e.	Inson faoliyatining iqlim o'zgarishiga bog'liqligining sabab-oqibatlar va uning jonli va jonsiz tabiat dunyosiga ta'sirini tushunish													
4.3.8.e.	Maishiy elektr jihozlaridan foydalanish va ularni ishlatishda xavfsizlik qoidalariga hamda energiya tejashga rioya qilish (ishlatilgandan so'ng jihozlarni yoqish-o'chirish)													
5.	Ijodiy rivojlanish													
1.	Kichik soha: Badiiy dunyoqarash													
5.1.1.e.	Jahon va milliy san'atning har xil turlariga qiziqish bildirish, ularning tarix va turli madaniyat an'analari bilan bog'liqligini anglash													
5.1.2.e.	Inson va san'atning dunyoni o'zgartirish hamda madaniy merosni saqlashdagi ijodiy rolini tushunish (badiiy ijod, she'riyat, musiqa, haykaltaroshlik, xalq hunarmandchiligi va boshqalar)													
5.1.3.e.	Rasmlar orqali o'z his-tuyg'ulari va dunyoqarashini ifodalash, chizilgan syujetni tasavvur qilib, og'zaki tushuntirish													
5.1.4.e.	Shaxsiy dunyoqarashiga asoslanib kompozitsiyalar yaratish (masalan, harakatdagi, kiyimli insonni tanish va tasavvur qilingan elementlar bilan chizish)													
5.1.5.e.	Tasavvuridagi syujetlar va g'oyalarini turli xil san'at turlarida, yakka tartibda yoki jamoaviy loyihalarda amalga oshirish													
5.1.6.e.	O'z hududi va mamlakatining milliy amaliy san'ati tarixiy hamda madaniy ahamiyatini tushunish, milliy amaliy san'at elementlarini o'zining ijodiy loyihalarida qo'llash													
5.1.7.e.	Yakka holda va/yoki bolalar guruhi bilan turli qo'shiqlarni kuylash, kuy ohangi kayfiyatini, intonatsiyasini va ijro ifodaliligini yetkazib bera olish (davlat madhiyasi, bolalar qo'shiqlari, xalq qo'shiqlari hamda boshqa ommabop qo'shiqlar)													
5.1.8.e.	Musiqa asboblari yakka tartibda yoki guruh orkestri tarkibida chalish, asboblarni ularning ohangi va jarangiga bo'lgan qiziqishiga ko'ra tanlash (fortepiano, dutor, doira, gitara, naycha)													
5.1.9.e.	Yakkaxon va guruhli raqslarda yangi raqs harakatlari va musiqiy kompozitsiyalar yaratish g'oyalarini taklif qilish													
5.1.10.e.	Yangi ssenariylar yaratish, o'z g'oyalari va istaklariga muvofiq turli xil teatr va sahnalashtirish tadbirlarda ishtirok etish (yangi qahramonlar va syujetlar, milliy musiqiy/sahna teatri, raqs guruhlari)													

Kod	Rivojlanish sohasi/kichik soha Kutilayotgan natija	Dastlabki				Oraliq				Yakuniy				Pedagog izohi
		K	B	T	D	K	B	T	D	K	B	T	D	
2.	Kichik soha: Badiiy va ijodiy qobiliyatlari													
5.2.1.e.	O'quv qurollari/materiallarni (yelim, bo'yoq, qog'oz, shu jumladan nostandart buyumlar) mustaqil ravishda tanlab, buyumlarni o'z loyihasiga muvofiq modellashtirish va o'zgartirish													
5.2.2.e.	O'zining ijodiy qarashlariga ko'ra, yakka tartibda yoki loyiha asosidagi faoliyat orqali tabiiy materiallardan (barglar, daraxt mevalari, shoxlar, qarag'ay qubbalari, toshlar, loy, xamir, qum) badiiy kompozitsiyalar modellashtirish													
5.2.3.e.	Ikkilamchi foydalanish materiallaridan estetik jihatdan jozibador ijodiy buyumlarni modellashtirish, ularni qayta ishlashning atrof-olamni muhofaza qilishdagi ekologik ahamiyatini anglash (eski jurnallar va qog'ozlardan qo'lda yasalgan kitobchalar, bloknotlar, pazllar, plastik butilkalardan qushlar uchun oziqlantirgichlar yaratish)													

Maqsadlarni belgilash №1 (dastlabki kuzatuvdan keyin)

Sana _____

Jismoniy rivojlanish va sog'lom turmush tarzi

1. _____

2. _____

Ijtimoiy-hissiy rivojlanish

1. _____

2. _____

Nutq, muloqot, o'qish va yozish ko'nikmalari

1. _____

2. _____

Bilish jarayonlarining rivojlanishi

1. _____

2. _____

Ijodiy rivojlanish

1. _____

2. _____

Maqsadlarni belgilash №2 (Oraliq kuzatuvdan keyin)

Sana _____

Jismoniy rivojlanish va sog'lom turmush tarzi

1. _____

2. _____

Ijtimoiy-hissiy rivojlanish

1. _____

2. _____

Nutq, muloqot, o'qish va yozish ko'nikmalari

1. _____

2. _____

Bilish jarayonlarining rivojlanishi

1. _____

2. _____

Ijodiy rivojlanish

1. _____

2. _____

Maqsadlarni belgilash №3 (Yakuniy kuzatuvdan keyin)

Sana _____

Jismoniy rivojlanish va sog'lom turmush tarzi

1. _____

2. _____

Ijtimoiy-hissiy rivojlanish

1. _____

2. _____

Nutq, muloqot, o'qish va yozish ko'nikmalari

1. _____

2. _____

Bilish jarayonlarining rivojlanishi

1. _____

2. _____

Ijodiy rivojlanish

1. _____

2. _____

7-ilova 6-7 yoshli bolaning maktabga tayyorgarlik xaritasi

Maktabgacha ta'lim tashkilotini tamomlayotgan (bitiruvchi) bolalar uchun boshlang'ich ta'lim bilan uzviylikni ta'minlash maqsadida maktabga tayyorgarlik darajasini aniqlovchi "6-7 yoshli bolaning maktabga tayyorgarlik xaritasi" to'ldiriladi.

Maktabga tayyorgarlik tushunchasi ostida 6-7 yoshli bolaning umumiy asosiy kompetensiyalari hamda rivojlanish sohalari bo'yicha shakllangan kompetensiyalari tushuniladi.

Ushbu xarita har bir maktabgacha ta'lim tashkiloti bitiruvchisi uchun individual tarzda to'ldiriladi. Unda bola tomonidan erishilgan yutuqlar rivojlanishning beshta asosiy sohasi bo'yicha aks ettiriladi.

Pedagogga bolaning rivojlanish natijalarining qay darajada namoyon bo'layotganini qayd etish tavsiya etiladi. Bolaning rivojlanishining beshta sohasiga oid erishgan natijalari umumlashtirilib, "Izohlar" ustuniga kiritiladi. Bunda quyidagilar ko'rsatiladi: tavsiyalar, yutuqlar (muvaffaqiyatlar), bolaga xos alohida ta'limiy ehtiyojlar va boshqa muhim ma'lumotlar. Mazkur ma'lumotlar ota-onalarga elektron yoki yozma shaklda yetkaziladi.

Bolaning maktabga tayyorgarlik xaritasi ota-onalarning xohishiga ko'ra 1-sinf pedagogiga taqdim etiladi. Ushbu hujjat tavsiyaviy xususiyatga ega bo'lib, bolaning boshlang'ich ta'lim bosqichiga o'tish jarayonini samarali rejalashtirishda pedagog uchun yo'nalish vazifasini bajaradi hamda bolaning 1-sinfga muvaffaqiyatli moslashuvini ta'minlashga xizmat qiladi. Xarita bolaning shaxsiy xususiyatlarini inobatga olgan shaxsga yo'naltirilgan pedagogik yondashuv asosida ishlash uchun metodik asos vazifasini o'taydi.

Boladagi rivojlanish darajasi quyidagi mezonlar asosida baholanadi:

K – kuzatilmaydi.

B – ba'zida kuzatiladi.

T – tez-tez kuzatiladi.

D – doimiy kuzatiladi.

6-7 yoshli bolaning maktabga tayyorgarlik xaritasi

Hudud _____ tuman (shahar) _____

_____ -sonli maktabgacha ta'lim tashkiloti

Bolaning familiyasi, ismi: _____

Bolaning yoshi: _____

Tug'ilgan sanasi: _____

Jinsi: O'g'il bola / Qiz bola _____

T/r	Rivojlanish sohasi Kutilayotgan natija	Kuzatilmoqda				Pedagog izohi
		K – kuzatilmaydi	B – ba'zida kuzatiladi	T – tez-tez kuzatiladi	D – doimiy kuzatiladi	
1.	Jismoniy rivojlanish va sog'lom turmush tarzi					
1.1.	O'z imkoniyatlari va yoshi uchun belgilangan jismoniy rivojlanish me'yorlariga muvofiq jismoniy faollikni namoyon etadi					
1.2.	Turli xil harakat faoliyati turlarini muvofiqlashtirilgan va maqsadga yo'naltirilgan holda bajaradi					
1.3.	Mayda motorikani turli hayotiy va ta'limiy vaziyatlarda qo'llaydi					
1.4.	Sezgi a'zolari yordamida harakatlarini muvofiqlashtiradi					
1.5.	Shaxsiy gigiyena ko'nikmalarini qo'llaydi					
1.6.	Sog'lom turmush tarzi va ovqatlanish asoslarini biladi					
1.7.	Xavfsiz hayot faoliyatining asosiy qoidalariga rioya qiladi					
2.	Ijtimoiy-hissiy rivojlanish					
2.1.	O'zi ("Men") va boshqa odamlarning kundalik hayotdagi rollari haqida tasavvurga ega bo'ladi					
2.2.	Hissiyotlarini boshqaradi va ularni vaziyatga mos ravishda ifodalaydi					
2.3.	Boshqa odamlarning hissiyotlarini taniydi va mos ravishda munosabat bildiradi					

T/r	Rivojlanish sohasi Kutilayotgan natija	Kuzatilmoqda				Pedagog izohi
		K – kuzatilmaydi	B – ba’zida kuzatiladi	T – tez-tez kuzatiladi	D – doimiy kuzatiladi	
2.4.	Kattalar va tengdoshlar bilan vaziyatga mos ravishda muloqot qiladi					
2.5.	Qiyin vaziyatlardan konstruktiv chiqish yo’llarini topa oladi					
3.	Nutq, muloqot, o’qish va yozish ko’nikmalari					
3.1.	Ona tilidagi nutqni tinglaydi va tushunadi					
3.2.	Ona tilida to’g’ri talaffuz, mos grammatik shakllar va turli gap tuzilmalaridan foydalanadi					
3.3.	Turli janrlardagi badiiy asarlarga qiziqish bildiradi					
3.4.	So’zning leksik, bo’g’in va fonetik tuzilishi haqida tasavvurga ega					
3.5.	Turli shakldagi kontentni tuza oladi va qayta hikoya qila oladi					
3.6.	Kitoblarga qiziqish bildiradi va o’qishga tayyorlik ko’nikmalarini namoyish etadi					
3.7.	Yozuvning dastlabki ko’nikmalari va vositalariga ega					
3.8.	Xorijiy tilni o’rganishga qiziqish bildiradi					
4.	Bilish jarayonlarining rivojlanishi					
4.1.	Bilishga faol qiziqish bildiradi					
4.2.	Ta’lim va hayotiy faoliyat uchun zarur bo’lgan ma’lumotlarni topadi va foydalanadi					
4.3.	Buyumlar, hodisalar va voqealar o’rtasidagi oddiy bog’liqliklarni tushunadi hamda ularni yaxlit holda qabul qiladi					
4.4.	Raqamlarni, sanashni biladi va ularni hayotda qo’llaydi					
4.5.	Elementar matematik hisob-kitoblarni bajaradi					
4.6.	Shakl, fazo va vaqtni idrok etadi					
4.7.	Axborot va raqamli savodxonlik asoslarini egallaydi, asosiy grafik belgilarni taniydi					
4.8.	Atrof-olamdagi hodisa va obyektlarni kuzatadi hamda tadqiqot qiladi					

T/r	Rivojlanish sohasi Kutilayotgan natija	Kuzatilmoqda				Pedagog izohi
		K – kuzatilmaydi	B – ba’zida kuzatiladi	T – tez-tez kuzatiladi	D – doimiy kuzatiladi	
4.9.	Tabiatga va atrof-olamni muhofaza qilishga ehtiyotkor va mas’uliyatli munosabatni namoyon qiladi					
5.	Ijodiy rivojlanish					
5.1.	San’at va madaniyatga qiziqish bildiradi					
5.2.	Milliy an’analarini qadrlaydi va ularni kundalik hayotining bir qismi sifatida qabul qiladi					
5.3.	Muayyan san’at turiga nisbatan afzallik bildiradi					
5.4.	Olingan bilim va ko’nikmalarni turli hayotiy vaziyatlarda ijodiy g’oyalarni yaratish va amalga oshirish uchun qo’llaydi					
5.5.	Insonning dunyoni o’zgartirishdagi ijodkorlik rolini tushunadi					

To’ldirilgan sana “_____” _____ 20__ yil

Pedagog: _____
(imzo) (F.I.Sh.)

8-ilova Guruhlarda rivojlanish markazlarining taxminiy joylashuvi

Bolalarga yo‘naltirilgan guruhda puxta o‘ylangan va xavfsiz tashkil etilgan rivojlanish muhiti eng muhim rol o‘ynaydi. U pedagoglarga milliy o‘quv dasturining maqsad va vazifalarini amalga oshirish hamda shaxsga yo‘naltirilgan ta‘lim texnologiyalarini qo‘llash imkonini beradi.

Guruh xonasini rivojlanish markazlari deb ataladigan kichik-kichik hududlarga ajratish tavsiya etiladi.

MTT pedagoglari jadvalda guruhdagi rivojlanish markazlarining minimal soni ko‘rsatilganligini inobatga olishlari lozim. Hududning hamda MTTdagi o‘yinga asoslangan ta‘lim va tarbiya jarayoni mazmunining imkoniyatlari va xususiyatlarini hisobga olgan holda guruhda qo‘shimcha rivojlanish markazlari ham tashkil etilishi mumkin.

Turli guruhlarda rivojlanish markazlari tarkibi har xil bo‘lishi mumkin. Biroq milliy o‘quv dasturida guruhda quyidagi beshta asosiy rivojlanish markazini tashkil etish tavsiya etiladi: “Fan va tabiat”, “Til va nutq”, “Syujetli-rolli o‘yinlar va sahnalashtirish”, “San’at”, “Qurish, konstruksiyalash va matematika”.

Guruhda boshqa rivojlanish markazlarini ham tashkil etish mumkin. Ularni tashkil etish bolalarning qiziqishlari va ehtiyojlariga, guruhning bo‘sh maydoniga hamda maktabgacha ta‘lim tashkilotining moddiy-texnik imkoniyatlariga bog‘liq.

Bunday markazlar vaqtinchalik yoki faqat bolalar faoliyatining ayrim turlari uchun (masalan, qum va suv markazi, pazandachilik markazi, musiqa markazi) tashkil etilishi mumkin.

Ta‘lim muhitini yaratishda pedagoglar bolalar erkin va faol harakatlanishi mumkin bo‘lgan joylar mavjudligini ta‘minlashlari kerak.

Jismoniy faollik uchun mos joylar. Bolalar jismoniy faollik orqali yanada samaraliroq o‘rganadilar. Ular kun davomida yetarli darajadagi jismoniy faollikka, faoliyatlarning xilma-xilligiga hamda rag‘batlantiruvchi muhitga ehtiyoj sezadilar.

Bolalar faoliyatining muayyan amaliy turlari uchun imkoniyatlar. Yosh bolalar suvda o‘ynash, loydan buyumlar yasash, yog‘ochdan turli narsalar tayyorlash, qo‘g‘irchoqlarni parvarish qilish kabi amaliy faoliyatlarga muhtoj. Shuningdek, ularga syujetli-rolli o‘yinlar, rasm chizish, suratga olish, tildan foydalanish va konstruktiv o‘yinlar orqali yangi tajribalarni mavjud bilimlari bilan bog‘lash hamda ularni amalda qo‘llash imkoniyati yaratilishi zarur.

O‘zgaruvchanlik va xilma-xillik. Bolalar doimo o‘zlarini qiziqtiradigan narsalarni izlaydilar: manzaralar, teksturalar, ranglar, ijtimoiy guruhlar, faoliyat turlari, muhit, tovushlar va hidlar. Bolalar o‘yin jarayonida yoki MTTda qancha ko‘p vaqt o‘tkazsalar, ular uchun shuncha ko‘p xilma-xillik va rag‘batlantiruvchi muhit zarur bo‘ladi.

Ta‘lim muhiti xavfsiz bo‘lishi kerak. Bolalar xavfsizligini ta‘minlash pedagogning asosiy mas‘uliyati bo‘lib, bu ehtiyotkorlik bilan rejalashtirish va doimiy nazoratni talab qiladi.

Guruh xonasining maydoni qanday rejalashtirilgani, rivojlanish markazlari qanday joylashtirilgani pedagogning bolalar salomatligi va xavfsizligini ta‘minlashiga, shuningdek, ta‘lim jarayonining samaradorligiga bevosita ta‘sir qiladi.

Pedagog barcha bolalarni xonada ham, tashqarida ham kuzata olishi hamda xona jihozlari bolalarni nazorat qilishga xalaqit beradigan “ko‘rinmas hududlar” hosil qilmaydigan tarzda joylashtirilganligini ta‘minlashi kerak.

Milliy o‘quv dasturini amalga oshirish SanQvaNda belgilangan xavfsizlik qoidalariga muvofiq tashkil etilishi lozim.

T/r	Rivojlanish markazlari	Joylashtirish bo'yicha tavsiyalar
1.	Qurish, konstruksiyalash va matematika	Bu markaz hududini chegaralash muhim, shunda uning yonidan o'tayotgan bolalar qurilmalarni tasodifan buzib yubormaydilar. Bo'sh joy yetishmagan taqdirda ushbu markazni yotoqxonada ham joylashtirish mumkin.
2.	Syujetli-rolli o'yinlar va sahnalashtirish	Ushbu markazlarni yonma-yon joylashtirish yoki birlashtirish mumkin. Agar markazda yumshoq modulli mebellar, shuningdek, oshxona jihozlari mavjud bo'lsa, u dam olish va erkin o'yinlar maydoni sifatida ham xizmat qilishi mumkin.
3.	Til va nutq	Ushbu markazni guruhning eng sokin qismida, bolalar faol harakatlanadigan hududlardan uzoqroqda joylashtirish tavsiya etiladi. Markazda bolalar uchun kichik kutubxona tashkil etilishi mumkin. Agar yumshoq modulli mebellar mavjud bo'lsa, kitob o'qish va tomosha qilish uchun alohida qulay burchak ajratilishi maqsadga muvofiq.
4.	Fan va tabiat	Bu markazni tabiiy yorug'lik yetarli bo'lgan joyga joylashtirish tavsiya etiladi. Chunki bu yerda xona o'simliklari (gullar), akvarium yoki qushlar bo'lishi mumkin. Shuningdek, tajribalar o'tkazish uchun mustahkam va barqaror yuzaga ega stol bo'lishi lozim. "Fan va tabiat" markazida tajribalar o'tkazish uchun yetarli maydon ajratilishi va qulay sharoit yaratilishi zarur. Bolalarning suvdan foydalanishi qulay bo'lishi uchun ushbu markazni rakovina yaqinida joylashtirish maqsadga muvofiq. Shuningdek, markaz yaxshi yoritilgan joyda tashkil etilishi tavsiya etiladi.
5.	San'at	San'at markazi yorug' joyda, imkon qadar deraza yonida yoki yaxshi yoritilgan hududda joylashtirilishi kerak. Bu bolalarning rasm chizish va boshqa ijodiy faoliyatlarni qulay bajarishiga yordam beradi. Shuningdek, markazni sokin burchakda tashkil etish maqsadga muvofiq, chunki bolalar bemalol ijod qilishi uchun u shovqinli joyda bo'lmasligi kerak. Rangli qalamlar, bo'yoqlar, qog'oz, plastilin va boshqa ijodiy materiallar bolalar mustaqil olib foydalanishlari uchun past javonlarga joylashtiriladi. Stol usti yuvilishi oson bo'lgan materialdan tayyorlangan bo'lishi, yonida salftokalar yoki suv idishi bo'lishi tavsiya etiladi. Shuningdek, bolalarning ijodiy ishlarini namoyish etish uchun alohida joy ajratilishi zarur.

Shuningdek, guruhlarda turli xil tashkil etilgan (maxsus ajratilgan) joylarni ham ko'zda tutish mumkin

T/r	Joyni tashkil etish	Joylashtirish bo'yicha tavsiyalar
1.	Guruh yig'ilishi va katta tadbirlar uchun joy	Har bir MTTda ushbu markazlarni alohida tashkil etish uchun yetarli joy mavjud bo'lavermaydi. Shu sababli, qoida tariqasida, ayrim markazlar ko'p funksiyali markazga birlashtiriladi. Bunday holatda makonning moslashuvchan tashkil etilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Bu bolalar ishtirokida bo'sh joyni tezda qayta tashkil etish, guruh yig'ilishlari (ertalabki va kechki davra), o'yinlar va ovqatlanish uchun hududlarni oson ajratish imkonini beradigan yengil yig'iladigan stol va stullardan foydalanishni nazarda tutadi.
2.	Ovqatlanish uchun joy ("Kafe", "Oshxona")	
3.	Sport burchagi	Odatda, ushbu burchak kirish qismida joylashtiriladi. Bu yerda turli sport anjomlari va harakatli o'yinlar uchun zarur atributlar saqlanadi. Zarurat tug'ilganda, ularni ochiq maydonga ham olib chiqish mumkin.
4.	Dam olish joyi	Guruhda bolalarning dam olishi uchun yumshoq modulli bolalar mebellari (divan, kreslo va boshqalar) bilan jihozlangan qulay hudud tashkil etilishi mumkin. Bunday joyni "Til va nutq" markazida tashkil etish maqsadga muvofiq. Bu yerda bola yolg'iz qolishi yoki yana bir bola bilan birgalikda kitob o'qishi, suhbatlashishi yoki dam olishi mumkin. Mazkur hudud juda katta bo'lishi shart emas, ikki nafar bola bemalol sig'adigan joy yetarli hisoblanadi. Ushbu hududda bolalarning tinchligini buzadigan va dam olishiga xalaqit beradigan faol o'yinlar tashkil etilmaydi.
5.	Xilvat burchak	Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun guruh xonasida erkin faoliyat olib borish imkonini beradigan yetarli bo'sh makon bo'lishi zarur. Shu bilan birga, guruhda bolalar uchun alohida xilvat burchak tashkil etish tavsiya etiladi. Bu yerga stol va ikkita stul qo'yilib, bolalar o'zlari xohlagan o'yinlarni o'ynashlari, kitoblarni ko'rib chiqishlari yoki shunchaki dam olib o'tirishlari mumkin.

9-ilova Guruhlardagi rivojlanish markazlari va rivojlantiruvchi muhit uchun materiallarning namunaviy ro'yxati

Mazkur jadvalda bolalarning yosh guruhleri bo'yicha taqsimlanmagan holda MTT guruhlaridagi rivojlanish markazlari hamda rivojlantiruvchi muhitni tashkil etish uchun zarur uskunalar va materiallarning namunaviy ro'yxati keltirilgan.

Shuni inobatga olish kerakki, ushbu ro'yxat tavsiyaviy xususiyatga ega bo'lib, uni to'liq shakllantirish majburiy hisoblanmaydi. Jadvalda uskunalar va materiallarning maksimal ro'yxati berilgan. Biroq MTTda joy va moliyaviy imkoniyatlarning cheklanganligi sababli ushbu ro'yxatni to'liq ta'minlash har doim ham imkoniyat doirasida bo'lavermaydi.

Shu bilan birga, har bir hudud va MTT o'zining hududiy xususiyatlari hamda mintaqaviy komponentiga ega. Shu sababli rivojlanish markazlarini jihozlashda aynan shu xususiyatlarni inobatga olish tavsiya etiladi.

Mazkur jadvalda keltirilgan ma'lumotlar MTTni jihozlashda uning real imkoniyatlaridan kelib chiqib, pedagoglar uchun amaliy yo'riqnoma vazifasini bajaradi. Shuningdek, rivojlanish markazlarini ta'lim va tarbiya jarayonida bolalar bilan birgalikdagi faoliyat orqali mazmunan boyitishga xizmat qiladi.

Bunda barcha jihozlar va materiallar bolalarning yosh xususiyatlari hamda rivojlanish imkoniyatlariga mos bo'lishi zarur.

T/r	Rivojlanish markazlari	Jihoz va materiallar
1.	Qurish, konstruksiyalash va matematika	Jihozlar: materiallarni saqlash uchun ochiq javonlar; polga gilam yoki palos; stol (1), stullar (2-4). Materiallar: yog'och, plastikdan yasalgan katta o'lchamli pol konstruktorlari; katta yumshoq modullar to'plami; transport o'yinchoqlari; turli yoshdagi, millat, kasb vakillarini ifodalovchi haykalchalar; hayvonlarning haykalchalari; "Lego" konstruktori to'plami (odam figuralari bilan); asosiy detallarga ega o'rta va kichik konstruktorlar to'plami: kubiklar, g'ishtchalar, prizmalar, konuslar; boshqa stol konstruktorlari (metall, magnit va boshqalar); matematika uchun: o'lchash, tortish, hajmi, shakli bo'yicha solishtirish uchun ochiq qutilarda turli xil materiallar. Qutilari tizimlashtirilgan, yozuvlar va belgilar bilan ta'minlangan bo'lishi kerak; hisoblash uchun material va saralash uchun rangli stakanlar; boshqotirmalar (geometrik, naqshni yasa va boshqalar); katta o'lchamdagi raqamlar va arifmetik belgilar (namoyish materiali);

		choʻtlar; tortish va taqqoslash obʻyektlar bilan tarozilar; turli uzunlikdagi lineyalar; har xil turdagi oʻlchov ruletkalari; qum soati; sekundomer; raqamli muvozanatlashtirgich; modellar toʻplami: 2 dan 16 gacha boʻlgan qismlarga boʻlish uchun; raqamli kartochkalar toʻplami va boshqalar; shashka, shaxmat.
2.	Syujetli-rolli oʻyinlar va sahnalashtirish	“Oila” oʻyini oʻynash uchun: chaqaloq qoʻgʻirchoqlar va ular uchun aksessuarlar (koʻrpa, soʻrgʻich, shisha idish va boshqalar); kiyimli qoʻgʻirchoqlar (oʻgʻil bola va qiz bola); bolaning boʻyiga mos boʻlgan qoʻgʻirchoq mebellari: stol stullari bilan, oʻyinchoq plita, muzlatgich, qoʻgʻirchoq uchun krovat, javon; qoʻshimcha ravishda: qoʻgʻirchoqlar uchun yumshoq mebel (divan yoki kreslo); aravachalar; qoʻgʻirchoqlar uchun kiyimlar (qish va yoz uchun); qoʻgʻirchoq idishlari (kostryulka va tovalar, likopchalar, piyolalar, qoshiqlar va boshqalar), oʻyinchoq ovqatlar. Kasb bilan bogʻliq oʻyinlar uchun toʻplam va aksessuarlar: “Shifokor”; “Sartarosh”; “Oʻt oʻchiruvchi”; “Militsiya xodimi”; “Sotuvchi”. Sahnalashtirilgan oʻyinlar uchun jihozlar (teatrlashtirilgan tomoshalar): buklanadigan katta yoki kichik toʻsinli parda; kostyumlar uchun ilgich; bolalar yoshiga mos keladigan ikki yoki uchta ertakni sahnalashtirish (aktyorlik qilish) uchun liboslar, niqoblar, atributlar; kostyum elementlarini kiyish uchun atributlar (shlyapalar, sharflar, yubkalar, sumkalar, soyabonlar, munchoqlar va boshqalar); imitatsiya va doiraviy raqs oʻyinlari mazmuniga muvofiq atributlar: yovvoyi va uy hayvonlarining niqoblari (kattalar va bolalariniki), ertak qahramonlari niqoblari. Teatr tomoshalarining kichik shakllari uchun jihozlar (qoʻgʻirchoq teatri va boshqalar): stol teatri uchun katta yoki kichik toʻsinli parda; tayyor oʻyinchoqlarning atributlari va toʻplamlari (kichik va oʻrta oʻlchamdagi shakllar) yoki stol teatri manzarasi elementlari

		sifatida hajmli va yassi o'yinchoqlar ishlab chiqarish uchun yarim tayyor mahsulotlar; kattalar yoki bolalar qo'liga mutanosib bo'lgan atributlar (qo'lqopli yoki barmoqli) va bibabo qo'g'irchoqlari to'plami (bolalarga ko'rsatish uchun).
3.	Til va nutq	Jihozlar: stol (1), stullar (2-4); jihozlar va bolalar adabiyotlarini saqlash uchun ochiq javonlar; magnit doska; yumshoq bolalar mebellari (divan, kreslo); televizor yoki eshitish vositali audio markaz. Materiallar: qir qiladigan rasmlar; pazllar; rasmli kubiklar to'plami; loto; domino; juftli kartochkalar (xotira o'yinlari); bolalarning yosh imkoniyatlariga muvofiq qoidalari bo'lgan boshqa stol bosma o'yinlari (yurish o'yinlari va h.k.); boshqotirma o'yinlari (masalan, tangram va boshqalar); alifbo plakati; magnitli alifbo; harfli va bo'g'inli kubiklar; qora va rangli qalamlar, flomasterlar; trafaretlar; lineykalar; qog'oz, konvertlar; yozish uchun mashq daftarlari, suv flomaster, latta; audioyozuvli disklar (ertaklar, hikoyalar); musiqali kompakt disklar; bolalar badiiy adabiyoti (katta, oddiy matnli, tasvirli kitoblar); bolalar uchun o'quv adabiyoti (ko'plab tasviriy materiallar bilan).
4.	Fan va tabiat	Jihozlar: stol (1), stullar (2-4); materiallarni saqlash uchun ochiq javonlar. Materiallar: tadqiqot uchun turli ob'yektlar to'plami (toshlar, dengiz chig'anog'i, qarag'ay g'uddasi, minerallar, gazlamalar, urug'lar,

		o'simliklar (gerbariy va boshqalar) to'plamlari); kattalashtiradigan oynalar, lupalar; mikroskop; magnitlar to'plami; tajriba uchun to'plamlar; tarozilar; bolalar uchun xavfsiz termometrlar; qum soati, sekundomer; o'lchov stakanlari to'plamlari; ob-havo taqvimi; globus, geografik xaritalar, bolalar atlas; tasvirli o'quv kitoblari, plakatlar, rasmlar.
5.	San'at	Jihozlar: stol (1-2), stullar (2-4); materiallarni saqlash uchun ochiq javonlar; bolaning bo'yi barobar doska; molbert; ish kiyimlari yoki fartuklar. Materiallar: Chizish uchun: turli o'lchamdagi (A5, A4, A3, A2) va turli rangdagi qog'oz va karton; rasm chizish uchun albomlar; akvarel uchun qog'oz; mumli qalamlar, pastellar; qora va rangli qalamlar; markerlar, flomasterlar (yuviladigan, suv asosli); akvarel va guash bo'yoqlari; yumaloq va tekis cho'tkalar, o'lchamlari: № 2-6, 10-14, 12-13; palitralar, suv stakanlari, cho'tka uchun idish; muhrlar, lineykalar, trafaretlar; gubka, o'chirg'ich, salftetkalar, cho'tka uchun latta. Yasash uchun: plastilin, gil, loy; taxtachalar; steklar.

		Yasash va applikasiyalar uchun: turli rang va fakturali yasash uchun qog‘oz va karton; kollajlar uchun materiallar (kamida 3 turdagi); uchlari to‘mtiq qaychi; yelim-qalam; tabiat materiallari; qayta ishlangan materiallar.
	Tashkillashtirilgan joylar	Jihoz va materiallar
6.	Guruhli yig‘inlar uchun joy	Jihozlar: magnitli yoki po‘kakli doska; interaktiv doska; flipchart; polga gilam yoki palos; har bir bola uchun stullar; polda o‘tirish uchun yostiqlar; o‘yinchoqlar uchun modulli javonlar. Materiallar: bolalarning yoshiga mos o‘yinchoqlar.
7.	Guruhli faoliyatlar uchun joy	Jihozlar: pedagog uchun stol; zarur hujjatlarni saqlash uchun pedagogning uslubiy javoni; magnitli yoki po‘kakli doska; interaktiv doska; flipchart; har bir bola uchun stol va stullar; polda o‘tirish uchun yostiqlar.
8.	Ovqatlanish uchun joy (“Kafe”, “Oshxona”)	Jihozlar: har bir bola uchun stol va stullar.
9.	Sport burchagi	Jihozlar: sport mashg‘ulotlari uchun sport gilamchalari (matlar); to‘plar, gardish (obruv)lar, sakrash arqonlari, lentalar; bolalar sport trenajorlari; harakatli o‘yinlar uchun atributlar.